

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

***Ilmiy-ommabop, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

2023-yil 1-2-son

Urganch-2023

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas'ul kotib:

U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tahrir hay'ati:

Z.Do'simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.N.Ermamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O'razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G'ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

D.I.Yo'ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

E.Ro'ziyev – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

D.A.O'razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

M.J.Jumaniyazov – Texnika fanlari doktori, professor.

S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.

O'I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.

Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.

B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).

J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (UrDPI) rektori v.b.

R.Y.Ro'ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF) direktori.

B.Rasulov – Tarix fanlari doktori, dotsent (AnDPI) rektori.

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

H.H.Tadjiev – Turkologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog'iston).

I.S.Yusupov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

D.Y.Batirov – Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.

J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

B.B.Nurullayeva – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

J.B.Davletov – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-ommabop, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
№1-2 (1), Urganch innovatsion universiteti, 2023-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

M.Maxmudov. Beruniyning “Xorazm tarixi” asari – bebaho ilmiy manba.....	5
--	---

FILOLOGIYA

M.Eshmurodov. Xorazm tarixnavisligidagi ayrim davlatchilik atamalarining leksik-semantik xususiyatlari.....	8
M.Masharipov. Mahmudxo‘ja Behbudiy va davr adabiy tilidagi o‘rni.....	14
S.Sariyev. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari qo‘lyozma nusxalarining badiiy xususiyatlari.....	19
D.Otaboyeva. Qadimgi turkiy sag‘in so‘zi etimologiyasi xususida.....	24

TARJIMASHUNOSLIK

N.Mustafayev. Ilm-fanga bag‘ishlangan jonli qadimiy hayot haqida.....	29
--	----

ARXITEKTURA

G.Durdiyeva, Q.Saburov. Shaharsozlik va minoralar.....	42
---	----

IQTISODIYOT

U.Matyaqubov. Mintaqa mehmonxona industriyasida ekologik boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari.....	45
D.Xudayberganov. Tovarlar va xizmatlar bozorining iqtisodiy kategoriya va tushunchalari mohiyati va mazmuni.....	55
M.Aminova, N.Matmuratova. Xorazm viloyatida baliqchilik sohasi xo‘jaliklarida baliq mahsulotlarini yetishtirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	60

FALSAFA

J.Davletov. Globallashuv sharoitida ona tili milliy-ma‘naviy ehtiyojlarni rivojlantirishning muhim omili sifatida.....	66
M.Abdullayev. Maxtumquli Firog‘iyni inson falsafasi masalasidagi qarashlari.....	70

SAN‘ATSHUNOSLIK

S.Sobirov. Xivalik haykaltaroshlar.....	75
--	----



*Madamin Eshmurodov,
Urganch innovatsion universiteti rektori,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

“INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT” jurnaliga oq yo‘l

Har bir davrda jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi islohotlar nazariyasi va amaliyotini belgilab beruvchi jarayonlar bo‘ladi. Ana shu jarayonning samaradorligi esa innovatsiya, ya’ni bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o‘zgarishlar samaradorligini ta’minlash uchun joriy etilgan yangilik bilan bog‘liqdir. Zero, insonning intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi innovatsiya hisoblanadi.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” – “yangilanish” (yoki “o‘zgarish”) va “in” – “yo‘nalishida” so‘zlaridan olingan. Shundan kelib chiqqan holda uni yaxlitlikda tarjima qilsak, “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi. *Innovation* tushunchasi dastlab XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo‘ldi. Ma’lumki, ilm-fanga asoslangan jamiyatgina taraqqiy qiladi, rivojlanadi. Ilm-fan esa doimiy izlanishni talab qiladi va buning asosi esa sifatli ta’limdir. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, ta’lim, ilm-fan, innovatsiya va jamiyat bir-biriga bog‘liq jarayonlardir.

Shu ma’noda o‘tgan yili Xorazm viloyatida ta’sis qilingan Urganch innovatsion universiteti nodavlat ta’lim muassasasi sifatli ta’lim berish, ilm-fanni rivojlantirish, innovatsiyalarni jamiyatga keng tadbiiq etish maqsadida tashkil qilingan. Universitetning yetuk professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘zlangan ezgu maqsadlar yo‘lida ta’lim jarayoni boshlab yuborilgan.

Ana shu jarayonda universitet muassisligida “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali ham tashkil etildi. Jurnal nafaqat Xorazm viloyati, balki respublikamiz, shuningdek, xorijlik tadqiqotchilarning ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarini o‘z sahifalarida chop etib borish orqali fan va ta’lim taraqqiyotiga, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari rivojiga, olimlarning o‘zaro hamkorligiga xizmat qiluvchi nashr bo‘ladi.

Ana shu oliyjanob va ezgu maqsadlar yo‘lida ish boshlagan universitetimiz jamoasi ishlariga rivoj va jurnal tahririyatiga oq yo‘l tilagan holda, jamiyatimizda ma’rifatning yuksak taraqqiy qilishiga o‘z hissamizni qo‘shaylik degan shior ostida barcha ilm ahlini hamkorlikka chorlab qolamiz.

TARIX

BERUNIYNING “XORAZM TARIXI” ASARI — BEBAHO ILMIY MANBA



**Madirim
MAHMUDOV**

**Tarix fanlari
doktori,
professor.**



UO‘K 94/95

Annotatsiya. Maqolada buyuk alloma, Abu Rayhon Beruniyning noyob, ammo asl nusxasi topilmayotgan “Xorazm tarixi” asari haqida ma’lumotlar beriladi. Qo’lyozmaning topilishi va chuqur o’rganilishi tarix fanini yangi ma’lumotlar bilan boyitgan bo’lardi.

Аннотация. Статья пополняет историческую с новыми сведениями до сих пор не найденной уникальной рукописи Абу Райхана Бируни – “Истории Хорезма”. Выявление серьезное изучение этого источника еще более обогатило бы науку, расширило бы горизонты наших знаний.

Annotation. The Article renews the history science with new information about hitherto not found unique manuscript Abu Rayhana Biruni: “Histories Khorezm”. Discovery and serious study of this source else more has enriched science, has increased horizons of our knowledges.

Kalit so‘zlar. Xorazm, tarix, yirik shaxslar, davlat arboblari, Ma’mun akademiyasi, tarixchi olimlar.

Ключевые слова. Хорезм, история, крупные личности, государственные деятель, Академия Маъмуна, ученые-историки.


The Keywords. Khorezm, history, large personalities, statesmans, Academs Mamun, scientist-historians.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Al-Osor ul boqiya an al-qurun al-xoliya”) nomli fundamental kitobi bilan olimlar qatoridan mustahkam o‘rin olgan qomusiy alloma “Abu Rayhon Beruniy o‘zining butun umri davomida yaratgan asarlarida tarix fani va ajdodlar merosiga juda katta e’tibor bilan qarab kelgan. Uning Hindiston”, “Qonuni Mas’udiy”, “Geodeziya,” “Minerologiya”, “Farmokogneziya” va boshqa asarlaridagi ma’lumotlari tarix fani uchun beqiyos katta ahamiyat kasb etadi”(1-15).

Olimning tarixga oid “Kitob al-musomara fi axbor Xorazm” (“Xorazm xabarlari xususida suhbatlar”) nomli asari ham bo‘lib, uning qo‘lyozmasi o‘rta asrlardayoq yo‘qolib ketgan. Beruniyning mazkur tarixiy asari haqidagi ayrim tafsilotlarni arab tarixchisi va sayyohi Yoqut ibn Abdulloh al-Rumiy (1179-1221)

ning “Irshod al-adib” asari va “Mu’jam al-buldon” kitobining 6-jildida uchratish mumkin

“Xorazm tarixi” nomi bilan ma’lum bo’lgan ushbu asar haqida g’aznaviylar davlati tarixchisi Abulfazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy (995-1077) o’zining 30 jildlik “Mas’ud tarixi” (“Tarixi Bayhaqiy”) asarida ayrim ma’lumotlarni bergan. Unda Beruniyning yuqorida zikr qilingan kitobi – “Mushohiri Xorazm” (“*Xorazmning mashhur kishilari*”) nomi bilan qayd qilingan. Beruniyning kitobga kiritgan ma’lumotlari o’z aniqligi va ishonchliligi bilan Bayhaqiyni hayratga solgan”(2). U o’z asarini yozish jarayonida Beruniydan ibrat olganligi haqida shunday yozadi: “Burunroq men ustoz Abu Rayhon qalamiga mansub bir kitob ko’rgan edim. Ul zot suxondonlikda va hodisalar mohiyatini anglashda, geografiya va falsafa fanida naziri yo’q kishi edi, zamonasida unga teng keladigan topilmas edi, u biror narsani o’ylamay yozmas edi”.



Bayhaqiy o’z asaridagi Xorazmga bag’ishlangan ma’lumotlarni bayon qilarkan, yana Beruniy merosiga murojaat etadi. “Xorazm to’g’risida yozar ekanman, Abu Rayhonga ergashib, Ma’mun xonadoni tarixidan boshlashni lozim topdim”, – deb qayd qiladi Bayhaqiy.

Demak, Beruniy Xorazmshoh ma’muniylar sulolasining yuksalishi va inqirozga yuz tutishi, Sulton Mahmud va uning noibi Oltintosh davrida Xorazmda ro’y bergan voqealar haqida fikr yuritadi. Ayniqsa, unda tarixiy shaxslarga berilgan bahosi va ular bilan shaxsiy muloqotlari haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Xususan, Xorazmshoh Abul Abbos Ma’mun ibn Ma’mun haqida fikr yuritgan al-Beruniy uni fozil, shijoatli, tadbirkor va iste’dodli hukmdor bo’lishi bilan birga, shaxsiyatida qancha e’tiborga loyiq ruhiy afzaliklar bo’lsa, shuncha tahsinga xilof xislatlar bo’lganligini qayd etadi. “Amir Abul Abbosning eng yuksak axloqiy husni shundan iborat ediki, uning dahani nosazo, adabsiz va g’iybat so’zlar uchun mustahkam edi. Men, Abu Rayhon, unga yetti yil xizmat qildim va biror marta ham uning og’zidan dashnom keltiruvchi so’z eshitmadim”.

“Xorazm tarixi”da Xorazmshoh Ma’mun bilan Sulton Mahmud oralig‘idagi munosabat haqida ham so‘z yuritiladi. “U bilan amir Mahmud oralari mustahkam do‘stlik ipi bilan bog‘landi. Ular o‘zaro shartnoma tuzishib, amir Sabukteginning qizi olijanob Qoljini olib keldilar: qiz Abul Abbos haramida qoldi. Shundan so‘ng o‘zaro sovg‘a va mehribonchilik maktublari ayirboshlash boshlandi. Abul Abbos har ishda Mahmud tarafini olar, o‘zini nihoyatda hurmat va odob doirasida saqlar edi”.

Abu Rayhon Beruniy yuqoridagi tafsilotlarni davom ettirarkan, Xorazmshoh bilan g‘aznaviylar hukmdori orasidagi munosabatlar vaqt o‘tishi bilan murakkablashib borganligi va oxir-oqibatda ma’muniylar davlatining halokatga olib kelganligini qayd qiladi. Ushbu holatni Bayhaqiy ham tasvirlashga intilgan va Beruniyning “Xorazm tarixi”dan olgan ma’lumotlariga bevosita tayangan.

“Xorazm tarixi” asaridagi ayrim ma’lumotlarni Ovro‘pa olimlarining merosida ham uchratish mumkin. Xususan, “U.N.Morley ismli manbashunos tomonidan nashr qilingan “Tarixi Bayhaqiy”ning qo‘lyozmasini o‘rganish jarayonida nemis sharqshunosi E.Zaxau va akademik V.V.Bartold Beruniyga oid ma’lumotlarga e’tibor qaratganlar. Ko‘p yillar davomida Beruniy merosini o‘rgangan sharqshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor A.K.Arends ham allomaning tarixiy ma’lumotlari o‘z teranligi bilan ajralib turishini tan olgan”(3).

Ma’mun akademiyasi olimlarining merosi har tomonlama o‘rganilayotgan bugungi kunda Abu Rayhon Beruniyning ulug‘ siymosi va uning boshqa fundamental fanlar qatori tarix faniga qo‘shgan bebaho hissasini ham bevosita e’tirof etish darkor. Bir vaqtlar hindular tarixini abadiyatga muhrlagan ulug‘ vatandoshimiz o‘z ona yurti Xorazm tarixi va unda iz qoldirgan buyuk siymolar hayotini ham haqqoniy tasvirlashga erisha olgan. Al-Beruniyning asarlaridan tarix fani manbasi sifatida foydalanish ajdodlarimizning o‘tmishini haqqoniy ravishda yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild. — Toshkent: Fan, 1965.
2. Beruniy va ijtimoiy fanlar. To‘plam. — Toshkent: Fan, 1973.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч., т. 1. — М.: Наука, 1963.

FILOLOGIYA**XORAZM TARIXNAVISLIGIDAGI AYRIM DAVLATCHILIK
ATAMALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**Madamin
ESHMURODOV**
Urganch
innovatsion
universiteti
rektori,
filologiya fanlari
nomzodi,
dotsent

UDK 811.512

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ogahiy tarixiy asarlari misolida Xorazm tarixnavisligidagi ayrim davlatchilik atamalari izohlangan.

Аннотация: В статье разъясняются некоторые термины государственности в историографии Хорезма на примере исторических трудов Агахи.

Annotation: The article explains some terms of statehood in the historiography of Khorezm on the example of Agahi's historical works.

Kalit soʻzlar: tarixnavislik, terminologiya, termin, davlatchilik, mansab, unvon.

Ключевые слова: историография, терминология, термин, государственность, должность, титул.

Key words: historiography, terminology, term, statehood, position, title

Xorazm tarixnavisligi oʻzining rang-barangligi, arabiy-forsiy oʻzlashmalarni oʻz ichiga oluvchi tilining ravon, oʻxshatishlarga boyligi kabi jihatlari bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek, mazkur tarixnavislik maktabining oʻziga xosliklaridan eng muhimi – davlatchilik terminologiyasining mukammalligidir. Quyida Xorazm tarixnavisligidagi davlatchilik terminologiyasiga mansub ayrim mansab va unvonlarning leksik-semantik tahlillarini keltirib oʻtamiz.

Eng oliy harbiy amaldor xonning oʻzi edi. Xon boshchiligida boshqa hududlarga yurishlar olib borilgan, baʼzi harbiy-siyosiy ishlar amalga oshirilgan. Harbiy-maʼmuriy unvonlariga: amirulumaro, bek, beklarbegi, biy, bojbon, botirboshi, buxri, vazir, vakil, darvozabon, dahboshi (oʻnboshi), devonbegi, doruchi, dorgʻa, jallod (nasaqchi), jallodboshi, jigʻachi, imomi jilov, inoq, kutvol, mahram, mahramboshi, mahram dahboshi, mergan, mehtar, miltiqsoz, mirshab, mufti askar, navkar, naqib, noib, ot chopar, otaliq, panjsadboshi (besh yuzboshi), sipohiy, sarboz, sardor, sarkarda, sartib, sarhang, soqchi, tunotar, tunqotar, tugʻchi, tugʻchiboshi, toʻpchi, toʻra, udaychi (hidoyachi), shamxolchi, shigʻovul, shotir, ellikboshi, eshikogʻasi, yuzboshi, yasovul, yasovulboshi, oʻnboshi, qilichkor, qozi askar, qozi urdu, qorovul, qorovulbegi, qoʻshbegi, hokim kabi mansab va vazifalar kirgan.

Moliya-soliq boshqarmasi mukammal boʻlib, birinchi oʻrinda turishi Xiva davlatining maʼmuriy apparati uchun xarakterli edi. Shu sababdan bu boshqarma

tepasida turuvchi amaldorlar ham davlatda birinchi o'rinda turar edilar. Moliya-soliq boshqarmasiga uch kishi: mehtar, qo'shbegi va devonbegi boshchilik qilar edilar.

Mehtar (forscha) – katta, ulug' degani. Mehtar xonga yaqin kishilardan va xon urug'iga mansub a'yonlardan tayinlanardi. Mehtar bosh xazinachi va bosh vazir. Xazina uning ixtiyorida bo'lib, kirim-chiqimni hisob-kitob qilib boradi. “...osafsiyar Muhammad Ya'qub **mehtar** va Abdulloh Yasovulboshi va Muhammad Ya'qubboy valadi Gadoyniyoz mahram va Muhammadjonxoja va g'ayrihumni majmu'i navkarlari bila ul janobning rikobi humoyuni xizmatig'a buyurdi”¹ Saroyda xizmatkorlarning boshlig'i. “Mehtar mansabi xonlikdagi asosiy amallardan biri bo'lib, u yer solig'i (solg'ut) to'playdi”² – deydi L.F. Kostenko.

“Mehtar maosh to'lash ishlariga mutasaddi, qo'shin xizmati ustidan nazorat qiladi va qo'shin hisobini oladi”³, – deb yozadi Ivanin.

Qo'shbegi (turkcha) – qo'sh, harbiy lager, qarorgohning boshlig'i. Qo'shbegi Xiva xonligida ikkinchi vazir bo'lgan. Xonlikning shimoliy qismiga mutasaddi edi. “...shanba kuni amiri soyibtadbir va vaziri ravshanzamir nizomul-mulki va-d-dunyo Muhammad Rizo **qo'shbegi** ijozat olib, ba'zi ahli basirat bila sur'at ko'rguzub”⁴. Bu unvonni ko'p olimlar qushbegi (ovchilar boshlig'i) bilan adashtiradilar. Aslida O'rta Osiyodagi davlatlarda qushbegi emas, balki qo'shbegi, ya'ni qo'shinning boshlig'i bo'lgan. U saroy qo'shinda katta lavozim va maqomga ega edi. Olimlarimizning Xiva xonlari arxivi hujjatlarida uchragan qo'shbegi so'zini qushbegi deb o'qib, “qushchi”, “qarchig'aychi”, “ovchi” deb talqin qilishlari xatodir. Qo'shbegi aslida Xiva xonligida saroyning oliy mansablaridan bo'lib, moliya va soliq ishlarini bajargan. Qo'shbegining ham o'z devoni va amaldorlari bo'lgan⁵. Mehtarning unvoni kabi uniki ham xonadon boshlig'idan meros qolgan⁶.

Devonbegi (forscha, turkcha) – devon boshlig'i. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i bo'lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan. Devonbegi gumrukxona (bojxona) va pul zarb qiladigan ustaxonaning boshlig'idir. “Va hamul marhalada muqarrabi janobi sultoniy, rozdori asrori xoqoniy, nizomu-d-davla Beknoz **devonbegikim**, xoni mag'furning hukmi humoyuni mujibi bila jamshidiya ko'chi ahvolining xabardorlig'i uchun Qaboqli to'g'oyg'a kelib”⁷. Bu unvon va amal 1807-yili joriy

¹ Muhmmad Riza mirab Agahi. Zubdat al-tavarikh. International institute for Central Asian Studies, Al-Beruni Center for Oriental Manuscripts Tashkent State Institute of Oriental studies. Edited in the original Central Asian Türkī with an Introduction and Notes by Khilola Nazirova. International Institute for Central Asian Studies (IICAS) by the UNESCO Silk Road Programme. – Tashkent – Samarkand, 2016. – P. 409^a.

² Костенко Л.Ф. Город Хива в 1873 г. -СПб., 1874. – С. 24.

³ Иванин М.И. Сведения Хивинском ханстве //Манфактура и торговли. 1873, №4. – С. 154.

⁴ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Риёзу-д-давля. Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди. №5364 // II. 271^a -варак.

⁵ Хива хонлигида ов ва саёсат ишларини калон халифа, овчи халифа бошқарар эди. Бухоро ва Қўқонда қушбеги, қушчилар бўлган. Қар.: Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида унвон ва мансаблар //Шарқ юлдузи. 1995, №3, 4. – Б.87, 103.

⁶ Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 г. //ВС. Т. XXVI, 1861. Ч. II. – С. 65.

⁷ Muhmmad Riza mirab Agahi. Zubdat al-tavarikh. International institute for Central Asian Studies, Al-Beruni Center for Oriental Manuscripts Tashkent State Institute of Oriental studies. Edited in the original Central Asian

etilgan. “Muhammad Rahimxon I o‘z amakivachchasi Muhammad Murodbekka bosh devonbegilik mansabini, ya’ni daromad-buromadlarni boshqarish vazifasini topshirdi. Shu bilan birga, xon Muhammad Murodbekka mehtar Yusufni sherik qilib tayinlaydi. Shu yo‘sinda ular hamjihat bo‘lib, katta ish olib bordilar, bu ish shu sohada yaxshi natija berdi va yangilik bo‘ldi”, – deb yozadi Bayoniy “Xorazm tarixi” asarida¹. Ta’kidlash lozimki, devonbegilik bilan birga amaldorlarga “muzakkiylik” vazifasi ham berilgan. Muzakkiy tekshiruvchi, nazoratchi sifatida devonda (viloyatlar va butun xonlik bo‘yicha) faoliyat olib borgan va faqat xonga hisobotlarni bergan².

Bek (turkcha) – unvon. Bek so‘zi aslzoda, hukmdor, janob ma’nolarida ham ishlatilgan. O‘rta Osiyo xonliklaridagi shahar yoki viloyat boshlig‘i. “...anga va shahzodalarg‘a va **beklarg‘a** va ulamolarg‘a bashoratnoma bitib, Jo‘lomon sardor va O‘roz sardor bila irsol qildi”³. Bek xon va davlat arboblarning qarindoshlari, bolalariga beriladigan faxriy unvondir. Agar xonning o‘g‘li yoshligida to‘ra deb atalsa, xonning aka-ukalarining o‘g‘li yoki boshqa a‘yonlarining bolalari **bek** deb atalardi. Masalan, Qutlimurodning o‘g‘li Abdullaxon taxtga minguncha bek deb atalgan. Beklar xonning har xil topshiriqlarini bajarar va urush safarlariga chiqar edilar⁴. Beklar 10 tilladan 100 tillagacha maosh olgan⁵.

Beklarbegi (turkcha) – unvon. Viloyat, katta shahar hokimlari ana shu unvonga ega bo‘lishgan. Qoraqalpoq va boshqa ko‘chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy hamda harbiy unvondir. “...saraftozlig‘lar topib, tavoyifi mazkurag‘a **beklarbegilik** yarlig‘i humoyuni vusulidin farqi mubohoti farqadon avjiddin o‘tdi...”⁶. Beklarbegi lavozimiga, odatda, xonning qarindosh-urug‘lari tayinlanar edi. Beklarbegining asosiy vazifasi o‘z urug‘idan yig‘iladigan soliqlarning to‘g‘ri yig‘ilishini tekshirib turish va ularni to‘la ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdir. Xon farmonlarini amalga oshirish, tegishli masalalarni biy, otaliqlar, oqsoqollar kengashi bilan kelishib, hal qilishdan iborat bo‘lgan.

1873-yili qoraqalpoqlarni ikkita beklarbegi birlashtirib turardi, ulardan biri qo‘ng‘irot urug‘iga, ikkinchisi mang‘itlarga boshliq edi. Qoraqalpoqlarning barcha biy va otaliqlari shularga itoat qilgan. Beklarbegi jamshidiy urug‘larida,

Türkī with an Introduction and Notes by Khilola Nazirova. International Institute for Central Asian Studies (IICAS) by the UNESCO Silk Road Programme. – Tashkent – Samarkand, 2016. – P. 400^b.

¹ Баёний. Хоразм тарихи. – Б. 142.

² “Бешинчи жумод ус-соний (1281) кечаскими жума окшоми эрди хазрати зилли субҳоний (Мухаммадраҳим II – М.Э.) салтанат умури интизоми ва мамлакат масолиҳи истикмоли учун Худойназар девонбегини девонбегилик ва музаккийлик мансабидан маъзул этиб, анинг ўрнига Мухаммадмурод маҳрамни ... жамии атроф ва акнофдағи вилоятлардан келатурғон тужжор ва корвоннинг амвол ва амтаа ва акмишаси закотин олмоққа музаккий қилиб, иззат ва эътибори бошин сипехри даввор авжидин ошурди”. Огаҳий. Шоҳид ул-икбол. 15а вар.

³ Мухаммад Ризо Эрнийэзбек ўғли Огаҳий. Риёзу-д-давля. Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди. №5364 // II. 277^a -варак.

⁴ Йўлдошев М. Кўрсатилган асари. – Б. 246.

⁵ Иванов П.П. Кўрсатилган асари. – Б. 203, 204, 205, 206, 207.

⁶ Muhmmad Riza mirab Agahi. Zubdat al-tavarikh. International institute for Central Asian Studies, Al-Beruni Center for Oriental Manuscripts Tashkent State Institute of Oriental studies. Edited in the original Central Asian Türkī with an Introduction and Notes by Khilola Nazirova. International Institute for Central Asian Studies (IICAS) by the UNESCO Silk Road Programme. – Tashkent – Samarkand, 2016. – P. 398^b.

turkmanlar, qozoqlarda ham bo'lgan. Ular 20 tilladan 60 tillagacha maosh olganlar va ularga kunbay hisobida don ham berilgan¹.

Beklarbegi qo'shin sarkardasi bo'lib, uning yuzboshilari bo'lar edi².

Shig'ovul (turkcha-mo'g'ulcha) – mehtarining yordamchisi. Ma'lumki, mehtar moliya, soliq va hashar ishlariga mutasaddilik qilishdan tashqari, bosh vazir sifatida davlatning tashqi munosabatlariga ham rahbarlik qilgan. Bu sohada shig'ovul uning bevosita yordamchisi edi. *“Ibrohim shig'ovul va Do'sniyoz dorug'a va yuzboshilardan Bekpo'lod yuzboshi va Xolmurod yuzboshi va Muhammad yuzboshi va Yusuf otaliqni o'zlarig'a tobe' navkarlari bila...”*³. U ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularning ta'minoti bilan shug'ullangan. Odat bo'yicha elchilarni qabul qilish uchun xon xazinasidan ajratiladigan puldan 10 foizini shig'ovul o'z foydasiga olib qolardi. Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, elchilarning kelish-kelmasligidan qat'i nazar shig'ovul har yili 15 tilladan maosh olib turgan⁴.

Shig'ovullarning faoliyati **“buxrilar”**ning faoliyati bilan yaqindan bog'liq bo'lgan. Buxrilar ayg'oqchi, razvedkachilar edi. 60-daftardan ko'rinishicha, Buxriy Mahmudbek, Buxriy Bolaxon 20 tilladan olganlar⁵.

Elchilarni qabul qilish marosimida mehtar asosiy rol o'ynagan. Kapitan Nikiforovning ma'lumotlari buni tasdiqlaydi: “1841-yil 11-avgustda Ollohqulixon elchini salomxonada qabul qilgan. Bu marosimda mehtar, qo'shbegi, devonbegi, Xojash mahram va yana ikkita amaldor hozir bo'lganlar”⁶.

Abbotning ma'lumotiga ko'ra, mehtarining hatto mustaqil ravishda muzokara olib borish huquqi ham bo'lgan⁷.

Xiva xonligida maxsus diplomatiya kadrlari yo'q edi. Shu sababdan, boshqa mamlakatlarga elchi jo'natish zaruriyati tug'ilsa, odatda ko'zga ko'ringan amaldorlardan yoki bu ishga boproq bo'lganlardan, aksari mutavallilar yuborilar edi. Chunonchi, XIX asrda Rossiyaga Fozil Xo'ja shayx al-islom⁸, Muhammadamin yuzboshi, Shukrullo oqo yuborilgan. Buxoroga esa Shomurod inoq, Avazmurod mirob, Hakim Niyoz Otaliq va boshqalar jo'natilgan.

Viloyatdagi barcha ma'muriy va siyosiy ishlar **hokimlar** va **noiblar** qo'lida bo'lgan. Ular katta yer egalari, xonning qarindosh-urug'lari va mahramlaridan tayinlanardi.

Hokim (arabcha) – o'zbek xonliklarida viloyat boshlig'i. Hokim xonning viloyatdagi noibi hisoblangan. Shaharni xokimning noibi, yuzboshi va kadxudo idora qiladi. *“Marv viloyatining hokimu hukmroni sadoqatnamoy*

¹ Иванов П.П. Кўрсатилган асари. – Б. 112-114.

² Болтаев А. Хоразм тарихига оид хужжатлар, №9320, 90^a вар.

³ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Риёзу-д-давла. Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди. №5364 // II. 335^a -варак.

⁴ Иванов П.П. Кўрсатилган асари. – Б. 203-207.

⁵ Ўша жойда. – Б. 203, 204.

⁶ Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 г. – С. 11, 41, 92.

⁷ Йўлдошев М. Кўрсатилган асари. – Б. 263 б. Яна қар.: Аббат. Юқорида кўрсатилган асар, 1 жилд. . – Б. 81.

⁸ Баёний. Хоразм тарихи. 393^a вар.

*Niyozmuhammadboy soruq jamoasining akobir va a'oliysi bila kelib..."*¹. Qishloqlarda barcha ishlar merob va imomlar qo'lida edi. Viloyatlarning hokimlari to'la huquqli hukmdorlik huquqidan foydalanar edilar. Ammo jinoyatchilarning hayot-mamoti to'g'risida bir hukm chiqarishga haqlari yo'q, bu to'g'rida xonning hukmini so'raydilar².

Asfandiyorxon davrida xonlikda, yuqorida aytganimizdek, 26 hokimlik bo'lgan³.

Noib (arabcha) – hokimning o'rinbosari. Ular katta yer egalari, xonning qarindosh-urug'lari yoki mahramlaridan tayinlanardi. *"Abbos Mirzo otlig' o'g'lig'a Noib us-saltana laqab berib, ko'p cherik bila O'rus muqobalasig'a urush va muqotala uchun irsol qildi"*⁴ Noib 5 tilladan tortib, 14 tillagacha maosh olardi. Shaharlarda hokimlarning yordamchilari yuzboshilar edi. Ular 15 tilladan tortib, 25 tillagacha maosh olganlar.

Sardor (forscha) – O'rta Osiyo xonliklarida xon qo'shini qo'mondoni, xalq lashkarboshisi. Xiva xonlariga tobe bo'lgan ko'chmanchi turkman, qoraqalpoq, qozoq aholisi qabila va urug'lari tomonidan saylangan shaxs. Bu unvon ham harbiy-ma'muriy vazifalarga ega bo'lgan. *"Mirdod sardor samanduk toifasidin yuz uylukni ko'churub, Lolaxon boshlig' jame' kadxudolarin atabai a'lo xokbo'sliqi darajasig'a yetkurdi"*⁵.

Davlat hokimiyati sudlar, qamoqxonalar va boshqalar kabi faqat zo'rlash muassasalaridangina iborat emas edi, hokimiyat qurolli kishilardan, ya'ni mirshablik, armiyadan ham iborat edi.

Mirshab (arabcha, forscha) – 1. Tungi soqchi, tungi soqchilarning boshlig'i. 2. O'rta Osiyo xonliklari shaharlarida jamoat tartibini saqlovchi lavozim bo'lib, odatda, shaharning kechki xo'jayini (miri-shab) deb ham yuritilgan. Mirshab asosan o'z ishiga kechqurun soat 6 dan keyin kirishgan, chunki bu davrda barcha shahar bozorlari yopilib, bir soatdan so'ng shahar darvozalari berkitilib, shahar suv quyganday jim-jit bo'lgan. Mana shu vaqtdan boshlab, hech kim uyidan chiqmasligi va shahar ko'chalarida yurmasliklari kerak bo'lgan. Ushbu qoidani buzgan barcha shaxslar mirshablar tomonidan ushlanib, mirshabxonaga keltirilgan⁶.

Tadqiqotchi S.Saburova aniqlashicha, Xivada turli-tuman mirshablar bo'lgan⁷:

¹ Muhmmad Riza mirab Agahi. Zubdat al-tavarikh. International institute for Central Asian Studies, Al-Beruni Center for Oriental Manuscripts Tashkent State Institute of Oriental studies. Edited in the original Central Asian Türkî with an Introduction and Notes by Khilola Nazirova. International Institute for Central Asian Studies (IICAS) by the UNESCO Silk Road Programme. – Tashkent – Samarkand, 2016. – P. 396^a.

² Кун. Л.А. Культурный оазис Хивинского ханства //ТВ. 1874. – С. 2.

³ Хасан Мурод Мухаммад Амин ўғли. Хоразм тарихига доир материаллар. – Б. 173-175.

⁴ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Риёзу-д-давля. Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди. №5364 // II. 319^b -варак.

⁵ Muhmmad Riza mirab Agahi. Zubdat al-tavarikh. International institute for Central Asian Studies, Al-Beruni Center for Oriental Manuscripts Tashkent State Institute of Oriental studies. Edited in the original Central Asian Türkî with an Introduction and Notes by Khilola Nazirova. International Institute for Central Asian Studies (IICAS) by the UNESCO Silk Road Programme. – Tashkent – Samarkand, 2016. – P. 399^a.

⁶ Чориев З. Кўрсатилган асар. – Б. 77.

⁷ Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент., 2002. – Б. 120 ва кейингилари.

1. Xiva shahar bosh darvozalarida turuvchi mirshablar. Ular orasida quyidagi darvoza mirshablari bor: a) Pahlavon darvoza mirshablari; b) Shayx darvoza mirshablari; d) Mahmud ota darvoza mirshablari; e) Hizir Bobo darvoza mirshablari. Maosh to‘lash ro‘yxatida bu mirshablarning har qaysisi 4 tildan maosh olganligi ko‘rsatilgan. Umuman olganda, mirshablar 4 tildan 44 tillagacha maosh olganlar.

2. Safarga boradigan mirshablar. Mirshab askarboshigina emas, jallodboshi ham edi. Hazorasp shahriniki singari, shahar va daha mirshablari bo‘lgan¹.

XIX asrda Xivada agrar ishlab chiqarish munosabatlarining o‘zgarishi faqat moliya-soliq tizimini emas, balki moliya soliq idoralarining tuzilishini ham o‘zgartirib yubordi. Shu bilan birga, davlatning harbiy tuzilishida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Agar ilgari qo‘shin ayrim tobe urug‘larning lashkarlaridan iborat bo‘lsa, XIX asrga kelib, xonlikning qurolli kuchlari markazlashgan davlat apparatining tarkibiy bir qismiga aylandi. XIX asrda xonlikda jami 13 ming kishilik muntazam qo‘shin paydo bo‘ldi.

Tinchlik vaqtida xon qo‘shini shaharni muhofaza qilishdan tashqari, boshqa vazifalarni ham bajarardi.

Xiva xonlari arxivining 60-daftarida Xiva tumani va boshqa joylardagi yuzboshilarning nomlari yozilgan ro‘yxat bor. Bu daftarda qo‘shinning qo‘mondon tarkibi sifatida 186 ta mahramning nomi ham ko‘rsatilgan.

Xiva qo‘shini, asosan, navkarlardan tuzilardi. 1840-yillarda Xivaning asosiy tumanlarida 6445 navkar bo‘lgan. Bundan tashqari, Hazorasp, Beshariq va Pitnakda yana 2396 navkar bo‘lgan. XIX asrning o‘rtalarida navkar qo‘shinning umumiy soni taxminan 9-10 ming kishi bo‘lgan². Bu qo‘shinning tabaqaviy tarkibi qanday bo‘lganligini ham aniqlash mumkin. Masalan, navkarlar yerlari miqdori jihatidan 66 foizi **a‘lo**, 17 foizi **avsat** (o‘rta), 17 foizi **adno** (past) darajadagi tabaqaga tegishli edilar. Navkarlarning o‘rta hisobda 20 tanobdan yeri bo‘lgan va bu yerlar ijaraga berilgan.

Sarboz (forscha) – O‘rta Osiyo xonliklaridagi muntazam qo‘shin askari. *“Abbos mirzoning o‘n ikki ming sarboz va o‘ttuz aroba to‘p va otashxona va munga loyiq sipohi bekarona bila Mashhadga kelganidin yamrali Mulla Subhonnazar otlig‘ bir kishi bila darbori falakmiqdor navvobig‘a axbor qildi”*³. Xiva xonligida sarbozlar urush vaqtida to‘plangan va ularning soni 30-100 ming oralig‘ida bo‘lgan.

Xonlikda **oliy harbiy hokimiyat xon qo‘lida** edi. Xon qo‘shinga yo bevosita o‘zi yoki amiral-umaro orqali farmon berardi. Har bir mulkdor yoki amaldor, hatto harbiy lavozim egasi bo‘lmasa ham, sarkarda etib tayinlanishi mumkin edi. Buning sababi ravshan, chunki Xiva sharoitida, haqiqatda, har bir mulkdor “harbiy kishi” edi.

¹ Иванов П.П. Кўрсатилган асар. – Б. 205, 206.

² Ўша жойда.

³ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Риёзу-д-давля. Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди. №5364 // II. 320^b -варак.

Mazkur tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Xorazm tarixnavisligida mansab va unvonni anglatuvchi atamalar juda keng qamrovlidir. Ularni tizimlashtirish, semantik guruhlariga ajratish galdagi vazifalarimizdandir.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA DAVR ADABIY TILIDAGI O‘RNI



**Mansurbek
MASHARIPOV**

**Urganch
innovatsion
universiteti
prorektori**

UDK: 811.512.113.374 (09)

Annotatsiya. Maqolada XIX asrning oxiri XX asrning 20-30-yillarida yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni o‘rganilgan, bu borada turli mafkuraviy-lisoniy oqimlar tomonidan ilgari surilgan g‘oya va qarashlar tahlil qilingan. Davr adabiy tilining lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlariga munosabat bildirilgan. Shuningdek, ma‘rifatparvar jadid adibi Mahmudxo‘ja Behbudiyning davr adabiy tilini yaratish ishlaridagi lingvistik faoliyatiga ilmiy baho berilgan.

Kalit so‘zlar. umumturkiy til, panturkizm, purizm, publitsistik uslub, leksik-semantik me‘yor, lug‘aviy unsur, leksik fond, grammatik qurilish, tayanch dialekt, singarmonizm.

Аннотация. В статье изучен процесс формирования нового узбекского литературного языка в конце XIX и 20-30 годах XX века, также анализированы идеи и взгляды, выдвинутые различными идеологическими и языковыми течениями. Высказано отношение к научно-исследовательским работам, посвященным лингвистическому анализу литературного языка эпохи. Также даётся научная оценка лингвистической деятельности джадидского просветителя Махмудходжа Бехбуди в деле создания литературного языка эпохи.

Ключевые слова: Общeturкий язык, пантуркизм, пуризм, публицистический стиль, лексико-семантическая норма, лексикографический элемент, лексический фонд, грамматический строй, опорный диалект, сингармонизм

Abstract. The article studies the process of formation of a new Uzbek literary language in the late XIX and 20-30 years of the XX century, in this place, the ideas and views put forward by various ideological and linguistic currents are analyzed. The attitude to the scientific research works devoted to the linguistic study of the literary language of the period is expressed. Furthermore, there is also a scientific assessment of the linguistic activity of the enlightened jadid writer Makhmudkhoja Bekhbudi in the creation of the literary language of the period.



Key words. *Common Turkic language, pan Turkism, purism, journalistic style, lexical-semantic norm, lexical element, lexical fund, grammatical structure, basic dialect, singormanism.*

Ma'rifatparvar, pedagog, dramaturg, publitsist va noshir Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti, ta'limi va tilining rivojiga munosib hissa qo'shgan yorqin hamda betakror ijodkordir. Mahmudxo'ja Behbudiyning tilshunoslik faoliyati va u yaratgan badiiy, xususan, publitsistik asarlarning lingvistik xususiyatlari o'zbek tilshunosligidagi ba'zi ishlar istisno qilinsa, mukammal darajada tadqiq etilgani yo'q. Zamonasining ilg'or fikrli ziyolilari qatorida bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy – jamoat, madaniyat va maorif arbobi, birinchi o'zbek dramaturgi, milliy teatr tashkilotchisi, ulug' matbuotchi, publitsist sifatida o'zbek xalqining XX asrdagi buyuk mutaffakkir adibi hisoblanadi. Uning badiiy ijodi, ma'rifatparvarlik va jurnalistik faoliyati, ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlari yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy hodisa sifatida shakllangan jadidchilik harakati va uning negizida yuzaga kelgan jadid adabiyoti – “zamonaviy adabiyot” sifatida yangi adabiy tur va janrlarni o'zbek adabiyotiga olib kirishi, an'anaviy adabiy shakl hisoblangan aruz vazni bilan birga barmoq vaznining shakllanishini ta'minlagan bo'lsa, o'zbek milliy ongi, ijtimoiy-estetik tafakkuri, madaniyati, milliy adabiy tilining taraqqiyotida ham alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur davr adabiy tili yuzasidan birinchi bo'lib ilmiy kuzatishlar olib borgan olim professor A.K.Borovkovdir. Biz adibning publitsistik merosini lingvistik nuqtayi nazardan o'rganar ekanmiz, akademik V.V.Vinogradovning “Adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'sha xalqning konkret tarixiy hayotidan ajratgan holda o'rganish mumkin emas”, degan fikrlarini keltirishni lozim topdik. Mana shu ma'noda Mahmudxo'ja Behbudiyning tilshunoslikka oid qarashlarini ham, yaratgan publitsistik asarlarining lisoniy xususiyatlarini ham u yashagan, ijod qilgan davrning xususiyatlarini hisobga olmagan holda o'rganish o'rinli bo'lmaydi.

U 1905 – 1917-yillar oralig'idagi o'zbek adabiy tilining xususiyatlarini o'sha davrda o'zbek tilida nashr qilingan matbuot tili asosida tahlil qilar ekan, til sohasida hukmron bo'lgan turli qarashlarga ham izoh beradi. Tadqiqotchi o'z kuzatishlarida o'sha davrda turli siyosiy, lingvistik, milliy-ma'rifiy oqimlar tomonidan *yagona turkiy til* yaratishga oid qarashlar kuchli bo'lganligini, ularda: a) usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillaridan biri umumturkiy adabiy til bo'lishi kerak, degan fikrlar; b) usmonli turk tili turkiy xalqlar uchun umumadabiy til bo'la oladi, degan fikrlar; d) chig'atoy tili turkiy xalqlarning yagona adabiy tili bo'lsin, degan fikr; e) yangi tatar adabiy tili usmonli turk tili bilan boyitilsa, umumadabiy til bo'la oladi, degan g'oya; f) tatar va o'zbek tillarini birlashtirish lozim, degan qarashlar ilgari surilganligini ta'kidlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Elbek, Ashurali Zohiriy kabi adiblar ijod etgan davrdagi sotsiolingvistik sharoit ular yaratgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar tilidagi lisoniy xususiyatlarning sabab va ildizlarini topish va anglashga imkon beradi. Bu

jihtadan XX asrning 20-30-yillaridagi lisoniy jarayon haqida mustaqillik yillarida yaratilgan monografik tadqiqotlar ahamiyatlidir.

Davr adabiy tili holati publitsistik uslub shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazayotgan edi. Xususan, shakllanayotgan adabiy tilda puristik harakatlar ta'siri natijasida tilda sun'iylik vujudga kelayotgan edi. Bu davrda yuzaga kelgan "purizm hodisasi" haqida M.Qurbonova shunday fikrlarni bildiradi: "... Purizm muayyan tarixiy sharoitda har bir tilda vujudga kelishi mumkin. Aniqroq qilib aytsak, biror tilning tovushlar tizimida, leksik tarkibida, sintaktik qurilishida begona tillarning unsurlari ko'payib ketishi, ya'ni boshqa tillarning tazyiqi paydo bo'lishi mumkin. Ana shunday vaziyatda til tozaligi, milliyligini saqlash uchun harakat, ya'ni purizm vujudga keladi. XX asr boshlarida o'zbek tilida ana shunday hodisa – holat yuz berdi. Bu davrdagi o'zbek tilida arabcha, forsha so'zlar bilan birga, usmonli turk va tatar tillarining unsurlari katta foizni tashkil qilardi".

Tilshunos olim D.Ne'matova Cho'lpon publitsistik asarlari tili va uslubini o'rganar ekan, 20-yillarda o'zbek adabiy tilida yuz bergan o'zgarishlar dastlab vaqtli matbuot tilida o'z ifodasini topganini ta'kidlaydi. Cho'lpon publitsistik asarlari tilidagi me'yoriy murakkabliklarning sababini D.Ne'matova o'sha davr tili leksik-semantik xususiyatlarini belgilovchi bir qator omillar bilan bog'liq deb biladi va quyidagilarni yozadi:

- 1) "... adabiy tilimizda an'anaviy ravishda arab-fors tillari ta'siri kuchli bo'lganligi, aksariyat ziyolilarning "eskicha" tahsil ko'rganligi;
- 2) Turkiston hududida turk-tatar nashrlarining keng tarqalganligi;
- 3) mustamlaka Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida Chor Rossiyasi, keyinroq sho'ro ta'sirida yangi o'zgarishlar paydo bo'lganligi;
- 4) adabiy tilni hali chinakamiga me'yorlashtirib ulgurilmaganligi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining lingvistik tadqiqi bo'yicha izlanishlar olib borgan L.Jalolovning qayd etishicha, XX asrning 20 – 30-yillari o'zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va takomili uchun uchta manba mavjud edi: 1) arabiy va forsiy so'zlar, izofalar keng qo'llanilgan holda rivojlanib kelayotgan klassik o'zbek tili; 2) usmonli turk, tatar tillari ta'sirida shakllanayotgan o'sha zamonning rasmiy, badiiy-publitsistik tili; 3) asrlar davomida shakllanib, o'z takomilini topgan, sodda va tushunarli bo'lgan xalq jonli tili. Xalq bilan birga bo'lgan, uning dardini tushunib yetgan o'zbek ziyolilari uchinchi – eng to'g'ri yo'lni tanladilar. L.Jalolova 20 – 30-yillar o'zbek tilining xususiyatlari, lisoniy belgilarini o'tkinchi hollar deb baholaydi va quyidagi xulosaga keladi: "Har qanday statika dinamikaning uzviy bir halqasidir. Dinamika jarayonida bir holatdan ikkinchi holatga o'tishda oraliq holatlarga yo'l qo'yiladi. Ana shu oraliq holat ikki rivojlanish nuqtasini birlashtirish vazifasini bajaradi va har ikki nuqtaning belgilarini o'zida namoyon qiladi. Bunday holatlar sintetik hodisalarni o'z ichiga oladi va har qanday fanning rivojlanish nuqtasi sanaladi. O'zbek tili tarixiy taraqqiyotida ham 20 – 30-yillar holati eski o'zbek tilidan hozirgi o'zbek tiliga o'tish davridagi oraliq holatni ifodalaydi. Bu davr tilida eski o'zbek tiliga xos belgilarning saqlanishi bilan birga, hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlarining shakllanish jarayoni ham namoyon bo'lgan. Xuddi ana shu jarayon Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida o'z ifodasini topgan.

Bu davrda o'zbek adabiy tili va uning tayanch dialektini belgilash borasidagi qarashlar N.Yangiboyeva tadqiqotida keltirilgan. Muallif mazkur davrda adabiy tilning tayanch dialektini belgilashda ikki xil qarash mavjud bo'lganligini, adabiy tilni singarmonizmli shevalar yoki singarmonizmni yo'qotgan shevalar asosida yaratish taklifi matbuotda ilgari surilganligi, shu bilan birga, har ikki holatni ham hisobga olgan holda adabiy tilni yaratish g'oyasi ham taklif qilinganligini ta'kidlaydi. N.Yangiboyeva "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali nashrlaridagi maqolalar orqali davr tili va tilshunosligini o'rganar ekan, jadid adiblarining lotin alifbosiga o'tishning ilmiy va amaliy asoslarini hal etish, o'zbek tilining fonologik tizimini yaratish, o'zbek orfografiyasining tamoyillari va qoidalarini ishlab chiqishdagi faoliyati va tashabbuslarini yuksak baholaydi. Chunonchi, o'zbek dialektologiyasida o'zbek tilining uch lahja asosida tashkil topganligi g'oyasi rus turkolog olimi Y.D.Polivanov tomonidan emas, balki ma'rifatparvar jadid adibi G'ozzi Olimga tegishli ekanligini jurnal maqolalaridagi dalillar orqali aniq isbotlaydi.

Davr adabiy tili tavsifi masalasida Y.Sayidovning quyidagi fikrlari ham e'tiborga molik: "XIX asr oxiri XX asr boshlarida Chor Rossiyasi hukumatining umumruslashtirish madaniy tadbirlari Turkistondagi mavjud ijtimoiy-estetik va badiiy tafakkurni tubdan o'zgartirib yubordi... Nazarda tutilgan davrda o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi rus tili va u orqali yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga ancha boyidi. Ruscha-yevropacha o'zlashma so'zlar, asosan, barmoq vaznida yozilgan she'rlarda mavjud bo'lib, aruz vaznidagi ijod namunalarida bunday so'zlar deyarli uchramaydi".

Mazkur davr adabiy tiliga baho berar ekanmiz, kuzatishlar asosida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek milliy tilining quyidagi ijtimoiy tarmoq va ko'rinishlari mavjudligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi: 1) XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek badiiy adabiyoti tili; 2) XX asr boshlaridagi yangi shakllanib kelayotgan o'zbek matbuoti tili; 3) o'sha davr o'zbek ilmiy va ma'rifiy adabiyot tili; 4) o'zbek folklori asarlari tili; 5) o'zbek xalq lahja va shevalari tili. XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tiliga baho berganda o'zbek tilining keltirilgan til hodisalarining xususiyatlari va o'zaro munosabatini hisobga olgan holda ish tutish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek adabiy tilining mazkur davri, ya'ni jadid ma'rifatparvarlari ijod qilgan ilk davrlar ijtimoiy-siyosiy va lisoniy jihatdan juda murakkab edi. Ijtimoiy-siyosiy muammolar, ta'lim-tarbiya, maorif masalalari kun tartibida turgan ushbu davrda milliy til, adabiy tilga munosabat, tilni davr talablariga moslash, uning umummilliy adabiy til sifatidagi rivojlanish yo'llarini belgilash kabi murakkab nazariy va amaliy, milliy va ma'rifiy muammolar ham ustuvorlik kasb etardi.

O'tgan asrning 20 – 30-yillarida shakllanayotgan yangi o'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilash, uning ilmiy-nazariy qonun-qoidalarini ishlab chiqish ishlarida zamonasining ilg'or ziyolisi sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy ham faol ishtirok etadi. Fikr yuritilayotgan muammo yuzasidan matbuot nashrlaridagi maqolalarida tutgan nuqtayi nazarini quyidagicha tahlil qilish mumkin: 1) Mahmudxo'ja Behbudiy dastlab panturkizim ta'sirida bo'lgan bo'lsa-da, yangi o'zbek adabiy tilini mazkur davrda zamonaviy rivojlanish bosqichida

bo'lgan usmonli turk, tatar, ozarbayjon tillari asosida emas, balki asrlar davomida shakllanib, o'z takomilini topgan, sodda va tushunarli bo'lgan xalq jonli tili asosida yaratish tarafdori bo'ladi; 2) Biroq o'z fikrlarida jonli xalq tili adabiy tildan farqlanishi kerakligini, “fanniy, adab, ta’lim, tarbiya va diniy kitoblarni sof avom tilida yozmoq mumkin emasligini”, “mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq uchun avom tilidan farqli” adabiy tilni yaratish zarurligini ta’kidlaydi; 3) U adabiy tilning tamoyillarini belgilashga harakat qilib, birinchi galdagi vazifani adabiy tilning leksik fondini o'zlashmalardan “tozalash”da deb biladi. Uningcha, “muqobil va murodifi xalq tilidan va adabiyotidan yo‘qolgan” arabcha, forsha so‘zlarni saqlash kerak. Masalan, *dushanba, seshanba, maktab, madrasa, kitob, qasd, tark, insof* kabi so‘zlarni tildan chiqarib tashlashga hojat yo‘q; 4) Muqobillariga qaraganda arabcha, forsha so‘zlar qulay bo‘lsa, ularni saqlab qolish kerak, ya’ni arabcha, forsha so‘zlarning o‘zbekchadagi muqobillari o‘zlari qadar ma’lum bo‘lmasa. Chunonchi, “*vohidi qiyosiy* ma’nosini *solishtirish o‘lchovi* ado etmaydur. Bo‘lsa-bo‘lmasa, bu bir istiloh bo‘lib, “*solishtirish o‘lchovi*, ya’ni *vohidi qiyosiy*” deyilmaguncha fahmlanmas”. 5) O‘zbek tiliga “muqim o‘rnashgon” arabcha, forsha o‘zlashmalarni o‘zbek tilining leksik, grammatik qoidalariga moslashtirish lozim. Masalan, “*ulum, funun, ulamo, quzzot* demoq yerinda *fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar* deb yozingiz”; 6) Ta’limiy adabiyotlarni sheva va lahjalar tilida emas, garchi, arabcha, forsha o‘zlashmalar ta’sirida bo‘lsa-da, adabiy tilda yaratish kerakligiga urg‘u beradi; 7) Behbudiy o‘z kuzatishlari asosida o‘zbek tili arabcha va forsha so‘zlardan butunlay qutula olmasligini tushunadi va “yolg‘uz turkcha so‘ylashmak va yozmoq abadan mumkin emas, baqadri imkon arabiy, forsiyni oz yozayluk” degan xulosaga keladi.

Olib borilgan kuzatishlar asosida aytish mumkinki, jadid adiblarining barchasi ham XX asr 20 – 30-yillarida yangi o‘zbek adabiy tilini eski o‘zbek tili asosida shakllantirish, eski o‘zbek tilini soddalashtirish va soflashtirish, mumtoz adabiy tilni jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirish harakatida faol bo‘lganliklarini tasdiqlaydi. Shular qatorida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham XX asr boshlarida o‘zbek milliy tilining shakllanishi va ravnaq topishidagi xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1995. – 160 b.; Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Xazina, 1994. 32b.; Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997 – 315-b.; Avazov N. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodiy merosi (manbalar): Filologiya fanlari nomzodi diss. – Toshkent: 1995. – 217-bet; Saidov H. Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik va muharrirlik faoliyati: Filologiya fanlari nomzodi diss. – Toshkent: 1998. – 138 bet
2. Babajanov F. O‘zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari (Behbudiy va Avloniy dramalari misolida): Filologiya fanlari nomzodi diss. – Toshkent: 2002. – 118 b.; Sayidov Y. Jadid badiiy asarlari leksikasi: Filologiya fan. doktori (DSc). diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 68-b.; Normamatov S. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni: Filologiya fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 68.
3. Ne’matova D. Cho‘lpon publitsistik asarlarining lingvistik tahlili: Filologiya fanlari nomzodi diss. avtoref. – T., 2004. – B. 8.
4. Jalolova L. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining lingvistik tadqiqi: Filologiya fanlari nomzodi diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – B. 3.

5. Jalolova L. Shu avtoreferat. – B. 17.
6. Sayidov Y. Jadid badiiy asarlari leksikasi: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. – B. 274.
7. Yangiboyeva N. XX asrning 20-yillarida o‘zbek tilshunosligi jarayoni (“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali materiallari asosida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2019.
8. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 2 jildlik. 1-jild. (nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.88.
9. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 2 jildlik. 2-jild. (nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.32.
10. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 2 jildlik. 2-jild. (nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.34.

“GO‘RO‘G‘LI” DOSTONLARI QO‘LYOZMA NUSXALARINING BADIY XUSUSIYATLARI



**SAN'AT
SARIYEV**

**UrDU,
o‘zbek tili va
adabiyoti
kafedrasi
dotsenti**



UO‘K 808.5

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy xalqlarning qadimiy va mushtarak eposlaridan bo‘lgan “Go‘ro‘g‘li” eposi tahlilga tortiladi. Eposning badiiy xususiyatlarining o‘ziga xosligi haqida so‘z boradi. Eposning badiiyati uning og‘zaki va qo‘lyozma nusxalari tahlili misolida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar. Xalq dostonlari, “Go‘ro‘g‘li”, badiiy xususiyatlar, o‘ziga xoslik, sujet, obrazlar.

Аннотация. В статье анализируется эпос “Гёроглы”, являющийся одним из древних и распространенных эпосов тюркского народа. Обсуждается своеобразие художественных особенностей эпоса. Художественность е освещается на примере анализа его устных и рукописных копий.

Ключевые слова. Народные дастаны, “Горогли”, художественные особенности, своеобразие, сюжет, образы.

Annotatsions. This article analyzes the epic “Gorogli”, which is one of the ancient and common epics of the Turkish people. The uniqueness of the artistic features of the epic is discussed. The artistry of #pos is illuminated by the example of the analysis of its oral and manuscript copies.

Keywords. Folk dastans, “Go‘rogli”, artistic features, originality, subject, images.

“Go‘ro‘g‘li” eposining og‘zaki varianti va versiyalari poetikasi haqida maxsus tadqiqotlar ancha kam bo‘lsa-da, o‘zbek va qardosh xalqlar olimlari tomonidan eposning badiiyati haqida bir qancha fikrlar bildirilgan. Eposning turkman versiyasi haqida maxsus tadqiqot ham olib borilgan.

B.Mammatyozovning monografiyasi o‘z mavzusiga ko‘ra eposning poetik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, unda epos mazmunini qayta hikoya qilish tamoyili ustunlik qiladi. Muallif kompozitsiya va sujet, nazm va nasr munosabatiga asosiy e‘tiborni qaratib, turkman “Gorogly”si misolida o‘sha masalalarni yechib berishga harakat qiladi.

O‘zbek folklorshunosligida biz yuqorida qayd qilgan asarlardan tashqari “Go‘ro‘g‘li” eposidan boshqa dostonlarning badiiyati haqida ayrim tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu jihatdan olganda o‘zbek dostonlarining badiiyati masalasini ishlashga qiziqish ancha faollashganini kuzatish mumkin. Biroq Xorazm “Go‘ro‘g‘li” eposi, xususan uning qo‘lyozma variantlarining o‘ziga xos til xususiyatlari, ifoda vositalari haqida folklorshunos X.Ro‘zimboyevning tadqiqotlarida va bizning nomzodlik ishimizda guvoh bo‘lishingiz mumkin.

“Go‘ro‘g‘li” eposi qo‘lyozma variantlarining tili og‘zaki variantlar tilidan ko‘pgina jihatlar bilan farq qilib turadi. Chunki bu variantlar yozuvga ko‘chirilganda ularni ko‘chirgan kotiblar dostonlarni o‘sha davr adabiy tiliga birmuncha moslab tahrir qilganlar.

Qolaversa, ushbu dostonlarni ijro etgan baxshilar ham o‘sha davrdagi og‘zaki nutq normalariga rioya qilganlar. Albatta, bundan 150 yil ilgarigi og‘zaki nutq ham hozirgi so‘zlashuv nutqidan muayyan farqlarga ega bo‘lganligi o‘z-o‘zidan ma’lum. Demak, ushbu dostonlar qachon yozuvga ko‘chirilganidan qat’i nazar o‘sha davr xalq tili boyliklarini, sheva xususiyatlarini o‘zida muayyan darajada aks ettiradi.

Yozma adabiyotdagi kabi og‘zaki adabiyotda ham asarning ifodaviyligi uning badiiy til xususiyatlari bilan bog‘liq. Xalq dostonlarining badiiy tili ularning “badiiy mahorat darajasini belgilashda mezon bo‘la oladi [1.232]. Har bir asarning sujet va kompozitsiyasi, umuman shakli til orqali tasvir etiladi. Asar qimmatini til bilan belgilanadi. Akademik V.V.Vinogradov aytganidek, “Badiiy asarlar (jumladan, dostonlar) tilini o‘rganish adabiy til tarixidan va umumxalq so‘zlashuv tilidan farq qiladigan maxsus filologik fan bo‘lmog‘i kerak. Bu fanning o‘z obyekti, vazifasi, o‘ziga xos tushuncha va darajalari mavjud” [2.11].

“Go‘ro‘g‘li” dostonlari ham o‘ziga xos til xususiyatlariga ega bo‘lib, bu xususiyatlar orqali originallik kasb etgan. Doston sujeti va kompozitsion qurilishi Go‘ro‘g‘libekning farzandsizligi va farzand izlab borib, uni olib kelishi bilan bog‘liq ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, va yechimdan iborat.

Xullas, dostonda uning badiiy qimmatini belgilovchi bir qancha elementlar qo‘llanilgan. Dostonda an’anaviy zachin boshlanma va tugallanma, shuningdek, qahramonlarni ideallashtiruvchi poetik obrazlarni, qahramonning otda yo‘lga chiqishi, qahramonona jang epizodlari epik ot ta’rifi, qurol yarog‘ va ot anjomlari tasvirini ko‘ramiz.

Avvalo shuni aytib o‘tish joizki, dostonlar uchun an’anaviy andoza hisoblangan nazm va nasr bayoni dostonning ifodalanishi shaklidir. Bu bayon shakli sujet tasvirining xarakteriga ko‘ra almashinib kelib, tinglovchida

emotsional ta'sir darajasini oshiradi. Deyarli barcha dostonlar uchun tipik xususiyat – she'riy qismning prozaga nisbatan ustun turishi “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida o‘z aksini topgan. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida nasriy qism she'riy qismdan hajm jihatidan kam bo‘lsa ham voqealar bayonida, uning rivoji tasvirida, qahramonlar portretini chizishda, xarakterlar yaratishda badiiylikni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi va doston tasviriyligi, ta'sirdorligi (emotsionalligi), obrazliligi va ifodaliligini yaratishda she'riy qismlar bilan teng ahamiyat kasb etgan.

Ta'sirdorlik voqealar tasvirida tasvir vositalaridan unumli foydalanish natijasida yuzaga keladi. Asar tilida bosh mezon hisoblanadi va tinglovchida voqealar jarayonida har xil emotsiyalarni uyg‘otadi.

Obrazlilik – asar tilining ta'sirdorligini ta'minlovchi asosiy sababdir. Bu xususiyat ham ta'sirdorlik bilan bir qatorda asarning ta'sir kuchini oshiradi.

Ushbu dostonda bir qancha ifoda vositalari barcha dostonlar uchun xos xususiyatlardan biri bo‘lib, ular uzoq tarixiy jarayonda yaratilib, sayqallanib, og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan elementlardir. Shuning uchun ham ular dostonlarning turg‘un bo‘laklari hisoblanadi. Shunday ifoda vositalaridan omonim va sinonimlarni keltirish mumkin:

<i>Chin oshiqman <u>Xo‘bnishona</u>, Hammanga olloyor emdi. Biza berding <u>xo‘b nishona</u>, Har na tilasang tayyor emdi [3.48].</i>	}	omonim
--	---	--------

Bu she'r Xorazm versiyasi og‘zaki variantlarining 2004-yilgi nashrida quyidagicha berilgan:

*Ko‘p sevarman, Xo‘pnishon, seni,
Hammaga aliyor endi.
Mango berding Gulruxsorni,
Ne tilasang tayyor endi [4.115].*

Sinonimlarga misol:

*Xazon o‘ldi yuzin guldek so‘ldurdim,
Do‘st yig‘latib, dushmanlarni kuldurdum [5.166].*

Shuningdek leksik vositalardan: *Bugungi ishni ertaga qo‘yma; Aqli sargashtaning so‘ziga kirma, xotunnikiga ham kirma; Otingni uyurga berma [5.83]; Kisige sanisan ozige, kaska sanisan kozge [6.57]* kabilar qo‘llanilgan. “*Momoni ko‘rib o‘zi hayvonzot, aqli odamdan ziyod G‘irot hurkib ketadi*” “*Go‘ro‘g‘lining otin hurkizgan momo*” iborasi shundan qolgan ekan.

Shevaga xos so‘zlardan “*Emdi to‘qqiz yoshg‘a bo‘lsa*” kabi Toshkent-Samarqand shevasidagi so‘zlar, “*Chig‘otig‘oni*” kabi qipchoq so‘zlari berilgan, Suyunchi so‘zi esa suyushi deb berilgan [7.1].

Qo‘lyozmalarning arabizm yoki arabiy iboralar bilan yakunlangani ulardan qissaxonlar, xalfalar ham keng foydalanganini ko‘rsatadi. O‘qish jarayonida har bir doston “*Bismillohir rahmonir rahiym*” bilan boshlanib, “*Vallohu alam bissavob*” bilan yakunlangan.

Professor S.Ro‘zimboyev shaxsiy arxividagi Niyozxon xalfa (qissaxon xalfa) varianti esa quyidagicha tugallangan: “*Iloho jumla ummati Muhammad*

alayhissalot vassalamni o'zing murodig'a yetkurgaysan, omin va rabbil olamin. Tammam-ul-kitob. 1340-hijriy. 1920-milodiy" [8.64].

*G'ofil bo'lma g'anim kelur yoninga,
Arab otlim she'r andomlim, Go'ro'g'li.*

Forsiy leksik elementlarini ham uchratish mumkin:

*Otang bir obiydur, ^{suv zoti} onang oqqushdin,
Chambilbelda bajardigum, Qiyrot, kel.*

Xalq dostonlari tarkibida asrlar davomida shakllanib, takomillashib o'ziga xos bir badiiy tizimni tashkil etgan va eposning bayon uslubini belgilab beruvchi badiiy ifoda vositalaridan biri bu epik qoliplar va an'anaviy formulalardir. "Bu elementlar badihago'y-baxshilar uchun asarni ijodiy ijro etish jarayonida tayanch rolini o'taydi [9.17].

Dostonlarda bosh qahramonni safarga chiqishi va safarga kuzatish oldidan savol-javob qilishi, unga oq yo'l tilash, asar qahramonining ot-yarog' so'rashi, uning jang oldidan yoki safarga chiqayotib aytadigan faxriyalari, "epik" homiylar bilan duch kelishi, jang tasviri, sho' otiga murojaati, sevgilisini ta'riflab so'z aytishi, qio' olib kelishi va asar finalida to'y tantanasining boshlanishi va murod-u maqsadiga yetishi kabi an'anaviy (qolip) epizodlar ko'zga tashlanib turadi. Prof. M.Saidovning ta'kidlashicha, epik qolip va an'anaviy formulalar – ot ta'rifi, poyga tavsifi, safarga otlangan qahramonga ota yoki onaning nasihati, yo'l bo'lsin va unga javob, jang oldidagi faxriya va maqtanish kabi epizodlar doimiy o'rinlarda ishlatilib, dostonchilikda muhim o'rin tutadi.

"Go'ro'g'li" dostonlarida Hasanxon Avazxonni olib kelishi uchun talabgor sifatida chiqib Go'ro'g'lining qo'lidagi sharob kosasini ichishi bilan bog'liq an'anaviy epizod, sayyor sujet mavjud. Unda Hasanxon Go'ro'g'lidan fотиha tilab faxriya aytadi. Go'ro'g'li sulton ham unga fотиha berib yo'lga kuzatar ekan, unga bir qancha nasihatlar berib oq yo'q tilab, bir so'z aytadi:

*Talab qilib Avazxonning yo'lig'a
Kirarsiz Badbaxt tog'ni cho'liga.
O'z boshinga beklik qilma yigitlar.
Xasanxon ne desa boqing tiliga [10.4].*

Shuningdek, 40 yigitning safardagi nizolari, Hasanxonning ularni qaytarish uchun aytgan so'zlari, Hasanxon va qirq yigit qaytib kelgach, Go'ro'g'li o'zi yo'lga o'tlanishi, qadamjolarni ziyorat qilishi, Xizrdan maslahat olishi va u ko'rsatgan yo'l bilan, hiyla yo'li bilan maqsadiga erishishi, Xunxorshoh lashkarlari bilan qilgan jang epizodlari, jangda g'alaba qozonib Avazxonni olib kelib, to'y-tomosha bilan murod-maqsadiga yetishi bilan bog'liq aytilgan nolishlar, murojaatlar va faxriyalar mavjud bo'lib, ularning deyarli barchasi sayyor sujetlar asosiga qurilgan. Masalan: Go'ro'g'lining Xunxorshoh lashkarlari bilan qilgan jang tasvirini olaylik. Unda qahramonning jang qilish tasviri, qiyofasi "Go'ro'g'li" turkumining barcha dostonlaridagi jang epizodlari uchun mushtarak tasvir bo'lib, ular bir-biridan ozgina o'zgartirilgan holda qo'llanilishi bilan farq qiladi: Masalan:

*Barcha dushman birday bo'lib,
Qaro yerda sherday bo'lib,
Go'ro'g'lixon sherday bo'lib,*

Boqirar maydon ichinda [10.34].

Shuningdek, Go‘ro‘g‘li “epik homiy”lar yordami bilan Xunxorshoh qo‘shinini engadi. Bu epik homiylar quyidagicha tasvirlanadi. Garchi nasriy tekstda bo‘lsa ham bu homiylarning kelishi va Go‘ro‘g‘liga yordam qilishi ta’siri ifodalangan.

Avazxonni omon-eson olib kelib to‘y-tomosha bilan murod-maqsadiga yetishi ham epik qolip va an’anaviy formulalar samarasidir.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarida qo‘llanilgan ifoda vositalaridan biri parallelizmlardir. Parallelizmlar ko‘proq asar qahramonining kayfiyati yoki tasvirlanayotgan vaziyatning mohiyati bilan bog‘liq holda yuzaga keladi:

Surush bo‘lsa shirin jondan kechdingiz,

Dushmanlarni nayza bilan sanchdingiz,

Silab-silab qizlarini quchdingiz,

Hali ham armoning bormu qirq yigit [11.42].

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarida tasvir bayonida stilistik vositalardan ham o‘rinli foydalanilgan. Ular tayyor holdagi misralardir. Ular asarning badiiy qimmatini belgilash bilan birga, uning emotsionalligini oshiradi. Bunday ifoda vositalariga:

“Ingranur maydonda she‘rlar”, “Ostimda g‘ayratli o‘ynar yuz alvon”, “Oqqush uchar oydin cholqor ko‘llarda”, “Ingranur maydonda sherlar”, “Qonni qilib misli suvlar”, “Qaro yerda sherday bo‘lib”, “Olmos qilich bog‘ladingiz belinga”, “So‘z ayturman endi bu odam yuz alvon” kabi tayyor misralar kiradi. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari matnida *“Nolishim yetsin falakka”, “Dushmang‘a qayg‘u mehnat”, “Gul yuzingdin, dol bo‘yningdin Avazxon”* kabi stereotiplar va stereotip epitetlar ham alohida ahamiyat kasb etgan va o‘rinli qo‘llanilgan.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarida qo‘llanilgan poetik vositalardan biri ramzlardir. Dostonchilikdagi ramzlar bilan aloqador xususiyatlar “Go‘ro‘g‘li” dostonlarini ham chetlab o‘tmagan. Masalan: Badbaxt tog‘iga tuman tushishi epizodida tuman ham ramziy xususiyat bo‘lib, baxtsizlikni oldindan bildiruvchi ramzdir. Shuningdek, Go‘ro‘g‘liga nisbatan ishlatilgan uning kuchini bo‘rttirib ko‘rsatishda sherday kuchli, yo‘lbarsday shijoatli deb ta’riflangan va bu hayvonlar ramziy ma’no kasb etgan. Shuningdek, jang maydonida to‘plarning ajdahoday o‘t sochishi tasviridagi ajdaho ham bevosita ramz desak bo‘ladi.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarida yozma adabiyotga xos yana qator uslubiy tasvir vositalari qo‘llanilgan bo‘lib, ular dostonida ilgari surilgan fikrlarni obrazli ifodalashga, xarakter va manzaralar yaratishga, qahramonlarning muayyan vaziyatdagi holati va o‘ziga xos xususiyatlarini yaqqol tasavvur etishga imkon bergan.

Ko‘pchilik o‘rinlarda fikr, tuyg‘u-kechinmalar to‘rtlik shaklidagi she‘riy bandlardan foydalanilgan. Shuningdek xalq dostonlarining ayrim she‘riy misralarini tahlil qilar ekanmiz, ularning mumtoz adabiyotdagi mashhur she‘riy tizimlardan biri bo‘lmish aruziy vaznda ekanligini aniqladik. Bu she‘rlar aruzning ramal va hazaj bahrlarida bitilgan bo‘lib, musiqiylik bilan uzviy bog‘liqdir. O‘z navbatida yozma adabiyotda ham “Go‘ro‘g‘li” dostoni sujet va motivlaridan andoza olgani holda, yaratilgan o‘xshash sujetli asarlarni uchratamiz. Bu esa

adabiyotning ikki turi: yozma va og‘zaki adabiyot hamisha bir-birini taqozo etishi, bir-birini to‘ldirishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov M. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat. – Toshkent: Fan, 1969. – 232-bet.
2. Vinogradov V. Наука о языке художественной литературе и ее задачи. – М., 1958. – С.11.
3. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. Inv. №9590. 48-bet.
4. Go‘ro‘g‘li. Xorazm dostonlari. – Urganch, 2004. – 115-bet.
5. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. Inv. №3150. 166-bet.
6. Maralveshlik mulla Salay kotibda saqlangan Uyg‘ur “Go‘ro‘g‘li” dostonlari qo‘lyozmasi, 57-b.
7. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti folklor arxivi. Inv. №1751. “Nurali” dostoni. 1-bet.
8. “Boziron” dostoni. Professor S.Ro‘zimboyev shaxsiy arxividagi Niyozjon xalfa Musayeva varianti, 64-bet.
9. Jirmunskiy V.M. Тюркский героический эпос.
10. “Go‘ro‘g‘li sulton”. 1911-yilgi Qozon toshbosmasi. 4-bet.
11. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. 953-inv.

QADIMGI TURKIY SAG‘IN- SO‘ZI ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA



**Dilafro‘z
OTABOYEVA**

**Urganch
davlat
universiteti
magistranti**



UO‘K 808.5

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiy tarixiy asarlarida qo‘llanilgan qadimgi turkiy leksemalar hamda ularning ma‘naviy taraqqiyoti, shakliy hamda mazmuni o‘zgarishlari sag‘in so‘zi misolida tahlil qilingan. Ishda sag‘in so‘zining etimologiyasi, ma‘no taraqqiyotlari Ogahiy tarixiy asarlaridan olingan misollar orqali asoslangan.

Abstract: In this article, the ancient Turkish lexemes used in Ogahi’s historical works and their spiritual development, form and content changes are analyzed on the example of the word sag‘in.

Аннотация: В статье на примере слова сагын анализируются древнетюркские лексемы, употреблявшиеся в исторических трудах Огахи, их духовное развитие, изменение формы и содержания.

Kalit so‘zlar: leksema, etimologiya, qadimgi turkiy til, turkologiya, sheva, tag‘ayī so‘zi, sag‘in so‘zi.

Key words: lexeme, etymology, ancient Turkic language, Turkology, dialect, tagayī word, sagin word.

Ключевые слова: лексема, этимология, древнетюркский язык, тюркология, диалект, тагайское слово, сагынское слово.

Eski o‘zbek tilida hozirda “ko‘rishni istab g‘amgin bo‘lmoq”, “sog‘inch his etmoq” mazmunidagi *sog‘in-* (*sag‘i n-*) fe‘li ushbu mazmundan tashqari “hisoblamoq”, “tushunmoq”, “gumon qilmoq”, “o‘ylamoq” ma’nolarini beradi. Shuningdek, *sag‘i ndurmoq* fe‘li “eslatmoq”, “esga solmoq”; “esga olmoq” mazmunlariga ega¹. Alisher Navoiy asarlarida, jumladan, *sag‘i n-* fe‘lining quyidagi ma’no qirralari ko‘zga tashlanadi: 1. O‘ylamoq: “Sahar namozin ayturda ul xuftan *sog‘indi*”; 2. Hisoblamoq, “...deb bilmoq: bozurgon meni yaxshi amin kishi *sog‘inib*”,.. 3. Faraz qilmoq; tasavvur qilmoq: “Abu Solih o‘lsa, kim bila suhbat tutqungdur? Dedim: bilmon. Dedi: holo hamul *sog‘inki*, ul o‘lubdur”. 4. Umid qilmoq, umid bog‘lamoq: “*Sog‘indimki*, oxir bo‘lg‘usidur”. 5. Gumon qilmoq: “Masjid xodimi ul suvni ko‘rub *sog‘inibdurki*, darvesh bavl qilibdur”. 6. Sog‘inmoq, istamoq: majolisu mahofilda ani *sog‘inib*, istihson qilur ermish”.



Ayrim mulohazalar har ikkala ma’no o‘rtasida bog‘liqlik borligini ko‘rsatib, har ikkala mazmun biror nuqtada tutashishini ochib beradi. Bu fe‘lning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lgan “biror kishi haqida qayg‘urmoq” ma’nosini beruchi *saqi*² asosida shakllanganini e’tiborga olsak, *saqi*// *sag‘i*³ ning o‘zi qachonlardir mustaqil bo‘lgan “istamoq” yoki “yaxshi ko‘rmoq” ma’nosidagi *sa-*ga borib taqalishi yanada oydinlashadi. G.Ramsted bu ma’nolarni tungus tilida mustaqil holda “gapirmoq”; “o‘ylamoq”; “qilmoq” ma’nolarini beruvchi *sa-* fe‘liga qiyosan belgilaydi⁴. Bizningcha, bu fe‘lning tungus tilidagi dastlabki ikki ma’nosi turkiy tillarda ham bo‘lgan. Deylik, *sav*//*sag‘* – “xabar” hamda hozirgi vaqtda “kuyov tomondan qiz tomonning roziligini olish uchun vakil qilingan shaxs”; qadimgi turkiy va XI-XIV asr yodgorliklarida “elchi”; “payg‘ambar” ma’nolaridagi *savchi* so‘zlari shu mazmun asosida shakllangan. *Sa-*ning “istamoq” ma’nosi va fe‘l maylini ifodalash

¹Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 571.

²Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати.–Тошкент: Университет, 2000. – Б. 118.

³Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. II жилд. – Тошкент, – Б. 178.

⁴Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. - М.: Наука, 1962. - С. 296.

vazifasiga o'tishi xususida turkologiyada e'tiborli ishlar qilingan¹. E'tibor qaratsak, *sa*-ning ma'nolaridan biri "o'ylamoq". Analogiya asosida fikr yuritsak, *saq* // *sag* shaklida "o'y", "fikr" ma'nolaridagi ot shakllangan. Undan *-n* qo'shimchasi vositasida *saqi*// *sag* ishaklli *o'ylamoq* < *istamoq* < *qayg'urmoq* < *fikr qilmoq* < ... *deb o'ylamoq* < *gumon qilmoq* kabi ma'noli fe'l yuzaga kelgan. Yuqorida nazarda tutilgan har ikkala ma'noning tutash nuqtasi, bizningcha, mana shudir. *Saqi n*- fe'lining qadimgi turkiy obidalarda ham "andisha qilmoq"; "mulohaza qilmoq" mazmunini kasb etishi uning semantik taraqqiyoti ildizlari chuqurligini ko'rsatadi: "buncha isig kuchug börtukgörü *saqi nmatî*" – "Shuncha mehnatini, kuchini sarf qilganini *andisha qilmay...*"².

Eski o'zbek tili leksikasi tizimidagi ayrim so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ma'nosi mavjud bo'lsa ham, shaklan farqlanadi. Jumladan, *tag'ayî* so'ziga uning etimologik talqinida ayrim mulohazatalab o'rinlar mavjudligi bois e'tibor qaratamiz. Eski o'zbek tilida ham bu so'z hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kabi "onaning aka yoki ukasi" ma'nosida ishlatilgan: "(Abubakr Tirmiziy)... Abu Iso Tirmiziy *tag'oyisidur*". Ba'zi adabiyotlarda bu so'z etimologiyasi "ona" ma'nosini anglatgan *tay* so'zi bilan asli "aka" ma'nosini bergan *ag'a* otining birlashuvi natijasida yuzaga kelgani³ izohlanadi. Avvalo, boshqird, qozoq, tatar va chuvash tillaridan tashqari deyarli barcha turkiy tillarda mavjud ushbu so'zning shakl va ma'nolariga e'tibor qarataylik: oltoycha *taay*, qirg'izcha *tay*, tuvacha *daay*, xakascha *tay*, sho'r tilida *tai*, yoqutcha *taay*, ozarboyjoncha *dayi*, turkcha *dayi*, turkmancha *dayi*, qoraqalpoqcha *dayi*, gaguzcha *dayi ka* yoki *dayi n* kabi⁴. Shunisi qiziqarliki, uyg'ur tilini hisobga olmaganda bu so'zning boshqa turkiy tillardagi shakli tarkibida *ag'a* so'zi mavjud, deb fikr bildirish uchun asos yo'q. Ularning qiyosidan mazkur so'z tarkibidagi unlining cho'ziqligi, to'g'rirog'i qavatlanishi natijasida *daay*, *taay*, *ta:y* shakllarining yuzaga kelishi keyinchalik ular orasida "g'" undoshining paydo bo'lishiga olib kelgani ko'zga tashlanadi. Bu holat o'zbek tilida keyinchalik ham yuzaga kelganiga ko'plab misollar bor. Masalan, *sahl* (arabcha "oson") o'zlashmasi o'zlashish jarayonidagi ma'no o'zgarishi natijasida "biroz" mazmunini kasb etgan va bo'g'iz "h" undoshining tushishi undagi unlining qavatlanishini ta'minlaydi (*nihol* shevalarda *nəəl* // *nə:l* deyilgani kabi): *səəl*. Bu kabi so'zlar ayrim shevalarda *səg'əl*, *nəg'əl* kabi shakllarda ishlatilishi *taay* shakli *tag'ay* ko'rinishi olganligini asoslaydi. Aslida *tay* bo'lgan bu so'zda unlining qavatlanishining sababi bor. (Bu haqda keyinroq so'z yuritamiz). Mazkur so'z "Devon"da *tag'ay*⁵, Ibn Muhannaning lug'atida

¹Бу ҳақдаги ишлар таҳлили Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. - М.: Наука, 1962. - С. 295-316; Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл майлларининг тараққиёти. – Тошкент: Фан, 1980 каби ишларда берилган.

²Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 104.

³ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. –М.: Наука, III. – С. 128; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати.–Тошкент: Университет, 2000. – Б. 352.

⁴Покровская А.А.Термины родства в тюркских языках // История развитие лексики тюркских языков. – М.,– С. 48.

⁵Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. II жилд. – Тошкент: Ўз ФАН, 1961. – Б. 256.

tagʻay (ona tomondan bobo)¹ shakllarida berilishi bu jarayon ancha ilgari yuz berganidan darak beradi.

Soʻzning birinchi tarkibiy qismi boʻlgan “ona” maʼnosini anglatishi talqin qilingani xususida quyidagi mulohazalarni bayon qilish mumkin. Agar “tay” “ona” maʼnosida boʻlsa, nega “onaning aka-ukasi” maʼnosidagi soʻz unga “tegishli” (bu haqda *qoy* soʻzining tavsifida aytib oʻtgan edik) maʼnosidagi *i* qoʻshilgan deb hisoblagan taqdirda ham barcha, hech boʻlmasa aksar turkiy tillarda *tay* yoki *day* shaklida emas. Agar *-y//ay* qoʻshimchasining maʼnolariga eʼtibor bersak, ulardan biri kichraytirish-erkalashdir. Masalan, Xorazm shevalarida “Apa!” “Ona!”, “Apay” esa “Onajon!” mazmunini anglatadi. Soʻzning tarkibidagi *tay* “ona” mazmunini anglatgan holda ham, *taay//daay* soʻzlari erkalash formasi boʻlib qoladi va uning oltoy, tuva, qirgʻiz, xakas, yoqut kabi xalqlar tillaridagi maʼnosi mantiqsiz boʻlib chiqadi. Bunday boʻlmasligi tabiiy holat. Shuning uchun ham bu soʻz tarixini yana ham chuqurroq bir nuqtadan – qadimiy *ta-* oʻzagidan izlash maʼqul. Agar hozirgi oʻzbek tilidagi *tashla-*, *taq-*, *tort-*, *top-* feʼllarini jamlab ham mulohaza qilsak, *ta-* oʻzagida makon, makon boʻlganda ham “ichkari”, “oʻz” semalariga oʻrin mazmuni borligi yaqqol seziladi. Deylik, *taq-* feʼli *qaq-* feʼliga oʻxshab asos anglatgan mazmunni oʻzlashtirish, *tart-* (*tar+t*) asos anglatgan maʼnoga tomon harakat (qiyoslang: *qar-*, *kir-*, *bar-*, *ber-*), *tap-* esa asos anglatgan maʼno uzra harakat (qiyolang: *qap-//qav-//qab-*, *chap-*) mazmunlari asosida shakllangan. Shunga koʻra, *ta-* asosining birlamchi maʼnosi “ich”, “oʻz” ekani bir qadar oydinlashadi. *Tay*dagi “y” esa yaqinlik semasiga ega boʻlgani shubhasiz. Shuning uchun ham u “asosdan anglashilgan maʼno tomonga...” mazmunidagi *-r//ar* qoʻshimchasi bilan mazmunan yoki funksional sinonimlik kasb etadi. Eski oʻzbek tilidagi *qorar-* hozirgi oʻzbek tilida *qoray-* shaklida ishlatilishi tasodifiy emas. Bu tip soʻzlarning ayrimlari esa hozirda poetik nutqda boʻlsa ham parallel ishlatilmoqda: *sargʻar-* *saygʻay*. “Yoshlik zangor fasl, kechdi, sargʻardi” (Rauf Parfi).

Xullas, tahlil va qiyoslar *tay* dastlab “yaqin”, “oʻzniki” mazmunini anglatgan soʻz boʻlganini koʻrsatadi. Bu mazmundagi soʻz “ona urugʻi” mazmunidagi qarindoshlik terminiga aylanishi ajdodlar hayot tarzi bilan izohlanadi. Turkiy xalqlarning ota urugʻiga ham, ona urugʻiga ham birdek eʼtiborli boʻlgani (bu qadar eʼtibor hamma xalqlar ham oʻtmishida boʻlavermagan) “bu soʻz ona urugʻi davrida shakllangan boʻlishi mumkinmi, ota urugʻi davrida shakllangan boʻlishi mumkinmi?” – degan savollarning ikkasiga ham javob bera oladi. Keyinchalik unga “tegishli” mazmunidagi *i* (bu aslo yo-yi nisbat emas) qoʻshilib, “ona urugʻiga mansub” maʼnosidagi *tay*// *day*// *taay*// *tagʻay* soʻzlari hosil boʻlgan. Bu holat soʻzning tarixida “tay”dan keyingi ikkinchi bosqich boʻlib, *tay*ona urugʻiga mansublikni umumiy tarzda ifodalashini qirgʻiz tilida *taga* (*tay* soʻzidan tashqari) “ona tomondan bobo” maʼnosida ishlatilishi yoki Ibn Muhanna qayd etgan maʼno

¹Мелиоранский П.М.Арабъ филологъ о турецкомъязыкъ. – Санктпетербургъ: Типографія императорской академіи наукъ. – 1900. – С. 085.

bilan izohlanadi¹. Shu tariqa *tag‘ayī*(tog‘a) ona urug‘iga mansub kishi, xususan, er kishi ma’nosini bildirgan.

Yuqorida *tay* so‘zi “yaqin”, “o‘zniki” ma’nosi asosida “ona urug‘i” mazmunini kasb etganligini ko‘rdik. Bu so‘zning keyingi ma’no va vazifalaridagi taraqqiyoti yanada qiziqarli. Xuddi shu “yaqin”, “o‘zniki” ma’nosi uning erkalash-hurmat ma’nosiga asos bo‘lgan. O‘zbek ismlari tarkibida *tay* komponentli *Anortoy*, *Qo‘chqortoy*² kabi antroponimlarda shu mazmun yotadi. Bu holatni boshqa turkiy tillarda ham kuzatamiz. Jumladan, qozoq tilida *apa* so‘zidan shakllangan *apatay* notanish ayolga nisbatan murojaat shakli; din arbobi (demak, hurmatli shaxs)ning xotini ma’nolari bilan ishlatiladi³. E.Sevortyan ta’kidlagan “*tay*” so‘zining “ona” ma’nosi xuddi shu tarzda shakllangan. Bu holat hozir ham diniy bilimga ega bo‘lgan ayollarga yoki din arbobi (qadimda maktabdorlar)ning xotinlariga nisbatan *otinoyi* so‘zining qo‘llanishi bilan qiyoslasak, nominatsiya tamoyili bir qadar ravshanlashadi.

Keyinchalik xuddi shu erkalash-hurmat mazmuni uning “o‘xshash”, “-simon” ma’nolari tomonga siljitgan. Shu mazmun uning qo‘shimcha sifatidagi ilk bosqichi sanaladi. *Tay // day* dastlab “o‘xshash”, “-simon” ma’nolari bilan so‘z tarkibida yasovchi vazifasida namoyon bo‘lgan. Masalan, *turumtay // turuntay* ma’lum bir qush turi bo‘lib, aynan “turnaga o‘xshash” (turna – turna) yoki “bo‘taloqqa o‘xshash” (turun – bo‘taloq) ma’nosini beradi⁴. Shuning uchun ham bu qo‘shimcha hozirda “o‘xshash”, “kabi” (senday, menday) ma’nolari bilan shakl yasovchi vazifasini bajaradi. Uning tarixan *-tay // -tey // -teg // -tek* kabi shakllari borligini eslasak, hozirda *-dek* ko‘rinishiga ega bo‘lishi yo‘sini ham oydinlashadi. Darvoqe, bu qo‘shimcha Xorazm qipchoq lahjasida *-day* (*vunday* – “unday”) // *-tay* (*qī li chtay* – “qilichdek”) shakllarida ham ishlatiladi. Shuning uchun ham *tog‘a* (Xorazmda har ikkala lahjada ham *dayī*) bilan *-day* shakl yasovchisi tarixan bir ildizga ega ekanligi ajablanarli emas.

¹Покровская А.А.Термины родства в тюркских языках // История развитие лексики тюркских языков. – М.,– С. 48.

²Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2007. – 608 б.

³Покровская А.А.Термины родства в тюркских языках // История развитие лексики тюркских языков. – М.,– С. 31.

⁴Баскаков Н.А. Тюркские элементы в «Слове о полку Игореве». – М.: Наука, 1985. – С. 91.

TARJIMASHUNOSLIK

ILM-FANGA BAG'ISHLANGAN JONLI QADIMIY HAYOT HAQIDA...

(Mamedag Shiraliyev xotirasiga bag'ishlanadi)



*Bu qala, bizim qala,
Həmişə bizim qala.
Tikmədim özüm qala,
Tikdim ki, izim qala.*

Ozərbayjon tilidan f.f.n., dotsent R.Y.Xudoyberganov tarjiması

1970-yili nashr qilingan “Sovet turkologiyasi” jurnalining birinchi sonini katta qiziqish bilan qo‘limga oldim va uning mazmun-mohiyati bilan tanishdim.

Meni shu narsa hayratda qoldirdiki, SSSR Fanlar akademiyasining “Sovet turkologiyasi nomli butunittifoq jurnalini nashr qilish haqida”gi qarori bilan shunday yuqori darajadagi ilmiy-nazariy jurnalning bizning ona shahrimiz bo‘lgan Bokuda nashr qilinishi va uning bosh muharriri buyuk olim – Mamedag Sheraliyev bo‘lganligi meni g‘ururlantirdi.

Ozərbayjonlik olimlar har doim ham turkologiya fanining rivojiga munosib hissa qo‘shib kelishgan.

Qiziqarli tomoni shundaki, mazkur jurnalning birinchi sonida akademik M.Shiraliyevning professor S.Asadullayev bilan hamkorlikdagi “Sovet turk filologiyasi va jurnalning vazifalari” nomli maqolasida turk filologiyasining rivojlanishi bo‘yicha ko‘p qirrali yo‘nalishlarning nashr qilinishi va ularning maqsadlari aniqlab berilgan.

Shu munosabat bilan mazkur yirik olimning ilmiy faoliyatiga, uning turli bosqichlardagi hayotiga, hamkasblari bilan uchrashishga va shogirdlari bilan gaplashishga xohish paydo bo‘ldi.

Akademik Mamedag Shirali o‘g‘li Shiraliyev 1909-yil 13-sentabrda qadimgi Ozərbayjon shahri – Shemaxda xizmatchi oilasida tug‘ilgan.

O‘rta ma‘lumotni u 18-son Boku maktabida olgan.

1927-yili o‘smir Ozərbayjon davlat universiteti sharq tillari fakulteti tilshunoslik bo‘limiga o‘qishga kiradi, u 1930-yili Pedagogika instituti deb qayta tashkil qilingan, mazkur ta‘lim muassasini tugatgandan keyin unga Ozərbayjon SSR Agdam tumaniga ishga yo‘llanma berishadi.

M.Shiraliyev 1931-1933-yillardan o‘zining pedagogik faoliyatini Agdam shahridagi Agroximiya texnikumida boshlaydi va u yerda dastlab, ozərbayjon tili o‘qituvchisi, keyinchalik texnikumning o‘quv bo‘limi boshlig‘i bo‘lib ishlaydi..

Aynan o'sha yillar uni jonli qadimiy hayot deb nomlanadigan ilm-fanga, dialektlar va shevalarga o'rganishga katta qiziqish uyg'otadi.

O'zining "Turkiy tillar tarixi uchun yangi dialektik ma'lumotlar" nomli maqolasida akademik M.Sh.Shiraliyev shunday yozadi: *"...Yirik tilshunoslar tilning yozma yodgorliklarini tahlil qila turib, bunda paydo bo'ladigan tilning bahsli muammolariga – dialektik materiallariga tasodifan murojaat qilmas ekan"*.

Shuning uchun ham u yirik rus sharqshunosi P.M.Melioranskiyning fikrlarini qimmatli deb bilgan va uning bu boradagi quyidagi ma'lumotlarini keltiradi: *"... zamonaviy lahjalar, ko'pincha, qayta saqlanib kelayotgani kabi, nisbatan yangi yozma manbalarda bizgacha yetib kelmagan ko'plab shakllar va so'zlarni saqlaydi, shuning uchun ham eng qadimiy yodgorliklarni tushunish hamda qisman tahlil qilish uchun qimmatlidir"*.

Ozarbayjonning tumanlarida va Kavkaz oldi hududlari bo'ylab yosh olim ekspeditsiyalarda faol ishtirok etadi va u shevalar va lahjalar haqida materiallar to'playdi hamda Ozarbayjon hamda Kavkaz tillarining o'zaro munosabatlari, muammolari bilan qiziqadi.

M.Sh.Shiraliyev va uning hamkasblari A.Damirchizade va M.Guseynzade talantli yosh olimlar sifatida ozarbayjon tilshunosi Bekira Chobanzadening aspirantlari hisoblanishgan va ular keyinchalik tilshunoslikning turli sohalarida ilmiy izlanishlar olib borib, repressiya qurboniga aylanishgan.

1941-yilning may oyida M.Shiraliyev o'zining turkiy lahjalar va shevalar bo'yicha filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan "Boku dialekti" nomli fundamental tadqiqotini taqdim etadi, keyinchalik mazkur asar olim tomonidan yaratilgan dialektik fanlarning asosiga aylanadi.

13-may kuni S.Kirov nomidagi Ozarbayjon davlat universiteti ilmiy Kengashining yig'ilishida himoyada qatnashgan rasmiy va norasmiy opponentlar taqdim etilgan dissertatsiyaga yuqori baho berishadi.

Shu yillari filologiya fakultetida dekan bo'lib ishlagan, yirik ukrainalik olim, filologiya fanlari doktori, professor A.V.Bagriy – Ozarbayjonda shu yo'nalishning asoschisi, shevchenkoshunos sifatida himoyaning muvaffaqiyatida qatnasha turib, mazkur yosh olimga to'g'ridan to'g'ri filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini berishni taklif qiladi.

Komissiya tarkibida mashhur olimlar, professorlar: P.Juze, P.Tumbilya, turkolog N.Dmitriyevlar o'ttiz ikki yashar ozarbayjonlik dialektologning muhim ilmiy ahamiyat kasb etgan tadqiqotini nihoyatda yuqori baholashadi.

Mazkur taklifni yig'ilishda ishtirok etayotgan olimlar-professorlar: P.Rostovsev, N.Dmitriyev va dotsent A.Demirchizade qo'llab-quvvatlashadi.

Ilmiy Kengashning ko'pchilik ovoz bilan: yoqlab-19; qarshi-9; betaraf-1; shu qaror bilan M.Sh.Shiraliyev birdaniga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ladi.

Shunday qilib, M.Sh.Shiraliyev Ozarbayjondagi birinchi va SSSRda shu sohadagi eng yosh filologiya fanlari doktori sifatida ozarbayjon tilshunosi bo'lgan.

Mashhur turkolog B.Chobanzadening eng iste'dodli aspirantlaridan biri, o'zining katta yutuqlaridan ilhomlanib, g'ayriodatiy qobiliyati, ulkan

mehnatsevarligi hamda o‘zining ilmiy mavzusiga bo‘lgan cheksiz hurmati va qiziqishi tufayli yosh olim yanada ilm-fan ummoniga g‘ayratlanib kirib bordi.

U o‘zining ilmiy faoliyatiga va milliy an‘analar, odatlar bilan chegaralanib qolmasdan, innovatsion g‘oyalari, izlanishlari bilan xalqaro muhitga qat‘iyat bilan qadam qo‘ydi.

1941-yili M.Shiraliyev “Ozarbayjon tilining dialogi va nutqi” (rus tilida) nomli maqolasini yozdi va u mazkur ilmiy tadqiqotida birinchilardan bo‘lib, ozarbayjon tili shevalarining geografik tamoyillariga asoslangan ilmiy tasnifni keng jamoatchilikka taqdim qildi.

Ushbu maqola ozarbayjonlik olimni umumittifoq miqyosida namoyish etish, uning ozarbayjon va kavkaz tillari shevalari hamda lahjalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ochib berish, sovet turkologiyasining keyingi rivojlanishining asosiy muammolarini aniqlashga imkon berdi.

Unda taqdim etilgan tasnif 1959-yili YUNESKO tomonidan nashr etilgan “Fundamental turcice” nomli kitobidan o‘zining aksini topdi.

Ammo fashistik Germaniya tomonidan SSSRga qarshi boshlangan urush yosh olimning ko‘plab ilmiy rejalarini amalga oshirishga to‘sqinlik qildi. O‘sha davrlarda aqlbovar qilmaydigan qiyinchiliklarga qaramasdan, butun sovet xalqining o‘z vatanini himoya qilishga qaratilgan ulkan sa‘y-harakatlari evaziga Ozarbayjonning orqada qolgan ko‘plab ilm-fan, madaniyat va san‘at namoyandalari o‘zlarining katta hissasini qo‘shishdi.

1942-yili M.Sh.Shiraliyev Ozarbayjon davlat universitetiga ishga ketdi.

Yosh ozarbayjon olimi M.Sh.Shiraliyev ham umumiy g‘alaba ishiga o‘zining kamtarona hissani qo‘shdi. 1942-1945-yillarda u ozarbayjon tilshunosligi kafedراسi mudiri va filologiya fakulteti dekani, 1945-yildan boshlab esa mazkur universitetda prorektor bo‘lib ishladi.

Shu yillarda u universitetda ishlayotganda talabalar orasida o‘zini o‘zi himoya qilish guruhlari va militsiya jamoalarini tuzishda, hamshiralik kurslarini ochishda, harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda, fakultetning butun faoliyatini qayta tashkil etishda universitet rahbariyatiga yordam beradi. Shu bilan birga, uning diqqat markazida universitet talabalaridan yollash masalalari ham turardi.

Sovet xalqi uchun ushbu fojeali davrda u o‘zining ilmiy faoliyatiga e‘tibor berishda davom etardi.

Shundan qilib, 1942-yilda olimning “Ozarbayjon dialektologiyasi” nomli kitobi nashr etildi, unda dastlab, ozarbayjon shevalari va lahjalarining tovush tarkibi hamda fonetik hodisalari, ularning morfologik xususiyatlari, shuningdek, shevalarning adabiy tildan farqlari tavsifi beriladi.

1943-yili SSSR xalq komissiyasi Kegashi huzuridagi Oliy ta‘lim maktabining Oliy attestatsiya komissiyasi Mamedag Shiraliyevga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini va professor unvonini taqdim etadi.

1943-yil 9-fevralda “Kommunist” va “Bakinskiy rabochiy” gazetalari yosh tilshunosga birinchi ozarbayjon olimiga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini berish to‘g‘risida TASS hisoboti e‘lon qilinadi.

Mazkur xabar ma'lum darajada olinga Boku bulvari (xiyoboni) yonida joylashgan olimlar uyidan uy berishga yordam beradi.

Urush ortidagi harbiy faoliyati uchun professor M.Shiraliyev “Kavkaz mudofaasi uchun” (1944), shuningdek, “Buyuk Vatan urushidagi jasorati uchun” (1946) medallari bilan taqdirlanadi.

1945-yilda Ozarbayjon Respublikasi hayotida katta voqea yuz beradi. Bu vaqtda OzarDU yonida Ilmiy markaz tashkil topadi va barqaror rivojlanib boradi. Ozarbayjon SSR hukumati 1945-yil 27-martda Ozarbayjon Fanlar akademiyasini tashkil etadi.

1947-yili “Izvestiya OAYA AN SSR” jurnalida M.Shiraliyev o'zining “Ozarbayjon tilining shevalarini o'rganish” deb nomlangan yangi maqolasini nashr qildiradi, unda ilk bor ozarbayjon tili va kavkaz tillari shevalari hamda lahjalari o'rtasidagi munosabatlarning muammolarini yoritadi, ozarbayjon tilida qipchoq elementlarini tasdiqlovchi bir qator yangi dalillarni keltiradi. Mazkur maqolada olim sovet turkologiyasini yanada rivojlantirishning ayrim muammolarini belgilab beradi, til tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadigan yo'lni ochib beradi.

Ta'kidlash joizki, olimning ushbu maqolasi sovet va xorijiy monografiyalarda munosib o'rin egallaydi.

Professor M.Shiraliyevning nomi nafaqat Ozarbayjonda, balki chet ellarda ham tanila boshlanadi.

1949-yili professor M.Shiraliyev Ozarbayjon SSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi etib ta'yinlanadi va shu yili u Fanlar akademiyasining Til institutida birinchi direktor qilib saylanadi.

Qayd etish lozimki, uning “Boku shevasi” nomli monografiyasi 1949-yilda alohida kitob qilib nashr qilingan va keyinchalik qayta chop etilgan.

SSSR fanlar akademiyasining akademigi N.K.Dmitriyev ushbu kitobga bergan taqrizida shunday yozadi: *“M.Shiraliyevni haqli ravishda zamonaviy ilmfan darajasida bo'lgan ozarbayjon dialektologiyasining asoschisi deb atash mumkin”*.

1950-yili professor M.Shiraliyev ozarbayjon tilining shevalari va lahjalarini qiyoslab o'rganishni boshlaydi. U o'z tadqiqotlarining natijalarini “Ozarbayjon tilining dialektlarini o'rganish” ilmiy tadqiqotida (fonetika misolida) aks ettiradi.

Taniqli qozoq tilshunosi, Qozog'iston Respublikasi Akademiyasining akademigi Sh.Saribayevning: *“Qozoq dialektologiyasida qarama-qarshi masalalar juda ko'p, ulardan biri shevalarni tasniflashdir. Ozarbayjonning taniqli turkologi, professor M.Shiraliyev ushbu maqsadni turkiy dunyo olamida boshlab berdi”*, -qabilidagi e'tiroflarini ta'kidlash o'rinlidir.

1951-yilda professor M.Shiraliyev rahbarligida Fanlar akademiyasi adabiyot va tilshunoslik institutida ilk bor dialektologiya bo'limi tashkil etiladi va taniqli olim uning birinchi rahbari bo'ladi (1951-1953); (1954-1960).

1953-yil esa Bolgariya Xalq Respublikasi hukumatining taklifiga ko'ra professor M.Shiraliyev buyuk Kliment Orxideyskiy nomidagi Sofiya universitetiga ishga o'tadi va u yerda 1953-1954-o'quv yillarida turk filologiyasi kafedrasini mudiri lavozimida ishlaydi.

Bu yerda olim turkiy qishloqlarda talabalar tomonidan to'plangan materiallar asosida olim bir qator "Turk filologiyasi", "Tilshunoslikka kirish" asarlarini yozdi va ulardan bolgar talabalariga ma'ruzalar o'qidi. Mazkur ikkala asar ham qo'lyozma ko'rinishida nashr etilib, hozirda buyuk Kliment Orxideyskiy nomidagi Sofiya universitetida saqlanmoqda.

1959-yili Bolgariya Milliy Fanlar akademiyasining akademigi V.Georgiyev Ozarbayjon fanlar akademiyasi prezidentiga yo'llagan maktubida shunday yozadi: *"1953-1954-o'quv yillarida professor M.Shiraliyev bizning mehmonimiz edi."*

...Professor M.Shiraliyev yaratgan va boshqargan zamonaviy turk tili hamda turk dialektologiyasining ilmiy to'garagi talabalar orasida eng yaxshi kunlarni birlashtirdi va bundan keyin ham uzoq vaqt davomida uning o'zi belgilagan tematik dastur asosida faoliyati davom ettirilmoqda".

Ozarbayjon tilining shevalari va lahjalarini o'rganish bilan bir qatorda professor M.Shiraliyev ozarbayjon adabiy tili, milliy adabiyot muammolariga alohida e'tibor beradi.

U o'zining asarlarida XIX asr oxirlari va XX asr boshlaridagi adabiy til uchun kurashni ochib berishga intilgan.

Shunday qilib, 1956-yilda professor M.Shiraliyev Ozarbayjon SSR Fanlar akademiyasining "Izvestiya" gazetasida "1905-yildagi inqilob va ozarbayjon adabiy tili va millati uchun kurash" nomli maqolasini nashr qildiradi.

Yana bir maqolasi "Sovet davrida ozarbayjon adabiy tilining rivojlanishi to'g'risida" deb nomlanib, unda zamonaviy ozarbayjon adabiy tilining rivojlanib borishi aks ettirilgan.

Bundan tashqari, u buyuk ozarbayjon shoiri M.A.Sobirning adabiy asariga murojaat qiladi va "Sobir tiliga doir eslatmalar" asarini yaratadi, unda XX asr boshlaridagi adabiy tilning xarakterli xususiyatlari, shuningdek, shoir tilining milliy til va shevalar bilan aloqasi ixcham qilib ochib beriladi.

Professor M.Shiraliyevning ozarbayjon dialektologiyasini rivojlantirish bog'liq fundamental tadqiqotlari nafaqat ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan butunittifoq darajasida, balki jahon miqyosida ham yuqori baholanadi.

Shunday qilib, 1957-yili dunyoga taniqli olim allaqachon Turk Tilshunoslik Jamiyatining (Turk Dil Kurumu) VIII kongressida delegat sifatida qatnashadi va u yerda mazkur Jamiyatning muxbir hamda faxriy a'zosi etib ham saylanadi.

1952-1960-yillarda professor M.Shiraliyev I.Nasimiy nomidagi Ozarbayjon SSR Fanlar akademiyasi Adabiyot va til institutida dialektologiya bo'limi mudiri bo'lib ishlagan va bir vaqtning o'zida Ozarbayjon davlat universitetining professori ham hisoblangan.

1960-1968-yillarda professor M.Shiraliyev I.Nasimiy nomidagi Ozarbayjon SSR Fanlar akademiyasi Adabiyot va til institutini boshqargan. 1968-yil fevral oyidan boshlab, Ozarbayjon SSR Fanlar akademiyasi ijtimoiy fanlar bo'limining akadem-kotibi bo'lgan.

Professor M.Shiraliyevning fundamental tadqiqotlaridan biri uning 1962-yili nashr qilingan "Ozarbayjon dialektologiyasining asoslari" nomli tadqiqotidir.

Mazkur kitob dialektlarning ko‘p yillik o‘rganishlari natijasidir. Unda ozarbayjon shevalari va lahjalari, ularning o‘ziga xos spetsifik hamda umumiy xususiyatlari chuqur nazariy tahlil qilingan.

Shuningdek, ushbu asarda ozarbayjon shevalari va lahjalari boshqa turkiy xalqlar shevalari bilan qiyoslangan holda o‘rganilgani aks ettirilgan.

O‘sha davrlarda mazkur asar o‘zining ilmiyligi jihatidan turkiy tillar sohasida dunyodagi yakka tadqiqot hisoblangan.

1962-yili professor M.Shiraliyev Ozarbayjon SSR Fanlar akademiyasining akademigi etib saylanadi va shu yili unga “Xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni beriladi.



Академик АН Азерб. ССР М. Ширалиев.

1969-yili u I.Nasimiy nomidagi tilshunoslik institutining birinchi direktori etib tayinlanadi.

O‘sha davrlarda uning rahbarligida institutda “Turkiy tillarning dialektologiyasi masalalari” nomli butunittifoq davriy to‘plami nashr qilina boshlandi va u o‘n yil mobaynida muvaffaqiyatli nashr qilinib borilgan.

Dialektologiya sohasini rivojlantirishdagi o‘zining monumental xizmatlari uchun akademik M.Sh.Shiraliyev 1972-yili Ozarbayjon SSR davlat mukofotiga sazovar bo‘ladi.

Akademik M.Sh.Shiraliyev nafaqat sovet ittifoqida, balki dunyoning turli mamlakatlarida bo‘lib turgan turli xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va kongresslarda ozarbayjon ilmini ommalashtirishga harakat qildi.

Uning ilmiy chiqishlari nafaqat butunittifoq miqyosida, balki jahon miqyosida yuqori baholangan.

Masalan, uning M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida “Sobiobod dialektologik ensiklopediyasining dastlabki qadamlari” (1947) nomli maqolasi bilan chiqishini barcha chuqur qiziqish bilan qabul qildi.

Polsha Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining taklifiga binoan akademik M.Sh.Shiraliyev Varshava universitetida, shuningdek, Sharqshunoslik universitetidagi Krakovski oriyentologik komissiyasiga “Dialektologik

atlaslarni tuzish to‘g‘risida” (1963) nomli mavzusida o‘zining sovet turkologiyasining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan ma‘ruzalari bilan barchaning diqqatini jalb eta oldi.

1966-yili uning tezislari “Floria Orientalia” nomli Krakova sharqshunoslik to‘plamida “Un atlasdugraure oriental de langue azerbaïylineise” mavzusi ostida fransuz tilida nashr qilindi.

Uning turli joylardagi ma‘ruzalari har doim katta qiziqish bilan kutib olingan:

- Moskvada bo‘lib o‘tgan VII Xalqaro turkologlar etnograflarning kongressida “Ingliz-gur tili” (1964);

- Boku shahrida bo‘lib o‘tgan butunittifoq dialektologik yig‘ilishida (1965);

- “Sovet turkologiyasi yangi bosqichda” mavzusida milliy tillarning rivojlanishi muammolariga bag‘ishlangan Kishinyovning ilmiy sessiyasida; ma‘ruza Moldova Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti to‘plamlarida nashr qilingan;

- Moskvada bo‘lib o‘tgan XXV Xalqaro Sharqshunoslik kongressida “Ozarbayjon dialektologiyasi to‘g‘risida” nomli maqolasi bilan va boshqalar.

Ozarbayjon tilidagi dastlabki dialektologik atlas va lug‘atlarning tuzilishi akademik bevosita M.Sh.Shiraliyev nomi bilan bog‘liq.

Akademik M.Sh.Shiraliyev geografik lingvistika orqali turkiy tillarning o‘rganish g‘oyalarining muallifi ham hisoblanadi.

SSSR eng yirik turkologlaridan biri, SSSR Fanlar akademiyasining akademigi A.N.Kononov “Sovet turkologiyasi” jurnalida chop etilgan o‘zining “Mamedag Shirali o‘g‘li Shiraliyev” maqolasida shunday yozadi: “Lingvistik geografiya metodi bilan turkiy tillarni o‘rganish, hattoki, turkologiyada 50 yillargacha eng zaif bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib qolgan”.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, 1960-yili M.Sh.Shiraliyev o‘zining “Ozarbayjon dialektologiyasi yangi bosqichda” nomli maqolasida dialektologik atlasning yaratishning yo‘llari va ilmiy asoslari bayon qilib, uni chop qilinishiga ham erishdi.

Shuning uchun ham Bokuda turkiy tillar dialektologiyasi bo‘yicha bo‘lib o‘tgan Butunittifoq yig‘ilishida akademik M.Sh.Shiraliyevga dialektik atlasni tuzish yuzasidan barcha ishlarga rahbarlik qilish ishonib topshiriladi.

1966-yili Anqarada bo‘lib o‘tgan Turk lingvistik jamiyatining XI kongressida taniqli olim “Turk lingvistik atlasini tuzishning aniq vazifalari holati haqida” mavzusida ma‘ruza qildi. Ma‘ruzaning to‘liq matni Turkiyaning syezd materiallari to‘plamida nashr qilingan.

Akademik M.Sh.Shiraliyev rahbarligida ozarbayjon dialektologlari 20 yil davomida 128 ta xarita yaratib, “Ozarbayjon tilining dialektologik atlasini”ni nashr etishgan (1980).

Mazkur atlasning muharrirlari akademik M.Sh.Shiraliyev va professor M.Islomovlar edilar. Atlasning nashr etilishi jahon amaliyotining dastlabki qadami bo‘lib, dunyo turkologlari tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi hamda ular tomonidan yuqori baholandi.


Xususan, Turkmaniston SSR Fanlar akademiyasining prezidenti R.Azimov shunday yozgan edi: “Turkmanlar o‘zlarining dialektologik atlaslarini M.Sh.Shiraliyev maktabi asosida yaratdilar”.

Ma’lumki, 1959-yili Butunittifoq aholini ro‘yxatga olish o‘tkazilib, shu davrda Sovet Ittifoqi hududida 25 million kishidan iborat turkiyzabon xalqlar yashayotganligi aniqlangan, jumladan: qozoqlar, o‘zbeklar, ozarbayjonlar, turkmanlar, qirg‘izlar, tatarlar, boshqirdalar, chuvashlar, tuviniklar, yaqutlar, oltoylar, xazarlar, qumiklar, qorachaylar, bolgarlar, no‘qaylar, qoraqalpoqlar, gagauzlar va boshqalar.

Mazkur hududlarda turk tilidan tashqari, turkiy tillar vakillari bo‘lgan. Ularda gaplashadigan odamlar soni bo‘yicha turkiy tillar Sharqiy slavyan tillaridan keyin ikkinchi o‘rinda turgan.

Shubhasiz, XX asrning 70-yillariga kelib, beshta ittifoq va avtonim turkiy tilli respublikalarning mahalliy aholisi sezilarli darajada ko‘paygan. O‘sha paytlarda SSSRda Boku shahri turkiy ilmlar markazi sifatida tan olingan.

Ozarbayjon olimlarining turkologiyani rivojlantirishga qo‘shgan hissasini hisobga olgan holda, shuningdek, sovet turkologiyasini yanada taraqqiy ettirish maqsadida SSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumining “Butunittifoq jurnalini nashr ettirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Sovet turkologiyasining maqsadi: turkolog-olimlarning sa‘yi-harakatlarini birlashtirish, keng fikr va tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish, tadqiqot natijalarining umumlashtirishni ta‘minlash, turkiy tillarning boshqa turkiy tillar bilan o‘zaro munosabatlarini yoritish, turkiy xalqlar o‘rtasidagi ko‘p asrlik adabiy va madaniy aloqalarni aniqlash va ular haqida materiallarni nashr qildirish va boshqalar.



Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda akademik M.Sh.Shiraliyevning mazkur butunittifoq ilmiy-nazariy jurnaliga bosh muharrir etib tayinlangani tabiiy holdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu jurnal 1970-yildan 1987-yilgacha chop etilgan. Mazkur davrlar mobaynida jurnalning 100 ortiq tiraji nashr qilingan.

Ilmiy va tashkiliy ishlar natijasida ushbu nashr sahifalarida ko‘plab nazariy maqolalar, yetakchi olimlarning SSSR respublikalari va mintaqalarning

individual monografiyalari, yubiley konferensiyalari hamda simpoziumlari materiallari va boshqalar nashr etildi.

Shunday qilib, 1971-yili Kiyevda taniqli sharqshunos va slavyanshunos, turkiyzabon xalqlar tarixini o'rganuvchi, ukrain dialektologi, yozuvchi va tarjimon, Ukraina SSR Fanlar akademiyasining akademigi A.Y.Krimskiyning 100-yilligiga bag'ishlangan "Turkiy tillarning boshqa tillar bilan o'zaro aloqalarini o'rganishni boyitish" mavzusida ilmiy sessiya bo'lib o'tdi.

Akademik M.Sh.Shiraliyev Ozarbayjonda uzoq yillik mazmunli ilmiy va pedagogik faoliyati bilan ta'lim rivojiga ham qimmatli hissa qo'shdi.

Ta'kidlash joizki, olimning buyuk xizmatlari fundamental asarlarni nashr etish, darsliklar, turli o'quv qo'llanmalari va dialektologiya bo'yicha dasturlarni tuzish sohasida keng tarqalgan.

Uning ko'plab fundamental asarlari bir necha bor qayta nashr etilgan va bugungi kunda ulardan olimlar va universitet talabalari keng foydalanishmoqda.

U o'zining ilmiy va pedagogik tajribalarini nafaqat Ozarbayjon talabalarida, balki xorijiy davlatlar talabalarida ham muvaffaqiyatli o'tkazgan.

Shuningdek, 1953-1954 o'quv yillarida Sofiya universitetida turkiy filologiya kafedrasida mudiri lavozimida ishlayotgan davrlarda bir necha kurslar uchun dasturlar va darsliklar yaratdi.

Uning rahbarligida va taniqli tilshunoslar bilan hammualliflikda u oliy maktablar uchun bir qator darsliklar yozdi.

Masalan, Ozarbayjonning o'rta maktablarida mana 50 yildan ortiq davr mobaynida o'qituvchilar va maktab o'quvchilari 1940-yili nashr etilgan va Muxtor Husaynzoda bilan hamkorlikda yozilgan "Ozarbayjon tilining grammatikasi: sintaksis" darsligidan hamon foydalanishmoqda.

Qayd etish lozimki, respublika oliy o'quv yurtlari uchun dialektologiya fani bo'yicha dastur va o'quv qo'llanma ham ilk bor akademik M.Sh.Shiraliyev tomonidan yozilgan.

Akademik M.Sh.Shiraliyev tilshunoslik sohasida ham Ozarbayjon, ham SSSRning ko'plab respublikalari uchun va chet ellarda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim o'rin egallaydi.

Olimning ko'plab shogirdlari mamlakatimiz va uning chegaralaridan tashqarisida o'zlarining tadqiqotlarini muvaffaqiyatli himoya qilishgan.

Ushbu materialni tayyorlash jarayonida ko'pchilik ushbu taniqli olim haqida bilishini angladim.

1959-yili SSSR fanlar akademiyasining akademigi B.A.Serebryannikov shunday yozgan edi: *"Mamedag Shiraliyevichni ko'plab talabalari haqli ravishda uning turkologiya fanining asoschisi deb hisoblashgan"*.

Masalan, ozarbayjon tili sohasida u 10 ta fan doktori va 50 dan ortiq fan nomzodlari yetishtirgan. U ularning ko'pchiligining ilmiy maslahatchisi edi.

Ular orasida akademiklar Agamusa Oxundov, Tofik Hojiyev, filologiya fanlari doktorlari Mirza Rahimov, Ismoil Mammedov, Gafanzar Rashayev, Raxilya Maxarramova, Musa Islomov, Gafanzar Karimov, Museyb Mamedov va boshqalar ham bo'lgan.

Uning bevosita ishtirokida quyidagi dissertatsiyalar himoya qilindi: 9 ta o'zbek, 2 ta tatar, 2 ta boshqird, bittadan balkar, gagauz, qoraqalpoq, qorachay, qozoq.

U qiyosiy-tipologik usulda turkiy tillarga oid ilmiy asarlarni yoritish va bu sohada kadrlar tayyorlashning tashabbuskori bo'lgan.

Akademik M.Sh.Shiraliyev ilmiy kadrlar tayyorlash masalasiga qaratgan e'tiboridan kelib chiqib, respublikamizda ozarbayjon-o'zbek, ozarbayjon-tatar, ozarbayjon-turkman tillari sohasida yosh mutaxassis-olimlar yetishib chiqqan.

Uning izdoshlari bugungi kunda O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Moldova, Qorachay-Cherkesiya, Qoraqalpog'iston va sobiq Sovet Ittifoqi hamda MDHning boshqa suveren respublikalarida mehnat qilmoqdalar.

Ilmiy kadrlar tayyorlashdagi faol xizmatlari uchun akademik M.Sh.Shiraliyev O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining faxriy yorlig'i (1977), shuningdek, tavalludining 70 yilligi munosabati bilan O'zbekiston SSR Qoraqalpog'iston avtonom respublikasining faxriy yorlig'i bilan ham taqdirlangan.

Taniqli olimning iste'dodli va yorqin shogirdlaridan biri bu xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, sharqshunoslik va folklor bo'yicha mukammal mutaxassis, yirik tadqiqotchi, faol jamoat va siyosiy arbob nafaqat Ozarbayjonda taniqli shaxs, balki dunyoning ko'plab maktablarida xayriya ishlari bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan inson, professor Gafanzar Rashayevdir.

U akademik M.Sh.Shiraliyevning birinchi aspiranti, uning ilmiy loyihasining tinimsiz izdoshidir.

O'tgan asrning o'sha uzoq yillarida men M.F.Axundov nomidagi Ozarbayjon Chet tillari instituti ingliz-ozarbayjon bo'limining talabasi bo'lgan paytimda Gafanzar muallif bizlarga "Ingliz tili leksikasi" fanidan saboq bergan.

Shu sababli o'qituvchimiz bilan yana bir bor uchrashish, o'qituvchi va rahbarning hayotidan noma'lum sahifalarni birinchi qo'ldan o'rganish men uchun ikki barobar yoqimli edi.

Professor G.Rashayev ajoyib olim to'g'risida shunday eslaydi: *"1962-yili akademik M.Sh.Shiraliyev "Ozarbayjon tilining kerkuk shevasi" mavzusi deb, dissertatsiya mavzusi sifatida tanladi". Iroqqa ekspeditsiya qilishimdan avval u meni o'z oldiga taklif qilib, menga "Monografik tadqiqotlar dasturi va ozarbayjon tilining shevalari" hamda "Boku shevasi" nomli fundamental tadqiqotlarini berdi. Shu bilan birga, u mening e'tiborimni shunga tortdiki, Iroq turkmanlarining kerkuk lahjasi ozarbayjonlar hisoblanishadi", deb aytgan.*

Akademik M.Sh.Shiraliyevning "Sovet turkologiyasi" jurnalining 5-sonida (1970) ozarbayjon shevalarini o'rganishga bag'ishlangan "Turkiy tillarning yangi dialektal tarixlari" nomli maqolasida quyidagilar qayd etilgan: *"...1956-yili Iroq Respublikasida Attar Tarziboshning asari (Kerkuk qo'shiqlari), shuningdek, Iroqda ikki yil ekspeditsiyada bo'lib, ozarbayjonning kerkuk shevasi o'rgangan Gafanzar Rashayevning asarlari nashr etildi"*.

U menga doim shunday so'zlar bilan murojaat qilgan: "O'g'lim" (Mening o'g'lim) va u menga tom ma'noda otalik mehrini ko'rsatgan.

Professor G.Rashayevning 2010-yili nashr etilgan “Borcumuzdur bu ehtiram” nomli kitobi bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldim. Unda asosiy diqqat e’tibor akademik M.Sh.Shiraliyevga qaratilgan.

O‘zining ustozining yo‘lini davom qildirgan professor G.Rashayev birinchi marta kerkuk shevalarini targ‘ib qilishga bag‘ishlangan qator qiziqarli asarlarni nashr qildirdi.

I.Nasimiy nomidagi Fanlar akademiyasi jamoasi uzoq yillar davomida ishlagan buyuk olimning muqaddas xotirasini saqlagan holda taniqli olimning ilmiy merosini asrab-avaylashga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu xayrli ishlarda institutning ko‘plab taniqli olimlari faol ishtirok etayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Menda filologiya fanlari doktori, professor Gafanzar Kazimovning akademik M.Sh.Shiraliyev tavalludining 100-yilligiga bag‘ishlangan yubileydagi “Ozarbayjon dialektologiyasi fanining asoschisi” nomli ko‘pqirrali, qiziqarli maqolasi yaxshi taassurot qoldirdi.

Professor G.Kazimov uzoq yillar davomida akademik M.Shiraliyev tomonidan tilshunoslik institutida tashkil etilgan dialektologiya bo‘limiga rahbarlik qildi va u taniqli olimlar tomonidan belgilab berilgan ko‘plab yo‘nalishlarni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdi.

Ushbu maqolada muallif taniqli rus sharqshunosi olim Mirza Kazimning “Turk-tatar grammatikasi” nomli asaridagi qiziqarli dalillarni ochib beradi u yerda birinchi marta Kuba shevasi, Derbent shevasi va Janubiy Ozarbayjon shevalari tadqiq qilingan.

Shuningdek, mazkur maqolada Ozarbayjon shevalari va lahjalarini o‘rganish sovet davrining dastlabki yillaridan boshlangani ham qayd etilgan.

O‘tgan asrning 20-yillarida tarixiy-etnografiya bo‘limini boshqargan buyuk ozarbayjon yozuvchisi A.Axverdiyev va davlat arbobi Nariman Narimanovning tashabbusi bilan tuzilgan jamiyat tomonidan Ozarbayjonni o‘rganish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Unda Ozarbayjon ziyolilarining eng yaxshi vakillari shevalar va lahjalarni to‘plash ishiga jalb qilingan.

Aynan shu davrda Ozarbayjonning boy shevalari va lahjalari haqida qimmatli materiallar to‘plangan.

Ozarbayjon hukumatining tashabbusi bilan SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, taniqli olim, turkolog N.Ashmarin taklif qilindi. Uning rahbarligida “Nuxi shahrining turk xalq shevalari umumiy sharhi” asari nashr etilgan.

O‘sha yillari 30 jildlik lug‘at nashr etilishi ko‘zlangan edi, ammo ulardan “A” va “B” harflari ostidagi ikkita jild nashr qilindi, xolos.

Bugungi kunda xalqaro simpoziumlar va konferensiyalarda akademik M.Shiraliyevning roli qayd etilayotgani quvonarlidir.

Bu borada 2014-yil oktabr oyida Boku shahrida “Taniqli mutafakkir va tilshunos Alibek Husayn o‘g‘li tavalludining 150-yilligi va akademik M.Shiraliyev tavalludining 105-yilligi” mavzusida o‘tkazilgan 1-xalqaro turkologlar simpoziumini ta’kidlash o‘rinlidir.

Forum tashkilotchilari I.Nasimiy nomidagi Ozarbayjon Fanlar akademiyasi va “Kavkaz” universiteti bo‘lgan.

Xalqaro simpozium Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti I.Aliyevning “Alibek Husaynzodaning 150-yilligini o‘tkazish to‘g‘risida”gi topshirig‘iga asosan o‘tkazildi.

Forumning ochilishida institut direktori, akademik T.Gadjiyev shuni ta’kidladiki, ozarbayjonlik olimlar yoki akademik M.Shiraliyevning shogirdlari yoki uning shogirdlarining shogirdlari hisoblanishadi.

Prezidentning millatlararo va diniy masalalari bo‘yicha maslahatchisi Kyamal Abdullayev simpoziumda so‘zga chiqib, ozarbayjon tilshunosligi va turkologiyasining rivojlanishida Alibek Husayzadaning roli haqida gapirib, ushbu simpozium dunyoning barcha turkologlarini birlashtiradi deb, ishonch bildirdi.

Tadbirda dunyoning 12 ta mamlakatidan 40 ga yaqin vakillar ishtirok etishdi, unda Turkiya, Ukraina, Buyuk Britaniya, Qozog‘iston, Bolgariya, Polsha, Albaniya, Afg‘oniston, Xitoy va O‘zbekiston olimlari ishtirokida 90 dan ortiq ma’ruzalar tinglandi.

Taniqli olimning hayot yo‘lini kuzatib, 2019-yilning oktabr oyida I.Nasimiy nomidagi Ozarbayjon fanlar akademiyasi tilshunoslik institutida “Mamedag Shiraliyev va Ozarbayjon tilshunosligi” mavzusida bo‘lib o‘tgan yubiley ilmiy sessiyasida akademik M.Shiraliyev haqida eshitish yoqimli edi.

Institut direktori, akademik M.Nagisoy ochilish marosimidagi o‘zining nutqida quyidagilarni ta’kidladi: “...Ozarbayjon tilshunosligida ushbu sohadagi birinchi akademik Mamedag Shiraliyev bo‘ldi, u dunyo miqyosida dialektolog sifatida tanildi. Mazkur soha olimga dunyo miqyosida shuhrat keltirdi”.

Oila a‘zolari nomidan so‘zga chiqqan Sevda Alizada (akademikning singlisining qizi) yubiley sessiyasi tashkilotchilariga minnatdorchilik bildirdi.

Akademik Mamedag Shiraliyevning ijodiga ko‘pchilik ozarbayjonlik olimlar alohida e‘tibor qaratishadi va uning barcha ilmiy tadqiqotlarini yuqori baholashadi.

Ammo men u haqida, ayniqsa, uni eslaydigan va uning ishlariga qoyil qolgan yangi va kelajak avlodlar xususida ko‘proq bilmoqchi edim.

Bizning dunyomizda vaqt sinovidan o‘tgan do‘stlikdan qimmatroq narsa yo‘q.

2020-yili YUNESKO tomonidan turk dunyosining madaniy markazi deb e‘lon qilingan Xiva shahri va butun o‘zbek xalqiga omadlar tilayman hamda ushbu do‘stlik, qardosh xalqlarimiz, ajoyib Ozarbayjon olimini haqida ham bilishini istardim.

Akademik M.Sh.Shiraliyev xotirasiga bag‘ishlangan barcha tadbirlar universal va estetik ta’sir jihatidan chegaralangan emas va u o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Mamlakat Prezidenti I.Aliyevga taniqli olim xotirasini saqlab qolgani, turkiy xalqlarning madaniy merosini tarqatish va ommalashtirishdagi hissasi uchun minnatdorchilik bildirmoqchiman.

***Tadqiqotchi olim
Namazali Mustafayev
2020-yil, Boku shahri***

ADABIYOTLAR:

1. Распоряжение Президента Азербайджанской Республики И.Алиева “О проведении 110-летия академика Мамедаги Ширалиева”, газ. “Бакинский Рабочий”, 20.07.2019 г., стр. 1.
2. Выступление Президента Азербайджанской Республики на церемонии открытия министерской конференции Движения неприсоединения на тему “Улучшение международного мира и безопасности во имя устойчивого развития”, газ. “Бакинский Рабочий”, 06.04.2018 г., стр. 2-3.
3. Выступление Президента Азербайджанской Республики И.Алиева на ВИИ Саммите сотрудничества тюркоязычных государств, газ. “Бакинский Рабочий”, 16.10.2019 г., стр. 2-3.
4. Выступление первого Президента Казахстана — Елбасы, почетного председателя Тюркского Совета г-на Нурсултана Назарбаева. газ. “Бакинский Рабочий”, 15.10.2019 г.
5. Выступление Президента Узбекистана г-на Ш.Мирзиёева газ. “Бакинский Рабочий”, 15.10.2019 г.
6. Выступление Премьер-министра Венгрии Виктора Орбана на ВИИ Саммите Совета сотрудничества тюркоязычных государств. газ. “Бакинский Рабочий”, 16.10.2019 г.
7. Материалы ВИИ Саммита Тюркского Совета, газ. “Бакинский Рабочий”, 15.10.2019 г., стр. 1-8.
8. М.Ш.Ширалиев, С.Асадуллаев. “Советская тюркская филология и задачи журнала “Советская тюркология”, журн.: “Советская Тюркология”, 1970 г., № 1, стр. 3-15.
9. М.Рагимов “Научная деятельность академика М.Ш.Ширалиева”, журн.: “Вопросы тюркологии”, изд. “Элм”, Баку, 1971 г., стр. 3-14.
10. А.Кононов. “Мамедага Ширали оглы Ширалиев” (к шестидесятилетию со дня рождения), журн.: “Советская тюркология”, 1971 г., № 5, стр. 124-127.
11. Р.Болдырев. “Столетие со дня рождения академика А.Е.Крымского”, журн.: “Советская тюркология”, 1971 г., № 1, стр. 124-127.
12. А.Кононов. “П.М.Мелиоранский и Отечественная тюркология”, журн.: “Советская тюркология”, 1971 г., № 1, стр. 6-23.
13. А.Атакишиев. “История Азербайджанского Государственного Университета”. Изд. АГУ 1989 г., стр. 217-218.
14. Г.Пашаев. “Тюркологийя элминин патриархі”. “Азәрбайсан кәзети”, 7.11.2009-су ил
15. Г.Кязимов. “Азәрбайсан диалектология элминин баниси”. “Тәдқиқләр” журналі, 2009-су ил, сәх. 9-14.
16. Г.Пашаев. “Борсумуздуз бу әхтирам. Унудулмазлар хаққинда увертүра”. Баки – 2010, сәх. 18-28.
17. М.Дадашзаде. “Люди науки. Исследуя родной язык...” газ. “Бакинский Рабочий”, 03.12.1969 г.
18. А.Абдуллаев. “Крупный советский тюрколог”, газ. “Баку” 03.12.1969 г., стр. 3.
19. М.Касимов, М.Исламов. “Люди науки. Изучая богатство языка”, газ. “Бакинский Рабочий”, 26.10.1979 г.

ARXITEKTURA**SHAHARSOZLIK VA MINORALAR**

UO‘K 726.2.012.28



**Gavhar
DURDIYEVA**

**Arxitektura
fanlari doktori,
Xorazm
Ma'mun
akademiyasi
laboratoriya
mudiri.**



**Qaxramon,
SABUROV**

**Urganch davlat
universiteti
texnika fakulteti
“Qurilish”
kafedrası
o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva minoralarini barpo etish usullari, me'moriy tarkibi, qurilish materiallari, qurilish tarixi, qadimgi Xorazm me'morchiligida alohida ahamiyatga ega bo'lgan yer usti va yer osti qismlarining joylashuvi ilmiy ketma-ketlikda tasvirlangan. Ushbu ma'lumotlarning aksariyati birinchi marta ilmiy muomalaga kiritilmoqda.

Kalit so'zlar: me'moriy yodgorlik, minora, plintus, fonar, qurilish material, spiral, oraliq, zinapoyalar, zilzilabardoshlik.

Annotation: In this article, the methods of construction of minarets of Khiva, architectural composition, building materials, history of construction, devices of aboveground and underground parts, which are of special importance in the ancient Khorezm architecture, are described in scientific sequence and in-depth analysis for the first time. Much of this information is being inserted into scientific circulation for the first time.

Key words: architectural monument, minaret, basement, construction material, spiral, mezzanine, staircase, earthquake resistant.

Аннотация: В данной статье в научной последовательности описаны способы возведения минаретов Хивы, архитектурная композиция, строительные материалы, история строительства, устройства надземной и подземной частей, которые имеют особое значение в архитектуре древнего Хорезма. Большая часть этой информации вводится в научный оборот впервые.

Ключевые слова: памятник архитектуры, минарет, сокол, фонар, строительный материал, спирал, антресол, лестница, сейсмостойкость.

Minoralar sharq shaharlari qiyofasida muhim rol o'ynagan va buning shaharsozlikda ahamiyati katta. “O'rta Osiyoda buni Xivadagi Ichan qal'a misolida ko'rish va shahardagi yirik masjidlar, madrasalar, me'moriy majmualarning joylashgan o'rnini topishga yordam beruvchi belgi vazifasini o'taganini aytish mumkin”(1).

“Minoralar maydonda joylashuvi (alohida yoki binoga qo'shib qurilgan) yuqorisining shakli (yuqorisida tuynuk bo'lgan dumalok ustunli yoki

ko‘pqatlamli ignasimon) ustuniga tikkasiga (qat-qat burma), bo‘ylama (g‘ishtni shakldor kilib terish yoki qoplash), tekis yoki to‘rsimon qilib ishlov berilishi kabi jihatlariga ko‘ra farqlanadi”(2).



Alohida qurilgan minoralar, odatda, masjidlar yoki diniy jamoatchilik binolari yonida qurilgan. Minora masjidning asosiy binosi oldida yoki burchagida (Masalan: Chilburji, Bashan, Dahiston masjidlari, IX-X asrlar; Buxoroda Minorai Kalon minorasi, XII asr; Xivada Muhammad Aminxon madrasasi yonidagi Kalta minor o‘sha yerdagi Islom Xo‘ja minorasi, XX asr boshlari va boshqalar) yoki uning old tomoni markazida (Qohiradagi Samara, Ibn Tulun masjidlari, IX asr, Rabotdagi Hasan minorasi va boshqalar) joylashishi mumkin alohida qurilgan minora keyinchalik barpo etilgan bino tarkibiga qo‘shilib ketishi mumkin (Masalan: Juma masjidi minorasi, XVIII asr Xivadagi Said Niyoz Sholikorbiy majmuasi, 1841-yil).

Keyinchalik qurilgan minoralar tuzilishi va bezak jihatdan yirik jamoatchilik binolarining tarkibiy qismi sifatida ularga uyg‘unlashtirib yuborilgan.

Minoralar temuriylar davri me‘morchiligida inshootlarning yirik peshtoqi qompozitsiyasiga kiritilib, hovli ko‘rinishidagi majmualar burchaklarida barpo etilgan. Vazifasiga ko‘ra, birinchi guruhga mansublari faqat amaliy jihatdan qo‘llangan. Lekin ular orasida nihoyatda baland bo‘lganligi uchun azon aytishga noqulay hisoblangan ikki bo‘g‘imli yodgorliklar ham mavjud.

“O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar istilosiga qadar va so‘nggi feodal davrlarida qurilgan va binolardan ajralib turgan minoralarning ustki qismida azon aytuvchilar uchun ravoqli tuynuklar bo‘lgan”(3).

O‘zgan va Jarqo‘rg‘on minoralari ham qirrali poydevor ustiga o‘rnatilgan. Movarounnahr, Farg‘ona va Xorazmdagi alohida qurilgan minoralar ustunlari yuzasi sillik bo‘lganligiga qaramay, ularning barchasi zinapoyasimon poydevorlarga o‘rnatilgan.

O'rta Osiyo me'morchiligi tarixida XII asr o'rtalari, XV asr boshlari XVII asr 1-yarmida ba'zan minoralarning ko'p bo'g'inli turi ham qurilgan. O'rta Osiyoning qadimgi minoralari orasida yerga ko'milgan qub asosli, sakkiz burchakli, poydevori va yuqorisiga qubba o'rnatilgan, silindr shaklidagi ustuni bo'lgan muqaddas ustun ko'rinishidagi hind qabilalarining diniy inshootlari alohida ajralib turadi. Bu shakl ko'proq bir bo'g'inga minoralarga xosdir (keyingi yillarda arxeologik qazilmalar natijasida ochilgan Bolasog'un minorasi poydevori bunga misol bo'ladi).

Jarqo'rg'on minorasida Xuroson va Hindistondagi minorali maqbaralar singari vertikal bezakdor qat-qat burmalarga ajratilgan. Shuning uchun ushbu yagona yodgorlik O'rta Osiyo me'morchiligidagi alohida hodisa sifatida talqin etiladi.

“O'rta Osiyo hududidagi minoralar uchun ustun shakli (silindrli, entazisli, konussimon), qavatlilik (bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli, uch bo'g'inli), tugallanish qismining shakli (tuynuk, sharafa) muhim tipologik belgi sanaladi. Minoralarning poydevor shakli (kub, sakkiz burchak, silindr, zinapoyasimon) va joylashish o'rni (alohida, binoga qo'shilgan) ularning tur xususiyatlariga kiradi. Ustun qismlariga ishlov berish va mutanosiblik hamda bezakdorlikka o'ziga xos yondashuv namoyon bo'ladi”(4). Umuman olganda minoralar sharq shaharsozligiga o'ziga xos salobat va ko'rk bag'ishlab turgan o'ziga xos me'moriy kompozitsiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurasulov A. Xiva. Toshkent: “O'zbekiston”, 1997.
2. Abdurashidov K.S. O'zbekistondagi arxitektura yodgorliklari konstruksiyalarining holati va kelajagi. //Архитектура и строительство Узбекистана – 2001. № 1, S. 16-17.
3. Boltayev A. Xiva arxitektura qoidalari. Toshkent, 2013, 101 b.
4. Bulatova V.A., Notkin I.I. Xivaning arxitektura yodgorliklari, Toshkent., 1963.

IQTISODIYOT

MINTAQA MEHMONXONA INDUSTRIYASIDA EKOLOGIK BOSHQARUV MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI



**Umidjon
MATYAKUBOV**

**Iqtisodiyot
fanlari doktori,
Urganch davlat
universiteti
professori.**



UDK 339.1

Annotatsiya: ushbu maqolada Orolbo'yi mintaqasi mehmonxonalarida ekologik menejmentni shakllantirish mexanizmlari bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan. Muallif tomonidan Orolbo'yi mintaqasi mehmonxonalarining atrof-muhitga foydali bo'ladigan munosabatlarini shakllantiradigan mehmonxonalar boshqaruv tizimining integratsiyalashgan modeli taklif qilindi. Maqolada tadqiqot metodologiya sifatida Orolbo'yi mintaqasi hisoblangan Xorazm viloyatining 70 ta mehmonxonasi tanlab olinib, ularning atrof-muhitga munosabati bo'yicha anketa-so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijasida olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, mintaqa mehmonxonalarining atrof-muhitga nisbatan do'stona munosabatini shakllantirish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlari: turizm, ekologik menejment, mehmonxona, atrof-muhit, turizm biznesi.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы, связанные с механизмами формирования экологического менеджмента в гостиницах Приаралья. Автор предложил комплексную модель системы управления гостиницей, формирующую экологически полезные отношения гостиниц Приаралья. В статье в качестве методики исследования были выбраны 70 гостиниц Хорезмской области, что является районом Приаралья, и проведено анкетирование по их отношению к окружающей среде. Информация, полученная в результате опроса, была проанализирована, и разработаны соответствующие рекомендации по формированию доброжелательного отношения гостиниц региона к окружающей среде.

Ключевые слова: туризм, управление окружением, гостиница, среда, туристический бизнес.

Abstract: This article examines issues related to the mechanisms of environmental management formation in hotels of the Aral Bay region. The author proposed an integrated model of the hotel management system, which forms environmentally beneficial relations of the hotels of the Aral Bay region. In

the article, as a research methodology, 70 hotels of the Khorezm region, which is the Aral Bay region, were selected, and questionnaires were conducted on their attitude to the environment. The information obtained as a result of the survey was analyzed, and appropriate recommendations were developed for the formation of a friendly attitude of the region's hotels to the environment.

Keywords: *tourism, environmental management, hotel, environment, tourism business.*

*Hozirgi kunda ekologik jihatdan inqirozli hudud hisoblangan Orolbo'yi mintaqasida faoliyat ko'rsatayotgan turizm biznesi korxonalari atrof-muhit muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot mavzusining bugungi kundagi dolzarbligini bir qancha jihatlar bilan asoslash mumkin. Birinchidan, Orolbo'yi mintaqasi turistik korxonalarida ekologik menejment mexanizmlarini shakllantirishning zaruriyati, eng avvalo, **BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" maxsus rezolyusiyasiga muvofiq [20, p.3], O'zbekistonda ekotizim, bioxilma-xillik, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ekologik muammolarga e'tiborni qaratgan holda barqaror turizm sohasidagi faoliyatni qo'llab-quvvatlash va kuchaytirishga e'tibor berilayotganligi bilan izohlash mumkin.***

***Ikkinchidan,** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq [10, 1-ilova], Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralari ko'rish, jumladan, Orol dengizi havzasida biologik hilma xillikni saqlash bo'yicha keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu Strategiyaning amalga oshirish natijasida 2030-yilgacha borib, aholi va iqtisodiyotning barcha sohalarini zamonaviy arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish nazarda tutilgan.*

Uchinchidan, Orolbo'yi mintaqasini Ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasi [11, b.1] deb e'lon qilinishi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasi Innovatsiya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Orolbo'yi – ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar" konsepsiyasiga muvofiq, mintaqada ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoitlar yaratilayotganligi, "yashil iqtisodiyot", ekologik toza, energiya va suv tejaydigan texnologiyalar tamoyillarini kompleks tatbiq etish, alohida e'tibor qaratilayotganligi bilan izohlanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yildan yilga mehmonxonalar soni ham oshib bormoqda. Jumladan, 2018-yilda respublika bo'yicha 914 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2019-yilda ularning soni 1188 tani tashkil qilib, 30% ga oshgan [8, c.37]. Aksariyat mehmonxonalar O'zbekistonning muhim turistik

markazlari hisoblangan Toshkent shahri, Samarqand va Buxoro viloyatlarida joylashgan. 2019-yilda Orolbo‘yi mintaqasida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati) faoliyat yuritayotgan mehmonxonalar soni 111 tani tashkil qilib, mamlakat umumiy mehmonxonalar zaxirasini 12 foizini tashkil qilgan [12, b.70].

Orolbo‘yi mintaqasida faoliyat ko‘rsatayotgan turizm biznes korxonalarini, xususan, mehmonxonalarning atrof-muhitga nisbatan do‘stona munosabatlarini shakllantirish yuzasidan tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi Orolbo‘yi mintaqasida joylashgan mehmonxonalarda ekologik menejmentni shakllantirish orqali atrof-muhitga nisbatan do‘stona munosabatini tadqiq qilishdan iborat.

Ilmiy adabiyotlar sharhi

Ekologik menejment - boshqaruv qonuniyatlari va asosiy tamoyillari o‘zida mujassam qilgan (tashkiliy tuzilma, boshqaruv funksiyalari, boshqaruv sikli, boshqaruv strategiyasi, rejalashtirish va h.k.) umumiy menejment tizimining bir qismi hisoblanadi [6, c.768]. Ekologik menejment atrof-muhitni himoya qilish, ekologik parametrlarni tashkiliy-huquqiy ta‘minlashga qaratilgan va jamiyatning barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan boshqaruv tizimi sifatida qarash mumkin. Xorijlik olimlardan N.Paxomova, A.Endres, K.Rixter [3, c.246]lar ekologik menejmentni “korxonani boshqarishni ekologik anglash” ma‘nosida talqin qilganlar. Shuningdek, E.V.Pirusov, S.N. Bobilev, A.L.Novoselov, N.V.Chepurniklarga ko‘ra [4, c.278], ekologik menejment - “ekologik siyosatni ishlab chiqish, tadbiq qilish, bajarilishi va rioya qilinishini ta‘minlaydigan umumiy menejmentning bir qismi” deya izohlaydilar.

O‘zbekistonlik olimlardan T.Doschanov va A.Doschanovlar [1, b.89] “ekologik menejment – inson faoliyatida ekologik madaniyat va ekologik ishlab chiqarishni iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik manfaatlariga uyg‘un holda rivojlantirishning boshqaruv tizimi” deb hisoblaydilar. I.Raxmonov, Z.To‘rayev, Sh.Umidovlar [5, b.98] esa “ekologik menejment turli darajada - korxonadan to umummilliy va global darajalargacha ekologik iqtisodiy munosabatlarni boshqarishning yechimini topishga xizmat qiladigan fandir” deb talqin qiladilar. Shuningdek, iqtisodchi olimlaridan T.J.Jumayev, Z.Y.Hoshimov, O.A.Ro‘ziyevlar [2, b.112] ning fikricha, “ekologik menejment – ishlab chiqarish va iste‘mol jarayonlarining ekologik xavfsizlik darajasini oshirish, resurslarni tejash va ekologik xatarni eng kam miqdorga tushirish usullarini asoslab, quyidagilarni amalga oshirishni ta‘kidlaganlar: a) korxonalarga xarajatlarni aniqlash, yangi ekologik bozorlarni o‘zlashtirish va shu asosda raqobatbardoshlikni oshirish; b) mintaqalar va mamlakatlarga hozirgi va kelgusi avlodlarning manfaatlarini hisobga olgan holda tabiat, atrof-muhit sifatini oshirish; d) tabiatda biologik hilma-xillikni asrash, tabiiy resurslarni muhofazalash.

Chorak asr davomida kechib bo‘lsa ham turizm ximiya, avtomobilsozlik, energetika va sanoatning boshqa sohalari kabi ekologiyalashtirish jarayonlariga qo‘shildi. Turizm xizmatlar sohasining muhim tarmog‘i sifatida atrof-muhitga

o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Agar haqiqatda olib qaraganda, turizm industriyasi moddiy-texnik bazasining yuqori ekanligi, turistlarning hayotiy faolligi natijalari, asosan, turistik faoliyatni ma'lum makonda yig'ilishi ekotizimga o'zining sezilarli natijasini ko'rsatadi. Ma'lum bir chegaralangan makonda ko'pchilik odamlarning to'planishi (shuningdek, tashrif buyurgan mehmonlar) hududning chiqindi va oqava suvlar bilan ifloslanishiga olib keladi hamda katta hajmdagi muammolarni keltirib chiqaradi. Yuqori darajadaga kommunikatsiya yo'llaridagi harakat, transportlarning uzoq masofalarga harakatlanishi natijasida tabiiy muhit ifloslanishni hosil qiladi.

Taniqli olimlar N.Tuxliyev va T.Abdullayevlar turizm sohasining rivojlanishi ko'p omillarga, xususan, ekologik muhit (insonning biologik muhit, suv va yer resurslari muhofazasi, atmosferaning ifloslanishiga ta'sirini hisobga olish) bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berganlar [7, s.36]. Shuningdek, O.Xamidov [9, b.276] ning xulosaga ko'ra, "tabiat majmuasining ekologik barqarorligi va rekreatsion salohiyati hamda xilma-xilligini saqlab qolish maqsadida turizmning salbiy ekologik hamda ijtimoiy-madaniy oqibatlarini mumkin qadar kamaytirish lozimligi ta'kidlaydi".

O'tgan asrning 90-yillari boshlarida rivojlangan xorij mamlakatlarida turistik korxonalarining ekologik boshqaruvi va turizm xo'jalik faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy ishlar chop qilina boshlandi. Atrof-muhitni muhofazasi bilan bog'liq muammolar va korxonalar boshqaruvining zamonaviy tendensiyalariga turizm iqtisodiyotining moslashish masalalari mamlakatimiz olimlari tomonidan juda kam tadqiq qilingan sohalardan hisoblanadi. Umuman, turizm biznesi faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalarda ekologik menejment quyidagicha shakllantiriladi:


- atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlari va turistik korxona maqsadlariga birlashishi kerak;*
- ekologik menejment ekologik jihatlar bilan to'ldirilgan "yangi sifat" mahsulotiga yo'naltiriladi;*
- ekologik menejment konsepsiyasining axborot bazasi o'z tarkibiga atrof-muhit va bozorning holatli tahlilini qamrab oladi;*
- turistik korxonalarining zamonaviy boshqaruvi nafaqat atrof-muhitga moslashishni ko'zlaydi, balki mijozlar, raqobatchilar va hamkorlarning ekologik xatti-harakatlarini oldindan belgilab beradi.*

Turizmda band bo'lgan barcha xo'jalik subyektlari (masalan, sayyohlik firmalari, transport korxonalari, mehmonxonalar, turoperatorlar, agroturistik korxonalar, mintaqaviy turistik uyushmalar, axborot-ta'limiy markazlari va h.k) o'z faoliyatini belgilangan tashkiliy-huquqiy shaklda amalga oshiradilar. Ko'pchilik g'arb mutaxassisleri ekologik menejment turistik korxonaning barcha maqsad va vazifalarini ekologik talablarga moslashishi deya baholaganlar [13, p.1415–1428; 17, p.886-923; 21, p. 965–979]. Ushbu yondoshuv atrof-muhitni himoya qilishga alohida maqsad yoki vazifa sifatida qaramasdan, korxonaning istalgan vazifalarini (kadrlar, ishlab chiqarish, yetkazib berish, logistika, moliyaviy, rejali, tashkiliy va boshqaruv) amalga oshirish orqali barcha

maqsadlariga erishish jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan aniq vazifa sifatida qaraydi.

Turistik korxonalarning ekologik boshqaruvi boshqa tarmoqlar kabi o'z tarkibiga tashqi muhit bilan gorizontal va vertikal aloqalarni (mijozlar, kontragentlar va raqobatilar bilan munosabatalar) qamrab oladi. Bunday yondoshuvlarni “integrallashgan (bir butun, yaxlit holda) ekologik boshqaruv tizimi” va “integrallashgan (bir butun, yaxlit holda) korxonalar boshqaruv tizimi” tushunchalari sifatida uchratish mumkin. Mazkur tushunchalar korxonaning funksional tuzilmasiga ekologik maqsadlarni yaxlit holda birlashtirishni muhim zarurat sifatida ko'rsatadi. Bunday yondoshuv turizmning o'ziga xos jihatlarini aks ettirgan maxsus adabiyotlar o'z aksini topgan [15, p. 562–572].

Mahalliy va xorijiy olimlar ishlarini tadqiq qilgan holda mehmonxonalar boshqaruv tizimi maqsadlarining integratsiyalashgan modelini taklif qildik (1-rasm).



1-rasm. Mehmonxonalar boshqaruv tizimi omillarining integratsiyalashgan modeli

Manba: muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi

1-rasmda keltirilgan turistik korxonalar boshqaruv tizimi maqsadlarining integratsiyalashgan modeli, turizmni atrof-muhitga nisbatan do'stona

munosabatda bo'lishini nazarda tutadi. Ya'ni, turistik korxona o'zining missiyasi va strategiyasini ishlab chiqishda iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik maqsadlarni ham hisobga oladi.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda turistik korxonalar faoliyatiga ekologik menejment tizimini tadbiq qilinishiga quyidagi uchta muhim sababni ko'rsatishimiz mumkin:

- korxonada muvaffaqiyatli sotish imkoniyatlari;*
- xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlari;*
- bozorda o'z o'rnini mustahkamlash imkoniyatlari.*

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning bozordagi muvaffaqiyatining muhim omili sifati ekologik menejmentni shakllantirish hisoblanadi. Turistik korxonalarni atrof-muhit bilan do'stona munosabatlarini shakllanishi, turistik xizmatlarga talabning o'sishi, ekologik mezonlar, davlatning ekologik siyosati doirasida korxonalarga bozor vositalari yordamida ta'sir qilish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish usullarini joriy qilishdan iborat.

Turistik korxonalarda ekologik menejment majmualari ravishda quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Ekostandart - korxona ekologik standartlarga rioya qilishga minimal darajada moslashishi lozim.

2. Ekoaksiya - korxona o'zining tashabbusi bilan, atrof-muhitga nisbatan do'stona munosabatlarni amalga oshiradi.

3. Ekoixtisoslashish - bunda korxona bozordagi ulushini kengaytirish va mijozlar ishonchini oshirishga imkon beruvchi o'zining mahsulotlari sifatini baholash uchun ekologik mezonlarni qo'llaydi [14, p.3455].

So'nggi yillarda turistik korxonalarda, xususan, mehmonxona industriyasida ekologik menejment mexanizmlarini shakllantirishga doir tadqiqot ishlari olib borish jadallashmoqda. Dunyo bo'yicha mehmonxonalarda ekologik menejment 1993-yildan boshlab, turli assotsiatsiyalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, Accor, Forte PLC, Hilton, Holiday Inn, Inter-Kontinental, Sheraton, Konrad Interneshnl, Marriott, Meridiyen, Ramada International Hotels & Resorts, Omni International kabi mehmonxonalar ilk bora ekologik boshqaruv tizimiga o'tib, ekologik tashabbusli xalqaro mehmonxonalar guruhini tashkil qilgan. Oradan bir yil o'tib, Osiyo-Tinch okeani qit'asidan jami 16 ta mehmonxona, ekologik tashabbusli Osiyo-Tinch okeani mehmonxonalar guruhini tashkil qildi [16, p.371-385].

Umuman aksariyat hollarda mehmonxona industriyasi chiqindilarni chiqarishi, suv hamda energiya resurslaridan samarasiz foydalanishi bilan atrof-muhitga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Mehmonxona industriyasida chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, energiyani iqtisod qilish va suv resurslarini tejash ekologik menejmentning muhim masalalaridan biri hisoblanadi [19, p.25-28]. Mehmonxona industriyasi uchun, atrof-muhitga nisbatan do'stona bo'lgan mehmonxonalar (ekootellar) xalqaro darajadagi ko'rsatkichlari o'z ichiga me'moriy qurilishi, obyektlar ekspluatatsiyasi, resurslar iste'moli, sog'liq uchun foydali ekomahsulotlar hamda chiqindilarni


utilizatsiya qilish va qayta ishlash, energiya va suv resurslarini tejash kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi [18, p. 399–408].

Qo‘llanilgan materiallar va uslublar

Tadqiqot ishida, Orolbo‘yi mintaqasi hisoblangan Xorazm viloyatidan 70 ta mehmonxonasi tanlab olinib, ular o‘rtasida mehmonxonalarni atrof-muhitga nisbatan munosabatlarini aniqlash maqsadida ankyeta-so‘rovnomasi o‘tkazildi. Anketa-so‘rovnomasiga asosan, ularning atrof-muhitga do‘stona munosabatlarini qanday amalga oshirishi, mehmonxonalarni atrof-muhitni himoya qilishda qo‘llaydigan asosiy chora-tadbirlari, atrof-muhitni himoya qilishda manfaatdor tomonlarning o‘rni va roli, mehmonxonalarning ekologik aksiyalarda ishtirok qilishi, muqobil energiya manbalaridan foydalanishi va boshqa shu kabi savollardan iborat bo‘ldi.

Natijalar:


Anketa so‘rovnomasi asosida olingan natijalarga muvofiq mehmonxonalarning atrof-muhitni himoya qilishning asosiy choralari sifatida 43% respondent suvni tejashi, 40% respondent energiyani tejashi hamda 33% respondent boshqa choralarni ko‘rishlarini bildirganlar (1-diagramma).



1-diagramma. Atrof-muhitni himoya qilish muhim choralari.

Manba: muallifning anketa-so‘rovnomalari natijalari.


Shuningdek, mehmonxonalarning atrof-muhitga nisbatan do‘stona munosabatini shakllantirishda manfaatdor tomonlarning o‘rni to‘g‘risidagi savolga 47% respondent atrof-muhitni himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda hukumatning, 35% respondent iste‘molchilarning va 18%i mehmonxona xodimlarining muhim rol o‘ynashini bildirganlar (2-diagramma).



2-diagramma. Atrof-muhitni himoya qilishda manfaatdor tomonlarning roli.

Manba: muallifning anketa-so'rovnomalari natijalari.


Tadqiqot ishida Orolbo'yi mintaqasida joylashgan mehmonxonalarda muqobil energiya manbalaridan (quyosh panellari) foydalanish darajasi ham o'rganildi. Umumiy respondentlarning 17%i o'zining foaliyatida quyosh panellaridan foydalanishini, 83%i esa endi qo'llash niyatida ekanligini bildirganlar (3-diagramma).



3-diagramma. Muqobil energiya manbalaridan foydalanishi.

Manba: muallifning anketa-so'rovnomalari natijalari.

Shuningdek, Orobo'yi mintaqasidagi mehmonxonalarning atrof-muhit uchun foydali bo'ladigan aksiyalarda ishtirok qilishi bilan bog'liq savol so'ralganda, respondentlarning 33%i bunday aksiyalarda qatnashmaganligi, ammo endi qatnashish xohishi bor ekanligini, 28% respondent tashkilot sifatida, 25% respondent homiy sifatida, 8% respondent kuzatuvchi sifatida hamda 6% respondent bunday aksiyalarda ishtirok qilishi ko'zda tutilmaganligini bildirganlar (4-diagramma).



4-diagramma. Mehmonxonalarni atrof-muhit uchun foydali bo'ladigan aksiyalardagi ishtiroki.

Manba: muallifning anketa-so'rovnomalari natijalari.

Muhokama va tavsiyalar

Tadqiqotlarimiz natijasida mamlakatimizning ekologik inqirozli hisoblangan Orolbo'yi mintaqasida mehmonxonalarning atrof-muhitga nisbatan do'stona munosabatini shakllantirish zaruriyat ekanligi aniqlandi. Yuqorida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Orolbo'yi mintaqasi mehmonxonalari ekologik menejment mexanizmlarini joriy qilish va atrof-muhitga nisbatan do'stona munosabatini shakllantirishda quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqildi:

1. Turizm va madaniyat vazirligi tomonidan mintaqada mehmonxonalari xodimlari uchun muntazam ravishda atrof-muhitni himoya qilish chora-tadbirlari bo'yicha o'quv seminarlarini tashkil qilish.

2. Xalqaro tajribalarga asoslanib, mehmonxonalarni atrof-muhitni rag'batlantirish tizimini tartibga soluvchi qonunchilik mexanizmlarini takomillashtirish.

3. Energiya va suvni tejaydigan arzon uskunalarni yetkazib berish va uni o'rnatish uchun mehmonxonalarga subsidiyalar berish.

4. Mehmonxonalar o'zlarining biznes rejalariga ekologik barqarorlikni belgilovchi ko'rsatkichlarni kiritishi lozim.

5. Mintaqada quyoshli kunlarni ko'pligini hisobga olgan holda, mehmonxonalarga quyosh panellarini o'rnatish lozim.

6. *Mehmonxona menejerlari va xodimlari o'zaro faol hamkorlikda ishlab, "4R" tamoyiliga rioya qilishlari lozim bo'ladi. Bunda:*

➤ *"Reducing" (kamaytirish) - mehmonxonalar belgilangan iqtisodiy maqsadlarga erishishi uchun energiya va xomashyo resurslaridan kam*

foydalanishi talab qilinadi, shu bilan bir vaqtda, xarajatlar va chiqindilarni kamaytirish hisobiga atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadi;

➤ *“Reusing”(qayta foydalanish) – mehmonxonadan buyumlarni qayta-qayta foydalanishni hamda xizmat ko‘rsatish standartlarini pasaytirmasdan iloji boricha ko‘proq ishlatishni talab qiladi;*

➤ *“Recycling”(qayta ishlash) mehmonxonadan ba’zi buyumlarni qayta ishlashtirishni talab qiladi va ularni foydalanish mumkin bo‘lgan resurslarga aylantirishi lozim;*

➤ *“Replacing” (o‘zgartirish) mehmonxonalarga muqobil ekologik toza materiallardan foydalanishni tavsiya qilinadi.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doschanov T., Doschanov A. *Ekologik menejment –ijtimoiy-iqtisodiy tadbirkorlik boshqaruvining muhim omili // 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanlari. Urganch, 2017. 89-b.*

2. Jumayev T.J., Hoshimov Z.Y., Ro‘ziyev O.A. *Ekologik menejment (O‘quv qo‘llanma) – Toshkent, 2004., 112-b.*

3. Рахимова N., Endres A., Rixter K. *Экологический менеджмент. Учебное пособие. Спб.: Питер*

4. Pirusov E.V., Bobilev S.N., Novoselov A.L., Chepurnik N.V. *Экология и экономика природопользования. -М., 2002. С.278.*

5. Raxmonov I., Turayev Z., Umidov Sh. *Ekologik boshqaruv sohasidagi xalqaro standartlar // Agrosanoat majmui tarmoqlarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish muammolari// universitetlararo yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent – 2012. 98-b.*

6. Серов G.P. *Экологический аудит. Концептуальные и организационно-правовые основы. М.: Экзамен, 2005. 768 s.*

7. Tuxliyev N., Abdullayeva T. *“Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития” – Toshkent: O‘zbekiston, 2006. – s. 36.*

8. Туризм в Узбекистане-2019. Информационно-аналитический отчёт. с.37.

9. Xamidov O. *O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent -2017. 276-b .*

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 -2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarori, 1-ilova (<https://lex.uz/docs/4539502>).

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 24-avgustdagi Turkmanboshi shahrida Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlat rahbarlari kengashining majlisidagi nutqi. “Xalq so‘zi” 2018-yil 25-avgust, №173 (7131). 1-bet.

12. O‘zbekistonda turizm (2016-2019). O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari - Toshkent, 2020. B.70.

13. Alonso-Almeida, M.M.; Robin, C.F.; Celemín-Pedroche, M.S.; Astorga, P.S. Revisiting green practices in the hotel industry: A comparison between mature and emerging destinations. *J. Clean. Prod.* 2017, 140, 1415–1428. [CrossRef]

14. Bauer, D.; Arnold, J.; Kremer, K. Consumption-Intention Formation in Education for Sustainable Development: An Adapted Model Based on the Theory of Planned Behavior. *Sustainability* 2018, 10, 3455.

15. Choi, H.M.; Kim, W.G.; Kim, Y.J.; Agmapisarn, C. Hotel environmental management initiative (HEMI) scale development. *Int. J. Hosp. Manag.* 2019, 77, 562–572

16. Chan, W. and Lam, J. (2001) 'Environmental accounting of municipal solid waste originating from rooms and restaurants in the Hong Kong hotel industry, in Kaye, K.S. and Chon (Eds.): Journal of Hospitality and Tourism Research, Vol. 25, pp.371–385.

17. Chan, E.S.W. and Hsu, C.H.C. (2016), "Environmental management research in hospitality", International Journal of Contemporary Hospitality Management, Vol. 28 No. 5, pp. 886-923.

18. Coles, T.; Dinan, C.; Warren, N. Energy practices among small- and medium-sized tourism enterprises: A case of misdirected effort? J. Clean. Prod. 2016, 111, 399–408

19. Pitman Publishing, London. F. Kotler, P., Bowen, J. and Makens, J. (1999) Marketing for Hospitality and Tourism, 2nd ed., pp.25–28

20. UzDaily. UN General Assembly Adopts a Special Resolution "Sustainable Tourism and Sustainable Development in Central Asia". Available online: <https://uzdaily.uz/en/post/53803> (accessed on 1 November 2020)

21. Zaid, A. A., Jaaron, A. A. M., Bon, A. T. (2018). The impact of green human resource management and green supply chain management practices on sustainable performance: An empirical study. Journal of Cleaner Production, 204, 965–979.

TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORINI IQTISODIY KATEGORIYA VA TUSHUNCHALARI MOHIYATI VA MAZMUNI



**Dilshod
XUDAYBERGANOV**

**Iqtisodiyot fanlari
nomzodi,
Urganch davlat
universiteti dotsenti.**

UDK 339.1

Annotatsiya. Ushbu maqolada tovarlar va xizmatlar bozori, uning tarkibidagi iqtisodiy kategoriya va tushunchalarning mohiyati va mazmuni yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar. Bozor, tovarlar va xizmatlar bozori, tovarlar bozori, xizmatlar bozori, ulgurji savdo, chakana savdo, tashqi savdo.

Аннотация. В статье описаны сущность и содержание рынка товаров и услуг, его экономические категории и понятия.

Abstract. This article describes the nature and content of the goods and services market, its economic categories and concepts.

Ключевые слова. Рынок, рынок товаров и услуг, рынок товаров, рынок услуг, оптовая торговля, розничная торговля, внешняя торговля.

Keywords. Market, market of goods and services, market of goods, market of services, wholesale trade, retail trade, foreign trade.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari rivojlanayotgan innovatsion va raqamli iqtisodiyot islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yoʻlida tez va sifatli ilgarilashini taʼminlaydigan zamonaviy tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, uning hajmini

oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmonida (1) juda muhim ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi.

Bozorlar faoliyati iqtisodiyotning muhim yo'nalishi sifatida aholining turmush farovonligi va hayot darajasini yaxshilash bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jihat iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini taqozo etadi. Bunday muhim omilga erishish uchun ushbu jarayon, tushuncha va ularni ifodalovchi iqtisodiy kategoriyalarning ilmiy-nazariy masalalarini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Buning uchun birinchi galda tovar va xizmatlar bozorining va ular bilan bog'liq tushunchalarning nazariy masalalariga alohida ahamiyat berilishi lozim.

Olimlar qarashlarida bozor unsuri bo'lgan tovarlar va xizmatlarga oid turli iqtisodiy kategoriyalarga izoh berilgan. Bozor – bu sotuvchi va xaridorlarning tovarlarini pul vositasida ayirboshlash yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlardir. Bozor orqali turli harakatlar amalga oshiriladi va natijada iqtisodiy munosabatlar sodir etiladi. Bozor – iqtisodiy kategoriya sifatida xaridorlar va sotuvchilar hamda tovarlar va pul harakati bo'yicha savdo vositachilari o'rtasidagi muayyan iqtisodiy munosabatlar majmui bo'lib, u bozor munosabatlari subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini aks ettiradi va mehnat mahsulotlari ayirboshlanishini ta'minlaydi.

Bozor – individual tovar va xizmatni xaridorlar va sotuvchilar o'rtasida almashinuvni ta'minlaydigan jarayonlar va qoidalar to'plamidir. Bozor orqali iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari ta'minlanadi. Bozor sivilizatsiyali taraqqiyot mahsuli bo'lib, u inson iqtisodiy faoliyatining yuqori cho'qqisidir (2).

Bozorlar alohida subyekt, kategoriya va soha sifatida turli mezon va belgilar asosida faoliyat yuritadi. Bunday holatda bozorlar tizim sifatida iqtisodiyotning rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bozorlar tizimi – turli-tuman mezonlar asosida alohida unsurlarga ajratilgan barcha bozorlar majmuidir (3). Shu bois, bozorlar quyidagi qismlarga ajratib o'rganiladi: tovar bozori, xizmat bozori, tovarlar va xizmatlar bozori. Ushbu bozorlar yakka va birlashgan holda faoliyat yuritishi mumkin.

Yuqoridagi qarashlarni tadqiq qilib, masalaning obyektiv zaruriyatdan kelib chiqib, olimlarning ushbu mavzu bo'yicha qarashlarini inobatga olgan holda bugungi innovatsion va integratsion iqtisodiyot sharoitidan kelib chiqib, quyidagi tushunchalar shakllantirirdi (1-jadval).

1-jadval. Tovarlar va xizmatlar bozori bilan bog‘liq iqtisodiy kategoriya va tushunchalar mohiyati¹

T/r	Iqtisodiy kategoriya va tushunchalar nomlari	Tovarlar va xizmatlar bozori bilan bog‘liq iqtisodiy kategoriya va tushunchalarning mazmuni
1.	Bozor	Sotuvchi va xaridorlar o‘rtasida tovarlar (xizmatlar kablar)ni pul vositasida ayirboshlash jarayonida kelib chiqadigan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar majmui tushuniladi.
2.	Tovarlar bozori (savdo)	Tovarlar bozorida sotuvchi va xaridorlar o‘rtasida faqat tovarlarni pul vositasida ayirboshlash jarayonida kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar majmui tushuniladi.
2.1.	Ulgurji (ko‘tara) savdo	Korxonaning o‘zlari ishlab chiqargan va katta hajmda eksport qilingan tovarlarni qayta sotish uchun katta hajmda sotiladigan va sotib olinadigan tovarlar majmui tushuniladi.
2.2.	Chakana savdo	Chakana savdo deganda sotuvchi tomonidan xaridorning talabiga qarab, donalab, maydalab yoki kichik hajmda iste‘mol uchun sotish jarayoni tushuniladi.
2.3.	Tashqi savdo	Tashqi savdo deganda bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdo munosabatlarining (eksport va import) amalga oshirilishi tushuniladi.
3.	Xizmatlar bozori	Xizmatlar bozori deganda, xizmatlar iste‘molchilari va xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq sodir bo‘ladigan jarayonlar tushuniladi.
4.	Tovarlar va xizmatlar bozori	Tovarlar va xizmatlar bozori deganda, iste‘molchilar (xaridorlar) va sotuvchilar (xizmat ko‘rsatuvchilar) o‘rtasida sodir bo‘ladigan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Bozorda sotuvchi va xaridorlar o‘rtasida tovarlar va xizmatlarni ayirboshlash va foydalanish nuqtayi nazaridan mavzuga oid ikkita tushunchaning tovarlar va xizmatlarga oid bozorni alohida qarab chiqish ham maqsadga muvofiq.

Tovarlar bozori keng tarqalgan tushunchadir. Ular mahalliy ishlab chiqarish sharoitlariga moslashgan iste‘mol obyektiga ega bo‘ladi va iste‘mol bozori konsepsiyasini shakllantiradi. Shundan kelib chiqib, iste‘mol bozori – bu shaxsiy iste‘mol uchun mo‘ljallangan tovarlar va xizmatni sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida ularni sotib olish jarayonida paydo bo‘ladigan ma’lum bir hududdagi

¹ Muallif ishlanmasi.

iqtisodiy munosabatlar tizimidir (4). Mazkur ta'rif asosida mintaqaviy iste'mol tovarlari bozoriga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar hisobga olinadi. Iste'mol bozori tovar bozorining bir qismidir.

Tovarlar bozori – tovar ko'rinishidagi tovar-pul munosabatlari amalga oshiriladigan cheklangan joy sifatida qaraladi. Bozorda ishlash mexanizmining asosiy tarkibiy qismlari talab, taklif, narx va raqobat kabi unsurlarni o'z ichiga oladi. Tovarlar bozorlarida tovar ayirboshlanadi. Shu bois, bozor turli munosabatlardan iborat bo'lgan iqtisodiy aloqalar tizimidir. Bunga ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi, aloqa shakli ko'rinishidagi (sotib olish va sotish), ishlab chiqaruvchilar yoki iste'molchilar guruhlarida ichidagi hamda raqobatga asoslanuvchi aloqa shaklidagi iqtisodiy munosabatlar kiradi.

Tovarlar bozori tarkibi oziq-ovqat va nooziq-ovqat bozori guruhlaridan iborat bo'ladi. Tovar bozorining obyekti iste'mol tovarlari shaklida individual iste'mol qilish uchun mo'ljallangan bozorga kiritilgan mahsulotdir. Tovarlar bozorining subyektlari sifatida talabni amalga oshiruvchilar, ya'ni iste'molchi yoki tashrif buyuradigan aholi, shuningdek, uni yetkazib berish uchun mahalliy iste'mol bozori subyektlari, ya'ni tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar mavjud bo'ladi. Tovarlar bozori infratuzilmasi subyektlari chakana savdo sohasidagi korxona va yakka tadbirkorlar hamda ulgurji savdo korxonalari bo'lib hisoblanadi.

Bozorning tovarlar bozori turi bilan birgalikda xizmatlar bozori ham mavjud bo'lib, tovarlar va xizmatlar bozorining zamonaviy shaklini tashkil etadi va uning asosida xizmatlar sohasini taraqqiy qildirish belgilanadi. Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tez rivojlanuvchi va kelajakdagi sohalaridan biri hisoblanadi. Xizmat – faoliyatning natijasi bo'lib, olinadigan samarani ifodalaydi va kishilarning talablarini qondirishga xizmat qiladi. Xizmat yetkazib beruvchi (ijrochi) va iste'molchi o'rtasidagi bevosita o'zaro munosabatlar, shuningdek, iste'molchi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha yetkazib beruvchi faoliyati natijasidir (5).

Xizmatlar bozori o'z ichiga xizmatlar sohasida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlarni oladi. Ushbu munosabatlar uchun tovar, kapital va ishchi kuchi bozorlari ishlab chiqarish omillari zarur hisoblanadi. Xizmatlar bozori tovar, kapital va ishchi kuchi bozorlaridan iborat bo'ladi. Bozorda xizmatlar quyidagi sohalarini o'z ichiga oladi: transport, aloqa, savdo, moddiy-texnika ta'minoti, maishiy, uy-joy kommunal xizmatlari, moliya, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat va san'at, shuningdek, axborot va hisoblash, muhandislik yuridik va konsalting, birja va vositachilik xizmatlari, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, ijara va lizing xizmatlari, bozorni o'rganish bo'yicha xizmatlar, marketingni tashkil etish, sifat nazorati, sotishdan keyingi xizmat va boshqalar.

Xizmatlar bozori – birgalikdagi tovarlar va xizmatlardan iborat bozor turidir. Ushbu bozorda sotish obyektlari turli xil xizmatlar - eng oddiy turidan eng murakkabiga qadar bo'lib hisoblanadi. Moddiy ko'rinishdagi tovarlar bozori va xizmatlar bozorini bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ya'ni xizmatni sotish yoki uni taqdim etish jismoniy tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'ladi va aksincha xizmatni sotib olish va sotish jarayonida "sotuvga" ega bo'lib, tovarga aylanadi. Xizmatlar

bozori - turli xil xizmatlarni sotib olish va sotish bilan bog‘liq holda xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

Tovarlar va xizmatlar bozori mintaqaviy bozorlar shaklida faoliyat yuritib, bu yerda ushbu bozor ma‘lum bir hududda joylashgan har xil turdagi o‘zaro bog‘liq bozorlar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Mintaqaviy bozor deganda tovar aylanmasining hududiy ulushi tushuniladi. Mintaqaviy bozor ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar manfaatlari muvofiqlashtiriladigan hududiy tashkil qilishni ifodalaydi. Mintaqaviy bozor aholining turli xil tovarlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda turli xizmatlarni ko‘rsatish orqali samaradorlikni oshirishni belgilaydi.

Mamlakatda tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmi tovarlar va xizmatlar bozorida hisobga olinadi. Tovarlar va xizmatlar bozorining quyidagi funksiyalari mavjud:

- uy xo‘jaliklarining ehtiyojlarini qondirish;
- biznes sektori tomonidan daromadlarni shakllantirish;
- jamoat mahsulotlarini yaratish;
- yalpi milliy mahsulot hajmini oshirish.

Tovarlar va xizmatlar bozorida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan zarur ko‘rsatmalar mavjud bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlar orqali namoyon bo‘ladi:

- mulkchilik shakllarini amalga oshirish (xususiy, kooperativ, aksiyadorlik va davlat);
- davlat tomonidan tartibga solish vositalarini qo‘llab-quvvatlagan holda ishlab chiqarishni erkinlashtirish.

Xulosa shuki, tovarlar va xizmatlar bozori iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadigan iqtisodiyotning yirik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu bozorni rivojlantirish tovarlarni ishlab chiqarib, ularni ayirboshlash jarayonini jadallashtirish va eng maqbul xizmatlarni ko‘rsatish tizimlarini yaratishni taqozo qiladi. Bozorda birinchi ob‘ekt tovar bo‘lsa, ikkinchi ob‘ekt xizmat hisoblanadi. Tovarlar va xizmatlar bozori mazkur bozor turining bir-biriga nisbatan munosabatlari amalga oshiriladigan, ya‘ni birinchidan tovarlarni ishlab chiqarish, ularni sotish va iste‘molchining shaxsiy iste‘molini ta‘minlashga xizmat qilsa, ikkinchidan turli xizmatlarni ko‘rsatish, ularni ayirboshlash, servisni shakllantirish va iste‘molchilar tomonidan ehtiyoj sifatida qabul qilinishi jarayonlarini o‘zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/3913188>
2. Rasulov M.R. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. // So‘zboshi. S.S.G‘ulomov. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 380-b.
3. Egamberdiyev F.T., Topildiyev S.R., Hamroqulov J.X. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2014. – 50-b.

4. Tarasova Y.Y., Kadaskaya D.V. Theoretical Aspects and Methodological Approaches to Sales Services Quality Assessment. // Journal of Internet Banking and Commerce, Nov. 2015, vol.20, no.S1. Special Issue: Information Services and Retail Sales: Strategies, particularly Methods, Security. - p.1-13.

5. Nikolayeva M. A. Маркетинг товаров и услуг: Учебник. - М.: Издательский Дом “Деловая литература”, 2001. - 140 с.

XORAZM VILOYATIDA BALIQCHILIK SOHASI XO‘JALIKLARIDA BALIQ MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

UDK 639.2



**Maqsuda
AMINOVA**

**Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori (PhD),
Urganch davlat
universiteti dotsenti.**



**Nigora
MATMURATOVA**

**Urganch davlat
universiteti
magistranti.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyatida baliqchilik sohasi xo‘jaliklarida baliq mahsulotlarini yetishtirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Аннотация. В статье освещены специфические особенности производства рыбы в рыбоводческих хозяйствах Хорезмской области.

Abstract. This article highlights the specific features of fish production in fisheries farms in Khorezm region.

Kalit so‘zlar. Suv resurslari, akvakultura, baliq bozorlari, kommunikatsiya faoliyati, fermer xo‘jaligi, uy xo‘jaligi.

Ключевые слова. Водные ресурсы, аквакультура, рыбные рынки, коммуникационная деятельность, сельское хозяйство, домашнее хозяйство.

Keywords. Water resources, aquaculture, fish markets, communication activities, agriculture, household.

Xorazm viloyati qulay iqtisodiy-geografik joylashuvi, tabiiy va mehnat resurslari mavjudligi bu yerda baliqchilikni rivojlantirish uchun qulay shart-

sharoitni yaratadi. Baliq xo‘jaligi majmuasini sanoat sifatida rivojlantirishning boshlanishi “Xorazmbaliqsanoat” MCHJ ning tashkil etilishi bilan bevosita bog‘liq. Baliq mahsulotlari yetishtirishni jadallashtirish nafaqat sohaning rivojlanishi va uning sezilarli darajadagi iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilgan. Bu yerda baliqchilik sohasidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyati va davlat manfaati uyg‘unligini ta‘minlash juda ham muhim masaladir. Viloyatda baliq mahsulotlari bozorida marketing faoliyatini yo‘lga qo‘yishning eng muhim tarafi ushbu sohaning strategik parakteri bilan izohlanadi. Shu bilan bir qatorda, bu boradagi izlanishlar murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu asosan Xorazm viloyati baliq mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarining zamonaviy qurollari, afzalliklarini kengroq tatbiq etish uchun tabiiy, iqtisodiy va institutsional xarakterdagi tadbirlarni amalga oshirish bilan belgilanadi. Ayniqsa, bu jarayonda baliq xo‘jaligi uchun juda ham zarur bo‘lgan, usiz baliq xo‘jaligini mavjud bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan obyekt, bu suv resursidir. Iqtisodiy faoliyat, xususan, baliq mahsulotlarini yetishtirishda suv resurslari katta ahamiyatga ega bo‘lib, bunda ijara asosida baliq xo‘jaliklari va tadbirkorlarga berilgan suv havzalari va maydonlarida yetishtiriladigan baliq mahsulotlari jami yetishtirilgan baliqlarning asosiy qismini tashkil qiladi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini barqarorlashtirish ko‘p jihatdan mavjud sug‘orma dehqonchilik va suv resurslari salohiyatidan samarali foydalanish darajasiga bog‘liqdir. Respublika bo‘yicha yerlarni sug‘orish uchun yiliga o‘rtacha 55-60 mlrd. m³ suv talab etiladi. Bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo respublikalarida iste‘mol qilinadigan suvning deyarli yarmiga tengdir. Respublikada foydalanadigan suvning 80 foizi qo‘shni davlatlar hududidan oqib kelishini, shuningdek, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida transchegaraviy suv resurslarini taqsimlash va undan foydalanishda yuzaga kelgan mavjud muammolarni inobatga oladigan bo‘lsak, cheklangan suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Markaziy Osiyoning jug‘rofiy joylashgan o‘rni, uning arid iqlimi, ya‘ni havoning o‘ta quruqligi, yozning issiq va yog‘insiz bo‘lishi, qishning ham sovuq kelishi, ya‘ni iqlimning keskin kontinental ekanligi va o‘simliklar vegetatsiyasi davrida atmosfera yog‘inlari yetarli bo‘lmasligi bu yerda sun‘iy sug‘orish bilan madaniy dehqonchilik olib borishni taqozo etgan. Mamlakatimizda sug‘orma dehqonchilik tarixi juda uzoq o‘tmishga borib taqaladi va u qariyb 10 ming yillik tarixga ega. Sug‘orish va u bilan bog‘liq kanallar va inshootlar qurilish ishlari Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari vodiylarida olib borilgan. Eramizdan avvalgi VII-IX asrlarda qadimgi Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazm davlatlari, Farg‘ona vodiysida sug‘orish ishlari olib borilganligi, sug‘orish tarmoqlari, suv to‘plash inshootlari qurilganligini tarixiy ma‘lumotlardan bilish mumkin. Suv resurslarining barchasi faqat chuchuk va o‘rtacha minerallashtirgan suvlardan iborat bo‘lmay, iqtisodiy bosqichlarda o‘zgarib turadigan barcha chuchuk va o‘rtacha minerallashtirgan yer osti va usti suvlaridan ham iboratdir. Shuningdek, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, shu jumladan, qishloq xo‘jaligida

ishlatilayotgan va ishlatilishi mumkin bo'lgan suv manbalarining yig'indisidan tashkil topgan.

O'zbekiston uchun suv resurslari muammolari milliy va xalqaro kun tartibida muhim o'rin tutadi va ayniqsa Xorazm viloyati uchun dolzarbdir. Suv inson faoliyatining barcha sohalari uchun zarur bo'lgan va barcha turdagi ekotizimlarning ishlashini ta'minlaydigan tabiiy resursdir. Miqdoriy jihatdan suv iqtisodiyotda eng ko'p ishlatiladigan tabiiy resurs hisoblanadi. Suv resurslari atrof-muhitning deyarli barcha funksiyalarini bajaradi. Ulardan ozod qilish (maishiy, sanoat foydalanish, sug'orish va boshqalar uchun) yoki ozod qilinmasdan (suv transporti, elektr energiyasini ishlab chiqarish, dam olish, baliq ovlash va boshqalar), shuningdek, chiqindilar va issiqlik uchun qabul qilgich bilan foydalanish mumkin. Iqtisodiy faollikning o'sishi bilan suv cheklangan manbaga aylanmoqda va undan foydalanish bir-biri bilan raqobatlashmoqda hamda suv to'plash va oqava suvlarni oqizish ham raqobatdosh bo'lishi mumkin. Natijada, iqtisodiy faoliyatning har xil turlarida undan oqilona foydalanish to'g'risida qaror qabul qilish zarurati tug'iladi. O'zbekistonning asosiy suv zaxirasi yer ustki suv resurslariga asosan tog'lardan oqib tushadigan Amudaryo va Sirdaryodan hamda ularning irmoqlaridagi mayda va o'rtacha daryolarning suvlari, shuningdek, yer osti suv manbalaridan tarkib topadi. Amudaryoning yillik suv oqib o'tish qobiliyati $78,34 \text{ km}^3$ ni tashkil etib, uning atigi 5,14 mlrd. kubometri O'zbekiston hududida dehqonchilik va boshqa ehtiyojlarga sarflanadi. Sirdaryoning yillik suv oqish qobiliyati esa $36,06 \text{ km}^3$ bo'lib, uning atigi 6,39 mlrd. kubometri O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligi uchun foydalaniladi.

Xorazm viloyati suv resurslarining umumiy xususiyatlarini inobatga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, umuman olganda viloyatda kelajakda suvning hozirgi va kutilayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qayta tiklanadigan yer usti va yer osti suvlarining yetarli manbalari mavjud. Viloyat suv resurslarining o'ziga xos xususiyati ularning Amudaryo va Sirdaryo havzalariga tegishli ekanligi bo'lib, ular qo'shni davlatlar bilan yaqin hududiy va iqtisodiy aloqalar, muayyan xalqaro majburiyatlarni bajarish zarurligini belgilaydi. Suv resurslari iste'moli atrof-muhitga ko'rsatiladigan bosimni suv sarfi ko'rsatkichini tavsiflash orqali aniqlash mumkin. Suvni iste'mol qilish tarkibini iqtisodiy faoliyat turlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Hozirgi vaqtda viloyatda baliqchilik sohasidagi faoliyat turli mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Tabiiy suv havzalari baliqchilik xo'jaliklariga ijara asosida berildi. Baliq ovlash mahalliy hokimiyatlar bilan 10 yildan ortiq muddatga ijaraga olingan korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Fermer xo'jaliklari mavjud biologik resurslar va talabdan kelib chiqqan holda kvotasiz bepul baliq ovlashadi. Ular suv havzalarining mahsuldorligini saqlab qolish va baliq resurslarini kerakli darajada ko'paytirishni ta'minlash choralari ko'rishlari kerak. Baliq ovlash nuqtayi nazaridan suv havzalarining ikki guruhi alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning birinchisi umumiy maydoni 97000 gektar bo'lgan Amudaryo deltasi bo'lib, yiliga 1500 tonna baliq yetishtirib beradi; ikkinchisi, Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan Aydar-Arnasoy ko'llari tizimi, yiliga 1600-2300 tonna baliq yetkazib beradi.

Akvakultura viloyatda baliqchilik sohasining eng muhim va istiqbolli sohasidir. Bugungi kunga qadar mamlakatda faqat bitta akvakultura tizimi rivojlangan, ba'zi yangi mulkdorlar zamonaviy texnologiyalarni qayta tikladilar va endi fermer xo'jaliklari baliq yetishtirishda yaxshi natijalarni ko'rsata boshladilar. Baliq yetishtirishda tabiiy va sun'iy suv havzalarning ahamiyati sezilarli bo'lib, baliqchilik tarmog'ining barqaror rivojlanishida suv resurslaridan tabiiy havzalarda yetishtiriladigan baliqlarning hissasi juda kattaligi bilan uning ahamiyati yuqori ekanligi ko'rinib turibdi. Bu suv resurslari boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining tarkibiy qismlarini shakllantirish va ulardan foydalanish darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning mohiyati baliq mahsulotini yetishtirishda iqtisodiy va davlat munosabatlari institutlarini boshqarish va uni tartibga solish tizimini yo'lga qo'yilishiga zamin yaratadi. Mazkur jarayonda viloyat suv resurslaridan samarali foydalanish baliq mahsulotlari bozorini zamon talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi va bu sohada marketing faoliyatini tashkillashtirish bilan bog'liq. Bu jarayon, birinchi navbatda mahsulot assortimentida seziladi. Baliq mahsulotlari assortimentining barcha turlari bilan o'sish bo'lsa-da, sazan, do'ngpeshona va boshqa baliq turlari ko'proq yetishtirilgan ekan. Baliq mahsulotlari assortimenti iste'mol talabini shakllantirishdagi ta'siri ikki jihatdan ko'zga tashlanadi, ya'ni tovar ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi xo'jaliklarda aholining bandligini oshiradi, tabiiyki, bu hol kishilarning pul daromadlarini ham oshiradi. Shu bilan birga, u aholining talablarini qondirishning moddiy asosi sifatida tovar taklifi hajmini oshiradi.

Viloyatda aralash va baliq bozorlari orqali sotish hajmini ortishi kuzatilmoqda. Bu yerda bir tomondan aholining kam ta'minlangan qatlamini, nisbatan arzon sotilayotgan tovarlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish darajasi ortib borsa, boshqa jihatdan, turg'un holatdagi chakana savdo shoxobchalari xaridorlari sonini boshqa savdo shakllaridan foydalanish hisobiga kamayishi sodir bo'lmoqda va bu o'z navbatida chakana savdo shoxobchasidan xarid qilinadigan tovarlar miqdorini bildiradi. Buning natijasida rasmiy hisobga olinadigan chakana tovar aylanmasi miqdori kamayadi va soliq organlariga kelib tushadigan soliq tushumlarini ham kamayishiga olib keladi. Viloyatda baliq mahsulotlari bozori va marketingni boshqarishning muayyan funksiyalari maxsus funksiyalardan tarkib topgan bo'lib, hozirgi paytda ko'pgina xo'jaliklar o'z faoliyatlarini rejalashtirmaydilar va buni savdodagi vaziyatning haddan tashqari tez o'zgarib turishi sababli reja tuzishdan hech qanday foyda yo'q deb izohlaydilar. "Har qanday rejalashtirishning zamirida strategik rejalashtirish yotadi, uning maqsadi esa uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash uchun korxonaning strategik tanlovini aniq va izchil yoritib berishdan iborat"(1).

Hozirgi paytda viloyat baliqchilik xo'jaligining o'z mikromuhiti mavjud bo'lib, u tashkiliy tarkib va uni boshqarish usuliga bog'liq bo'ladi. Xo'jalikning mikromuhiti tarkibiga uning atrofidagi ishlab chiqarish, tijorat va bozor munosabatlari orqali chambarchas bog'liq bo'lgan omillar kiradi. Bunday omillar qatoriga yetkazib beruvchilar, marketing vositachilari va mijozlar kiradi. Yetkazib beruvchilar korxonaning mahsulot ishlab chiqarishi va xizmat

ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar bilan ta'minlaydi. Yetkazib beruvchilar ixtisoslashgan korxonalar va alohida shaxslar ham bo'lishi mumkin. Yetkazib beruvchilar korxonaning ishlab chiqarish faoliyatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

“Kommunikatsiyalar faoliyati yoki boshqacha qilib aytganda, rag'batlantirish majmuasi quyidagi to'rtta asosiy ta'sir ko'rsatish vositalaridan iborat: reklama, savdoni rag'batlantirish, targ'ibot va shaxsiy savdo. Korxonalar reklama faoliyatini tashkil qilishga turlicha yondashuvlari mumkin: kichik korxonalarda reklama faoliyati bilan bir kishi shug'ullanishi mumkin, yirik korxonalarda bu ish bilan shug'ullanish uchun alohida reklama bo'limi tashkil qilish kerak bo'ladi”(2). Viloyat miqyosida amalga oshirilgan institutsional islohotlar jarayonida shahar va qishloq aholisi uy xo'jaliklari rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimi shakllandi. Unga muvofiq, uy xo'jaliklariga qo'shimcha yer maydonlari ajratish, kam ta'minlangan oilalar uchun qoramollar va pul mablag'lari hamda yosh oilalarga uy-joy berish yo'lga qo'yilgan. Natijada, mamlakat bo'yicha uy xo'jaliklari soni hamda daromadlari keskin ko'paydi, ayniqsa, ularning tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi tezlashdi. Uy xo'jaliklari sonining oshishi ularga yakka tartibda uy-joy qurish hamda dehqon xo'jaligi yuritish uchun ajratib berilayotgan tomorqa yerlarini ko'payishiga olib kelmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, viloyatda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga e'tibor kuchayishi, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi o'sishi bilan bir vaqtda fermerlarning respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmidagi ulushi ham oshib bormoqda. Shu tufayli, uy xo'jaliklarining dehqonchilikdagi ulushi pasayishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Uy xo'jaliklari chorva mollari va parrandalarning bosh soni hamda mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'rnining yuqori darajasi saqlanib qolmoqda. Bu jarayon baliqchilik sohasiga tegishli bo'lib, unda oilaviy xo'jaliklar tomonidan baliq yetishtirish imkoniyatlari tug'ilmoqda. Bu holat baliq yetishtirishdagi dehqon va oilaviy xo'jaliklari tajribasi bilan va mahsulotlari tarkibida bozor bahosi past bo'lgan baliq mahsulotlari ulushi kattaligi bilan izohlanadi.

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan birgalikda o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida mahsulot va xizmat ko'rsatish rivojlanib bormoqda. Ya'ni, viloyat bo'yicha 2017-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot yoki xizmat hajmi 9351,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 24610,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan (1-jadval).

1-jadval. Xorazm viloyati tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot yoki xizmat hajmi (joriy narxlarda. mlrd. so'm)(3)

Hududlar nomlari	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Xorazm viloyati	9351,3	12727,8	14447,6	16957,7	20327,9	24610,4
Urganch shahri	208,5	347,9	321,7	386,7	485,1	555,4
Xiva shahri	33,6	36,0	47,5	53,2	62,8	78,1

Bog‘ot tumani	891,9	1225,9	1383,3	1642,9	1989,0	2370,7
Gurlan tumani	881,2	1196,4	1345,0	1607,4	1902,5	2424,7
Qo‘shko‘pir tumani	837,8	1115,5	1336,3	1501,4	1814,1	2287,7
Urganch tumani	1130,2	1498,1	1735,5	2061,1	2324,3	2775,7
Hazorasp tumani	1117,5	1558,5	1657,2	1503,8	1842,7	2216,0
Tuproqqal’a tumani	-	-	-	424,2	530,8	668,0
Xonqa tumani	978,0	1374,1	1515,8	1822,6	2161,3	2617,1
Xiva tumani	901,2	1012,7	1205,4	1371,5	1728,9	2040,6
Shovot tumani	913,8	1272,9	1473,4	1718,4	1995,4	2364,0
Yangiariq tumani	737,9	1070,7	1222,9	1454,1	1771,0	2092,5
Yangibozor tumani	719,7	1019,1	1203,6	1410,4	1720,0	2119,9

Ushbu jadvalga asosan, 2022-yilda Urganch shahrida 555,4 mlrd. so‘mga, Xiva shahrida 78,1 mlrd. so‘mga, Bog‘ot tumanida 2370,7 mlrd. so‘mga, Gurlan tumanida 2424,7 mlrd. so‘mga, Qo‘shko‘pir tumanida 2287,7 mlrd. so‘mga, Urganch tumanida 2775,7 mlrd. so‘mga, Hazorasp tumanida 2216,0 mlrd. so‘mga, Tuproqqal’a tumanida 668,0 mlrd. so‘mga, Xonqa tumanida 2617,1 mlrd. so‘mga, Xiva tumanida 2040,6 mlrd. so‘mga, Shovot tumanida 2364,0 mlrd. so‘mga, Yangiariq tumanida 2092,5 mlrd. so‘mga, Yangibozor tumanida 2119,9 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan.

Umuman olganda, viloyat uy xo‘jaliklarida baliq mahsulotlari aholi va bozor talablari asosida diversifikatsiya qilinishi, davlat tomonidan ularni qo‘llab-quvvatlash, nafaqat uy xo‘jaliklarining baliq mahsulotlari ishlab chiqarishini uzluksiz rivoji va tarkibiy o‘zgarishlarga olib keldi. Uy xo‘jaligida baliq yetishtirish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Uy xo‘jaliklari hududlar iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Buni uning yalpi hududiy mahsulot va budget daromadlarini shakllantirishdagi ishtiroki, hududiy investitsiya jarayonidagi ishtiroki, mehnat resurslarini qayta tiklash va shu yo‘nalishlarida kuzatish mumkin. Yuqorida ta’kidlaganidek, uy xo‘jaliklari aholi iste’moli uchun zaruriy baliqchilik mahsulotlarini yaratish hamda hududda oziq-ovqat bozorini sifatli mahsulotlar bilan ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi. Shularni hisobga olganda, uy xo‘jaliklarini rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb bo‘lib, bu ular daromadi, balki oila a’zolarini ish bilan bandligini ta’minlash va hududiy mahsulot hajmini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мак-Дональд М. Стратегическое планирование маркетинга. – СПб.: “Питер”, 2000.
2. Соловьев Б.А. Маркетинг: Учебник. – М.: ИНФРА, – М., 2008. – 383 с.
3. www.xorazmstat.uz

FALSAFA**GLOBALLASHUV SHAROITIDA ONA TILI MILLIY-MA'NAVIY
EHTIYOJLARNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI
SIFATIDA****UDK 808.3****Jamshid
DAVLETOV**

**Falsafa fanlari
bo'yicha falsafa
doktori (PhD),
Urganch
innovatsion
universiteti ijtimoiy-
gumanitar fanlar va
tillar kafedrası
mudiri**



Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari va uning dunyo xalqlari milliy-ma'naviy hayotiga o'tkazayotgan salbiy ta'sirlari tahlil qilingan bo'lib, ushbu jarayonda ona tili milliy-ma'naviy ehtiyojlarni rivojlantiruvchi va saqlab qoluvchi muhim omil ekanligi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv jarayonlari, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", ona tili, "Davlat tili to'g'risida"gi qonun, "milliy ong", "milliy tafakkur", "milliy tuyg'u", milliy-ma'naviy ehtiyoj, ko'p millatli O'zbekiston, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik.

Аннотация: В этой статье проанализированы процессы глобализации и её отрицательное влияние на национально-духовную жизнь народов мира, а также освещается роль родного языка как фактор влияющий на национально-духовные развитие и как фактор сохраняющий её.

Ключевые слова: процессы глобализации, "Высокая духовность-непобедимая сила", родной язык, закон "О государственном языке", "национальное сознание", "национальное мышление", "национальное чувство", национально-духовная потребность, многонациональный Узбекистан, психологическая и духовная связь между поколениями

Annatation: In shis article globalization and its negative effects which are effecting peoples' national-spirisual life are analyzed, in shis process mosher longue's imporsant factor is shown shat develops and keeps national-spiritual necessities.

Key words: globalization process, "Sligh spirit-unconquerable power", mosher langue, "Law about she State language", "national consciousness", "national shought", "national sense", national-spiritual necessity, multinational Uzbekistan, mental and spiritual dependence between generations.

Globallashuv – bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi”¹ ekan, masalani keng qamrovda o’rganish bu jarayonda ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarni rivojlantirish bugunnigina emas, kelajak taqdiri masalasi ham ekani oydinlashadi. Bu ehtiyojlarning katta bir qismi xalqimiz o’tmishi, tarixi bilan bog’liq ekanini e’tiborga olsak, muammo zamoniylilik nuqtayi nazaridan hamisha kun tartibida turishi zarurligi ko’rinadi. Globallashuv jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarni qondirish yo’llari va vositalari O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ko’rsatib berilgan. Asarning “Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori” deb nomlangan to’rtinchi bobining “Inson qalbiga yo’l” faslida aynan ana shu yo’l va vositalar o’z aksini topgan, desak yanglishmaymiz. Chunki inson qalbi, uning ma’naviyati odamni har qanday moddiy va ma’naviy sharoitda ham o’zligini saqlab qolishiga imkon yaratuvchi yagona omildir. Shuning uchun ham kitobning bundan oldingi boblarida “ma’naviyatning mazmun-mohiyati uni shakllantiradigan asosiy omillar, ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligi, yurtimizda olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlarning ma’naviy mezonlari haqida, shuningdek globallashuv davrida ma’naviy olamimizni turli salbiy ta’sir va tahdidlardan asrash va himoya qilish bilan bog’liq muammolar xususida” batafsil to’xtalib o’tilgan.

Ona tilini globallashuv jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarni qondirishdagi eng muhim vositalardan biri sifatida e’tirof etish mumkin. Bu jarayonda ko’plab vositalar bir-biri bilan uzviy bog’lanishi tabiiy bo’lgani holda, ularning hech biri ona tili kabi ko’plab miqdordagi boshqa vositalarni o’z atrofiga jamlay olmaydi. Shu ma’noda ona tili ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarni rivojlantirishda eng muhim omillar qatorida sanalishi tabiiy. Bugungi kunda “Davlat tili to’g’risida”gi qonun O’zbekistonning mustaqillik sari qo’ygan birinchi qadami sifatida e’tirof etilayotgani bejiz emas. “Shuni unutmaslik zarurki, bu qonunning tayyorlanishi va qabul qilinishi osonlik bilan, siliqqina bo’lgan emas. Dangal va xolisona aytganda, uning bu shaklda tayyorlanishi va qabul qilinishi O’zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning nomi va faoliyati bilan bog’liq”². Masalaning eng muhim jihatlaridan biri shuki, ona tili tushunchasi o’zbek tilinigina nazarda tutmasligi tabiiy. Shuning uchun ona tili globallashuv jarayonida har millatning milliy o’zligini saqlash, turli ma’naviy tahdidlardan saqlanishda eng ahamiyatli hamda ishonchli vositasi vazifasini o’taydi. O’zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O’zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o’rtasidagi ruhiy – ma’naviy bog’liqlik til orqali namoyon bo’ladi. Jamiki, ezgu fazilatlar inson qalbiga ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – millatning ruhidir”³ - degan fikrlari rad qilib bo’lmas tarixiy haqiqat hamda fanning eng so’nggi yutuqlaridan biri bo’lgan ilmiy xulosalarni o’zida mujassam eta olgan. Bu haqda N.Mahmudov yozadi: “Men til haqida o’ylasam, olmon tilshunosi Vilgelm fon Gumboldtning “Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -B.111

² Mahmudov N. Tilimizning qonuniy muhofazasi // O’zbek tili va adabiyoti. № 1. 2011.-B.3

³ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - B.88.

millatdagi dunyoni ko‘rishning farqliligi natijasidir” degan gapi esimga kelaveradi. Chindan ham, har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi bor, o‘ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor. Shuning uchun ham “milliy ong”, “milliy tafakkur”, “milliy tuyg‘u” degan oliy tushunchalar mana ming yillardir odam bolasining qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi. Amerika tilshunosi Benjamin Li Uorf “Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o‘ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo‘lardi degan.”¹. Demak, xalqimiz bizning jahoniy siymolar bo‘lib etishgan ajdodlarimiz qaysi tilda ijod qilishlaridan qat’i nazar ularning tafakkur sarhadlarining kengligi ona tilimiz jozibasi, imkoniyatlari, unda asrlar davomida shakllanib va sayqallashib kelgan teran dunyoqarash “sarchashma”si bilan bog‘liq ekan. Insonlar orasida aloqa-aralashuv vositasi bo‘lishi, uning ijtimoiy hodisa ekanini rad qilmagan holda aytish mumkinki, bu ta’riflar tilning mohiyati, vazifasini to‘la aks ettira olmaydi. Mutaxassislar to‘g‘ri e’tirof etganidek, “til eng avvalo, dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmashlik lozim”².

N.Mahmudovning yozishicha, Tokio universitetining tibbiyot professori Tadanobu Tsunoda 1981-yilda YUNESKOning Afinada o‘tgan simpoziumida o‘zining 15 yillik tajriba-tadqiqotlari natijalari haqida axborot beradi. Tsunoda o‘z tajribasiga yaponiyalik va g‘arblik (fransuz, ingliz, ispan, nemis va hokazo) kishilarni jalb qilgan. Olim ularga inson ovozi, hayvonlar, hashorotlar tovushi, turli fizik tovushlar, yapon va g‘arb musiqa asboblari tovushlarini eshittiradi va tegishli zamonaviy apparatlardan foydalangan holda ularning miyalaridagi markazlarning reaksiyasini qayd etib boradi, Tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, yapon va g‘arb tiplarining, ya’ni yapon va g‘arblik kishilarning bosh miya yarimsharlaridagi markazlar vazifalarining taqsimlanishida farq mavjud ekan. Boshqacha qilib aytganda, yapon kishisi miyasidagi muayyan bir markaz bilan qabul qiladigan tovushni g‘arb kishisi boshqa bir markaz orqali qabul qilar ekan.

Tadqiqotchi bu farq etnogenetika bilan bog‘liq yoki bog‘liq emasligini aniqlash maqsadida 20 ta yapon emigrantining bolalari ishtirokida yana tajriba o‘tkazadi. Natija shuni ko‘rsatadiki, bu farq genetik emas, balki ona tili muhiti bilan bog‘liq ekan. Ana shularga asoslanib, Tsunoda “insoniyat o‘z atrofidagi tovushlarni qabul qilishi, sezishi, o‘zlashtirishi va tushunishini ona tili differensiatsiya qiladi, ona tili miyadagi emotsional (his-hayajon, kuchli tuyg‘u) mexanizmning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Bolalikdan egallangan ona tili har bir etnik guruhning o‘ziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir” – degan xulosaga keladi.

Ana shu xulosaga asosan aytish mumkinki, ona tili muhiti sofligini saqlash millatga xos eng muhim belgini asrash sanaladi. Globallashuv inson faoliyatida birdaniga vujudga kelgan jarayon emas. Insoniyatning o‘zaro ijtimoiy

¹ Mahmudov N. Til.-Toshkent: Yozuvchi, 1998.-B.8

² Mahmudov N. Til.-Toshkent: Yozuvchi, 1998.-B.8

munosabatlarning ilk kunlaridanoq bu jarayonning dastlabki belgilari namoyon bo‘la boshlagan, desak yanglishmaymiz. Shuning uchun ham, turli etnik birliklar munosabatga kirishgan vaqtda ona tilining ma’rifiy ahamiyati har qachongidan ham ko‘proq ko‘zga tashlangan va shunday bo‘lib qoladi. XI asr sharoitida Mahmud Koshg‘ariy davr muhiti hamda ta’sir vositalaridan kelib chiqqan holda, turkiy tilni o‘rganishga targ‘ib qilgan bo‘lsa¹, XV asrdayoq Alisher Navoiy ona tilining ma’rifiy-ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy o‘rnini bugungi kundagi darajada teran anglab, “bu xalq arosidin paydo bo‘lg‘on ta’b ahli va salohiyat va ta’blarin o‘z tillari turg‘och, o‘zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi”² – deb yozadi. Ushbu satrlarning ahamiyati bugungi kunda yanada muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etib bormoqda. Alisher Navoiy o‘tgan asrning saksoninchi yillariga kelibgina o‘z isbotini topgan ilmiy haqiqatni daholarga xos shuur bilan anglay olgan ko‘rinadi.

Globalashuv jarayonida milliy-ma’naviy ehtiyojlarni rivojlantirish vositalari bo‘lgan badiiy adabiyot, tarixiy xotira, oila, ta’lim-tarbiya kabilar ona tili bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘ladi. Ko‘p millatli O‘zbekiston sharoitidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, o‘z ona tiliga sodiq bo‘lmagan, ona tilini qadrlamagan odam hech qanday aqidani ham, hech qanday mafkurani ham, hech qanday tarixiy shaxsni ham qalban qabul qila olmaydi, aniqroq aytganda, bunday odamlar uchun hech qanday muqaddas narsa bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Respublika Oliy Majlisining o‘n birinchi sessiyasida so‘zlagan nutqi davriy nashrlarda “Til elni birlashtirishi lozim” sarlavhasi bilan e’lon qilingani bejiz emas. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “o‘z ona tilini bilmaydigan odam o‘zining shajarasini, o‘zining ildizini bilmaydigan kelajagi yo‘q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb to‘g‘ri aytishadi³” – degan so‘zlari, ayniqsa, globalashuv jarayonida og‘ishmay amal qiladigan dasturga aylanmog‘i kerak. Bundan tashqari, bu jarayonda “biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikuning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur.”⁴

¹ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. Birinchi tom. – Toshkent: O‘zFAN, 1960. - B.34-35

² Alisher Navoiy. Asarlar. O‘n besh tomlik. O‘n to‘rtinchi tom. – Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti. -B.118.

³ Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent, 2011. -B.69.

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -B.87

MAXTUMQULI FIROG'YNING INSON FALSAFASI MASALASIDAGI QARASHLARI



**Madamin
ABDULLAYEV**

**Urganch
innovatsion
universiteti ijtimoiy-
gumanitar fanlar va
pedagogika fakulteti
dekani**



UDK 101.091

Annotatsiya: Mazkur maqolada Maxtumquli Firog'iyning inson mohiyati, uning maqsad va intilishlari, hayotda amal qilishi lozim bo'lgan axloq qoidalari, insondagi fazilat va illatlar xususidagi qarashlari, insonning murakkab mavjudot ekanligi, oiladagi tarbiyaning ahamiyati borasidagi mulohazalari, insoniy sifatlar xususidagi falsafiy fikrlari qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inson, jamiyat, axloq, tarbiya, munosabat.

Аннотация: В статье кратко анализируется размышления Махтумкули Фираги на сущности человека, его цели и стремления, нравственные правила, которым следует руководствоваться в жизни, его взгляды на человеческие качества и пороки, на то, что человек сложное существо, его мысли о важности воспитания в семье и его философские размышления о человеческих качествах.

Ключевые слова: человек, общество, нравственность, воспитание, отношения, сущность.

Annotation: This article briefly analyzes Magtymguly Pyragi's reflections on the essence of a person, his goals and aspirations, the moral rules that should be guided in life, his views on human qualities and vices, on the fact that a person is a complex being, his thoughts on the importance of education in family and his philosophical reflections on human qualities.

Keywords: person, society, morality, upbringing, relationships, essence.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida inson mohiyati, uning hayotiy maqsad va qarashlari falsafiy ta'limotlarning muhim mavzularidan biri bo'lib kelgan. Inson tabiatning bir qismi sifatida ming yillar davomida boshqa mavjudotlardan o'zining ijtimoiy xususiyatlari bilan farqlanib taraqqiy etib kelgan. Insonning mohiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida ham biologik, ham ijtimoiy belgilarni namoyon qiladi. Uning biologik rivoji tabiat qonuniyatlari asosida amalga oshsa, ijtimoiy shakllanishi jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga muvofiq ongli ravishda sodir bo'ladi.

Insonning mohiyati, uning maqsad va intilishlari, hayotda amal qilishi lozim bo'lgan axloq qoidalari, insondagi fazilat va illatlar Maxtumquli pand-nasihatlarida ham muhim o'rin tutadi. Mutafakkir jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tahlil qilar ekan, avvalo, bu jarayonda inson omilini anglab,

mushohada etadi. “Tabiatni bir butun hisoblaydi, odam esa ana shu tabiatning oliy mahsuli va muqaddas bir mavjudoddur. Shuning uchun insonni qadrlaydi, barcha boyliklar insonga xizmat qilishi kerak, deydi” [1, C.63]. Odamlarning fe’li, xulq-atvori, xarakteri, ilmu tafakkuri jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog’liqligini tushunadi. Shu bois inson mavzusida yozilgan asarlarida insoniylikni ulug’lab, mavjud illatlarni keskin qoralaydi.

Odam bo’lib odam qadrin bilmasa,
Undan ko’ra o’tlab yurgan mol yaxshi.
So’zlaganda so’z qadrini qilmasa,
Undan ko’ra so’zlamagan lol yaxshi [2, C.60].

Mutafakkir bunday o’zaro zid bo’lgan ta’sirli o’xshatishlarni qo’llagan holda, insonning fazilat va illatlarini yanada teranroq anglash, mushohada qilishga chaqiradi. Bugungi rivojlangan jamiyatda qabul qilingan huquqiy normalarda inson qadri, sha’ni hurmat qilinishi qat’iy belgilab qo’yilgan. Ammo ushbu huquq normalariga zid xatti-harakatni amalga oshiruvchi insonlar ham ko’plab topilishi mazkur masalaning dolzarbligini ko’rsatadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlardagi turli-tuman ma’lumotlarni kuzatib, ular haqida tayinli mulohaza qilmayotgan, tarbiyasi buzilayotgan va eng achinarlisi, o’zgalar sog’ligi va joniga qasd qilishgacha borayotgan yoshlarning ko’plab uchrashi isbot talab qilmaydigan holatga aylanmoqda. Ota-onalarning befarqligi, tirikchilik bahonasida farzand tarbiyasini unutib qo’yishlari oqibatida, afsuski, jamiyatimizda bunday nohush holatlar tez-tez sodir bo’lmoqda. Shu bois mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda Maxtumduli pand-nasihatlarini keng ommaga targ’ibot-tashviqot qilish bu vaziyatni yaxshilashga xizmat qilishi maqsadga muvofiq.

Maxtumduli insonning nihoyatda murakkab mavjudot ekanligi, uni tushunish mushkulligi, sifatlaridagi rang-baranglik o’zaro munosabatlarda birmuncha qiyinchiliklar tug’dirishini anglab yetadi. Mutafakkir insoniy sifatlar xususida mushohada qilar ekan, xushmuomalalik, o’zaro hurmat-izzatni ulug’lab, badhulq, dilozor, qo’pol, beandisha odamlarni keskin tanqid qiladi. O’zining pand-nasihatlarida bundaylardan yiroqa turishni, hamsuhbat bo’lmaslikni maslahat beradi.

Maxtumduli, hargiz topmadi omon,
Yomon tilning zahri tig’lardan yomon,
Yomon til yonida zahri ko’p ilon –

Chaqsa-da, bir chivin chaqqancha bo’lmas [3, C.22], deya odamlarni ogohlikka chorlaydi. Asli tarbiyasi buzuq, tili zahar odamdan hech vaqt yaxshi so’zu yaxshi amal kutmaslikni uqtiradi. Hatto zaharli ilon ham yomon so’z qarshisida ojiz qolishini ta’sirli tarzda ifodalaydi.

Mazkur pand-nasihatlar bugungi kunda odamlar orasida uchraydigan o’zaro muomaladagi qo’pollik, birovning diliga ozor beruvchi haqoratomuz munosabatlarni to’g’ri yo’lga solishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayniqsa, bugungi kunda ma’lum darajada mol-dunyo orttirib, dimog’i ko’tarilib, odamiylik sifatlarini yo’qotgancha o’zlaridan iqtisodiy imkoniyati pastroqlarni mensimay, qo’pol muomala qiluvchilar ko’p uchrayotgani bu kabi illatlarni o’z

vaqtida bartaraf etishni taqozo qiladi. Mutafakkir o'z pand-nasihatlarida odamlarga qarata yaxshi bilan yomonni ajrata olishni, yomon xulqli kishilardan uzoqroq yurishni, yaxshi insonlarga yaqin turishni va ular bilan do'st bo'lishni maslahat beradi.

Maxtumquli inson tarbiyasi nihoyatda muhimligini va bunda oiladagi tarbiyaviy muhit alohida o'rin tutishini ko'p bora ta'kidlagan.

Maxtumquli, elga yoyding nasihat:

Yomon bilan sira bo'lmagil ulfat.

Xudo bersa esli-hushli bir farzand,

Qarigan chog'ingda yosh etar seni [4, C.26].

Bu kabi misralarida mutafakkir inson taqdirida oilaviy muhit, undagi ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini yuksak baholab, farzand kamolotiga muhim masala sifatida qarashni uqtiradi. Farzand esli-hushli bo'lsa, ota-ona keksayganida ularga tirgak, suyanch bo'lishi, ularning xurmatini joyiga qo'yib jamiyatda o'z o'rnini topishini ta'kidlaydi. Jamiyat taraqqiyotida barkamol avlod tarbiyasi dolzarb masalaga aylangan bugungi kunda Maxtumqulining mana shunday pand-nasihatlarini muhim g'oyaviy-tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Maxtumquli insoniy sifatlarni tavsiflar ekan, avvalo, odamlarning hayotda o'z o'rnini topishlarini, maqsad, intilishlarini to'g'ri belgilab olishlarini, muhimi, insoniylikni yo'qotmasliklarini uqtiradi. O'tkinchi dunyoning tashvishlari deb atrofda insonlarning qadr-qimmatini unutmaslik, o'zaro hurmatni saqlash lozimligini ko'p bora ta'kidlagan. Mutafakkir odamlarga qarata hayotning qadriga yetishni ta'kidlar ekan, bunda turli misollardan unumli foydalanadi.

Sog'lig'ing qadrini bilgil, xasta bo'lmasdan burun,

Xastalik shukrini qilg'il, toki o'lmasdan burun,

Tuz yer qadrini bilgil, daryo to'lmasdan burun,

Kemada xushyor o'tirgil, girdoba kelmasdan burun,

Yoshliging qadrini bilgil, to tark etmasdan burun [2, C.94].

Mazkur o'g'itlari orqali shoir odamlarga qarata bu dunyoning o'tkinchiligini, Alloh bergan qisqagina umrni savob amallarga sarf etish lozimligini, keyin afsus qilish yaramasligini tushuntirmoqchi bo'ladi. Buyuk boylik bo'lgan sog'liqni uni yo'qotmasdan oldin asrash, yoshlikni keksaymasdan avval qadriga yetish zarurligini uqtiradi. Inson fe'li odatda ko'p narsalarning qadr-qimmatini ulardan ajralgandagina anglashida. Shu bois, mazkur pand-nasihatlar odamlarda hayotning, sog'liqning, yoshlikning, boringki, barcha narsaning qadriga yetishni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxtumquli o'z pand-nasihatlarida insonning eng mukarram, oliy jonzot ekanligini, borliqdagi barcha mavjudotlarning mukammali ham shu inson sanalishini ko'p bora ta'kidlagan. Insonning ma'rifatli bo'lishini, Haqni tanib, iymon-e'tiqod yo'lidan yurib yanada komillikka erishishini istaydi. Professor N.Komilovning ta'kidlashicha: "Odam bolasining hayoti ham mutloq yaxshilik yoki mutloq yomonlik ichra kechmaydi. Lekin shunga qaramay, dunyoga kelgan har bir odam xayrli-savob ishlar bilan band bo'lsa, mardlik, saxovat ko'rsatsa, u go'zaldir, sevimlidir. Hayotga ma'no beradigan, uni bezaydigan ana shulardir" [6, C.6].



Darhaqiqat, inson nopok, razil yoki dono, oqil bo‘lib tug‘ilmaydi. Mavjud ijtimoiy muhit uni tarbiyalaydi, kamolga yetkazadi. Muhit sog‘lom bo‘lsa, inson tarbiyasi mukammal bo‘ladi, aksincha, nosog‘lom muhitda ulg‘aysa, tarbiyasi buzilgan, ma’naviy qashshoq, johil bo‘lib qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Insonning eng takomil xususiyati – bu o‘zini anglaganligi. O‘zini anglagan inson dunyoga nega keldim, nima qilayapman, ertaga qilgan ishlarimga qanday javob beraman, degan savollarni o‘z oldiga qo‘yib mushohada qiladi. Insonning haqiqiy fojiasi – o‘zligini yo‘qotishi. Hayotda bemaqsad yashashga mahkum qancha insonlar borki, ularni to‘g‘ri yo‘lga solish, tarbiyalash, o‘zligini anglashga ko‘maklashish jamiyatning asosiy vazifalaridan sanaladi. Qurbon Muhammadrizo ta’kidlaganidek, “...inson tarbiyasi bobida uni nuqsonlardan, gunohlardan qutqarishni maqsad qilib olgan Maxtumquli she’rlari kishini hayot bilan, ilohiyot bilan bog‘laydigan vositaga o‘xshaydi. Uning she’rlarini mutolaa qilib, inson o‘z qalbiga nazar tashlab, o‘zini taftish-imtihon qilib, bu olamda mavjudligini qayta angelaydi, zimmasida katta ma’suliyat sezadi” [7, C.16-17].

Maxtumquli o‘z pand-nasihatlarida odamlardagi nuqsonlarni tasvirlar ekan, ularni bartaraf etish uchun nima qilish kerakligini ham aytib o‘tadi. Jumladan, o‘zining “Yor aylar” degan she’rida:

Maxtumquli, endi o‘zingni ko‘zla,
Yaxshini ta’rifla, yomonni tuzla,
Oz yegin, oz uxla, yana oz so‘zla,

Ko‘p so‘z seni el ichinda xor aylar [8, C.24], deya muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega fikrlarini bayon etadi. “Yaxshiga yondosh, yomondan qoch”, “Yaxshi yeydi oshini, yomon yeydi boshini” kabi xalq maqollaridan ustalik bilan, unumli foydalangan mutafakkir odamlarga qarata kam yemoq, kam uxlamok, kam so‘zlamoqlik elda aziz qilishini, aksincha bo‘lsa hayotda xor qilishini uqtiradi.

Insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, ma’rifatga, komillikka yetaklovchi bunday pand-nasihatlarining bugungi kundagi ahamiyati juda katta. Insonning tub mohiyatini tahlil qilishga qaratilgan pand-nasihatlari mutafakkir ma’naviy

merosining asosini tashkil etadi va bugungi davrda ko‘proq o‘rganishni, tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Insoniylikni ulug‘lagan shoirning hamisha ezgulik yo‘lida yashash, odamlarga yaxshilik, hayru sahovat amallarini qilish borasidagi fikr mulohazalari bayon qilingan hikmatlari diqqatga sazovordir. Bugungi shiddatli zamonda bu kabi pand-nasihatlar insonlarni to‘g‘ri yashashga, o‘zgalarning qadr-qimmatini e‘zozlash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo‘shadi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I., Rustamova M. Falsafa fani tarixi va nazariyasi (metodik qo‘llanma) Toshkent, 2006, B. 63.
2. Maxtumduli. Sevmisham seni: she‘rlar. (tarj. Muzaffar Axmad).- Toshkent: “DAVR PRESS” NMU, 2016, B. 60.
3. Maxtumduli. Dunyo o‘tib boradir. (Nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi E.Ochilov) Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007, - B. 22.
4. Maxtumduli. Hikmatlar. (Tarjimon va tuzuvchi E.Ochilov) Toshkent: “O‘zbekiston”, 2013, B. 26.
5. Maxtumduli. Sevmisham seni: she‘rlar. (tarjimon Muzaffar Axmad).- Toshkent: “DAVR PRESS” NMU, 2016, B. 94.
6. Maxtumduli-Firog‘iy. Saylanma. (Tarjimonlar Jumayev A, Zulpiyev J.) –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2008, B.6.
7. Qurbon Muhammadrizo. Maxtumduli dunyosi. “Xorazm” nashriyoti, 2013, B. 16-17.
8. Maxtumduli. Saylanma. (tarjimon M. Pirriyev) Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2019. B. 24.

SAN'ATSHUNOSLIK

XIVALIK HAYKALTAROSHLAR



**Sobirjon
SOBIROV**

**Xorazm Ma'mun
akademiyasi kichik
ilmiy hodimi**

UDK 101.091

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xivalik ustoz va shogird haykaltarosh-rassomlar Abdurahim Ahmedov, Shavkat Usmonovlarning ijodiy faoliyatlari va ular yaratgan asarlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Xiva, Samarqand, Tallin, haykal, byust, ko'rgazma, muzey, galereya.

Аннотация: В статье описывается творческая деятельность хивинских мастеров и учеников скульпторов-художников Абдурахима Ахмедова и Шавката Усманова и созданные ими произведения.

Ключевые слова: Хива, Самарканд, Таллинн, статуя, бюст, выставка, музей, галерея.

Annotation: This article describes the creative activities of Khiva's master and apprentice sculptors-artists Abdurahim Ahmedov and Shavkat Usmanov and the works created by them.

Key words: Khiva, Samarkand, Tallinn, statue, bust, exhibition, museum, gallery.

Qadimiy Xiva nafaqat o'zining me'moriy obidalari va bu o'lkada ijod qilgan shoirlari, tarixnavislari bilangina emas, hassos naqqoshlari, haykaltarosh va toshtaroshlari bilan ham ma'lum-u mashhurdir. Ana shunday Xivalik haykaltaroshlardan ustoz-shogird sifatida ijod qilib o'z asarlari bilan san'at muxlislarini maftun qilgan Abdurahim Ahmedov va Shavkat Usmonovlardir. Abdurahim Ahmedov Ichon qal'adagi Hojibobo mahallasida 1916-yilda dunyoga kelgan. Uning otasi Ahmadjon taniqli tarixchi, tazkiranavis olim shoir Hasanmurod ibn Muhammadin o'g'li Laffasiyning ukasi bo'lib, savdo-tijorat bilan shug'ullangan. Abdurahimdagi iste'dodni ko'rgan Ahmadjon farzandini Deshon qal'ada istiqomat qilgan nemis rassomi, haykaltaroshiga shogirdlikka beradi. Natijada ijodga ixlos ruhida kamol topgan Abdurahim ma'lum bir muddat nemis ustozidan o'qib o'rganganlari, o'z bilimlarini oshirish maqsadida Samarqandga borib, universitetda tahsil oladi. U o'qish, bilimni oshirish bilan birga Samarqandlik rassom-haykaltaroshlardan ham mahorat sir-asrorlarini o'rganadi. Shu bilan birga Abdurahim ta'til vaqtida Boltiqbo'yiga sayohat qilib Riga, Kaunas hamda Leningradni sayohat qilishga musharraf bo'ladi. Tabiiyki, bu sayohat yosh haykaltarosh hayotida juda katta iz qoldirdi. Ayniqsa Neva daryosi bo'yidagi shaharda Pyotr I ning salobatli haykali Abdurahimning qalbida yangi his-tuyg'ular uyg'otdi. Natijada ana shu ishtiyoq bois yosh Abdurahim

ko'nglida jahonga dovrug' taratgan Xorazmlik mutafakkir allomalarning jonli siymolarini yaratish fikri uyg'ondi.

Samarqand universitetini tugatib, Xivaga kelgan haykaltarosh-rassom Abdurahim Ahmedov nazariy bilimlarini amaliy ish bilan mustahkamlashida shahardagi ta'lim-tarbiya texnikumi qo'l keldi. U 1940-yilda shu bilimgo'ha yigit-qizlarga rassomchilikdan saboq berar ekan, texnikumda haykaltaroshlik ustaxonasi tashkil qildi va ko'plab haykallar yaratdi.

“O'z kasbini sevgan Abdurahim Ahmedov 1941-yilda xayrli ishga qo'l urdi va ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar byustini ishladi (hozirgi kunda ushbu san'at asari shoirning uy muzeyi oldida o'rnatilgan). Shoirning ichki dunyosi va yuzidagi ruhini aks ettirgan ushbu byust dastlab o'lka tarix muzeyida namoyish etildi”(1). Avaz O'tar siymosi keng jamoatchilik tomonidan ma'qullanib, qizg'in kutib olindi hamda shoir qiyofasi to'laqonli ochib berilgan asar deb yuqori baholandi.

Tabiiyki, san'atsevarlar bildirgan ishonch va baho haykaltaroshni yangi parvozlariga chorladi. Abdurahim biri-biridan go'zal, jozibador haykallar yaratdi. Natijada qaynoq ilhom bilan qardosh turkman xalqining faylasuf shoiri Maxtumquli siymosini gavdalandirdi. A.Ahmedovning ushbu asari Xiva va Toshhovuz muzeylarida namoyish etilib, shoir haykali bir zumda xalq nazariga tushdi. Yuksak san'atkorona qiyofada yaratilgan Maxtumqulining siymosi ko'pchilikning qiziqishini oshirdi. Asarda shoirning “Go'zal Sherg'ozixon” radifli she'ri asosida xayol surib turgan holati gavdalandirilgan. A.Ahmedovning yana bir asarida esa Maxtumqulining keksalik tasvirlangan edi.

Afsuski, haykaltarosh-rassomning ijodi endigina gullab-yashnayotgan paytda urush boshlanadi. “Shu tariqa 1942-yili Abdurahim Ahmedov ko'ngilli bo'lib frontga ketdi va Berlingacha bo'lgan jang maydonlarini bosib o'tdi. Urushdan keyin esa yana u o'zining Xiva pedagogika texnikumida o'qituvchilik qilish bilan birga, butun fikri, diqqat-e'tiborini tarixiy shaxslar portretini yaratishga qaratdi”(2). Bunga misol sifatida Abdurahim aka yaratgan Al-Xorazmiy, Beruniy hamda mashhur hakim Ibn Sino haykallarini misol keltirish mumkin.

Haykaltarosh Abdurahim Ahmedovning vaqt o'tib bilimi, tajribasi va mahorati osha bordi. Ayniqsa, Moskvalik hamkasb do'sti Eduard Zarekiy bilan hamkorlikda Xivaning markazidagi xotira maydonida o'rnatilgan baynalmilalchi jangchilarning yodgorlik monumentini yaratdi. Ushbu san'at obidasi hozirgacha o'zbek, rus, turkman, qozoq va teatr xalqlari inoqligi, do'stligi ramziga aylangan bo'lib, ko'p sonli sayyohlar va yosh kelin-kuyovlar ziyoratgohi bo'lib qolmoqda.



Umri davomida buyuk siymolarni haykal qiyofasida gavdalantirgan Abdurahim Ahmedov 1965–1975-yillar davomida Ogahiy, Komil Xorazmiy, atoqli xonanda va bastakor Sheroziyning byust va haykallarini yaratdi.

Shu bilan birga Abdurahim Ahmedov Ichon qal’ada tibbiyot muzeyini barpo qilishda tibbiyot fanlari doktori, Otanazar Abdullayev bilan birgalikda sa’yi-harakat olib bordi. Urganch davlat universiteti xiyobonidagi shoir, allomalarning byustlarini yaratishga ham hissasini qo’shdi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mohir haykaltarosh Abdurahim Ahmedovdan boy ijodiy meros qoldi. U yaratgan haykal va byustlar Toshkent, Buxoro, Ashxobod, Toshhovuz, Nukus shaharlari muzeylarida hamda bir qancha istirohat bog’lari, klub va madaniyat uylarida hozirgacha qad ko’tarib turibdi.

Xiva pedagogika texnikumida yoshlarga tasviriy san’at sirlarini o’rgatish bilan birga doimiy ravishda ijod bilan ham samarali shug’ullanib kelgan Abdurahim Ahmedov o’z yo’nalishida ko’plab shogirdlar yetishtirib, 1987-yilda vafot etdi.

Abdurahim Ahmedovning eng mohir shogirdlaridan biri Shavkat Usmonovdir.

1941-yil 10-dekabrda Xiva shahrida ziyolilar oilasida tug’ilgan Shavkat Usmonov san’atga ixlos ruhida kamol topib, dastlab Toshkentdagi rassomchilik bilim yurtida, 1968-1973-yillarda esa teatr va rassomlik institutida (hozirgi O’zbekiston madaniyati va san’ati) tahsil oladi.



Vaqt Shavkat Usmonov ham ustoz Ahburahim Ahmedov singari tarixdagi buyuk ajdodlarimiz siymosini yaratishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Natijada, o‘zbek san’atsevarlari aynan Shavkat Usmonov mahorati tufayli Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Pahlavon Mahmud siymolari gavdalangan o‘nlab yuksak saviyali mahobatli asarlari, ulardagi estetika, mazmun-mohiyat bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Ayniqsa, mahoratli haykaltarosh Shavkat Usmonov ijodiy faoliyati davomida ko‘plab turli mavzudagi san’atkorona ishlarini yaratishga muvaffaq ijodkordir. Jumladan, Shavkat Usmonov tomonidan ishlangan, bugungi kunda Urganch shahri ko‘rkiga ko‘rk bag‘ishlab turgan **“Abulg‘ozi Bahodirxon”** haykali – ma’rifatparvar xon Abulg‘ozi Bahodirxon tavalludining 400 yilligi munosabati bilan yaratilgan. Asar temirbetondan ishlangan bo‘lib, uning o‘lchami 5 metrni tashkil qiladi. Bu mahobatli asarni yaratish uchun ijodkor 1 yil davomida tinimsiz mehnat qilishiga to‘g‘ri kelgan.



Ogahiy haykali. O‘z davrida kitobxonlar tomonidan Navoiyga qiyoslangan Xorazmning buyuk shoiri timsolini yaratishga erishgan bo‘lib, bu asar Xiva tumanidagi Ogahiy nomli ijod maktabi oldida o‘rnatilgan. Ushbu mahobatli asarni yaratish uchun ijodkor 2 yilga yaqin vaqt mobaynida mehnat qilgan. Asarning tarkibi temirbetondan iborat bo‘lib, bu o‘z o‘rnida ijodkordan mashaqqatli mehnat va sabr-toqatni talab qilgan.

Muhammad Rahimxon Feruz tavalludining 150 yilligi munosabati bilan 1994-yilda, 1997-yilda Ibn Sino tavalludining 1017 yilligi va Beruniy tavalludining 1024 yilligi munosabati bilan yaratilgan haykallar ham Shavkat Usmonovning mahoratli qo‘llari bilan yaratilgan”(3).

Bundan tashqari haykaltarosh tomonidan yaratilgan va Urganch davlat universiteti binosi oldiga o‘rnatilgan **“Xorazmning buyuk allomalari”** haykallar turkumi ham haykaltarosh Shavkat Usmonov ijodining beqiyos mahsulidir. Bu turkumdan Al-Xorazmiy haykali, Muhammad Rahimxon II, Muhammadrizo Ogahiy, Pahlavon Mahmud, al-Xorazmiy byusti, Az-Zamaxshariy, Ibn Sino, Beruniy timsollari munosib o‘rin olgan. Bu ijod mahsulini tomosha qilgan har bir xorazmlik qalbida shunday buyuk o‘tmish allomalarimizning avlodlari ekanligidan faxr va iftixor tuyg‘ulari uyg‘onishi aniq. Bu turkumdan joy olgan allomalar qiyofasi ijodkor tomonidan juda mohirona ishlangan bo‘lib, har bitta shaxsning xarakteri to‘liq ochib berilishiga erishilgan. Masalan, Feruz qiyofasida xonlarga xos salobat, jiddiylik, qat‘iylik bilan bir qatorda shoirlarga xos soddalik va o‘ychanlik aks etgan bo‘lsa, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino qiyofalaridagi yaratuvchanlikka, yangilikka bo‘lgan intilish va izlanishlar xayoli, Pahlavon Mahmud va Zamaxshariydagi avliyonomo sifatlarining alohida aks ettirilganligi ham ijodkorning yuksak mahoratidan dalolatdir.

Bu turkumning mantiqiy asosi hisoblangan buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy** timsoli gavdalangan mahobatli haykal 1991-yilda yaratilgan bo‘lib, bu haykal Xonqa tumanidagi madaniyat va istirohat bog‘iga o‘rnatilgan edi. Asarning tarkibi temirbetondan iborat bo‘lib, balandligi 3 metrni tashkil qiladi. Asarda o‘ng qo‘lida kitob ushlagancha chuqur o‘yga tolgan holatdagi yuzlari nuroniy alloma qiyofasi tasvirlangan.

Xorazm xalqining jonkuyar va ma‘rifatparvar shoiri **Avaz O‘tar** haykali ham Shavkat Usmonov qalamiga mansub bo‘lib, 1982-yilda yaratilgan. Asar tarkibi temirbetondan iborat bo‘lib, o‘lchami 2 metrga yaqin.

Haykaltarosh Shavkat Usmonov o‘zining sermazmun va serqirra ijodiy faoliyati davomida nafaqat mahobatli haykallar balki turli mavzu va hajmdagi ijod namunalarini yaratishga ham erishgan mahoratli ijodkordir. Bugungi kunda uning turli yillarda yaratgan rang-barang mavzudagi ijodiy ishlaridan namunalar Urganch shahridagi **O‘zbekiston zamonaviy san’ati muzeyi fond jamg‘armasida** ham saqlanmoqda. Jumladan, “Xorazm xalfalari”, “Usmon bobo portreti”, “Safo Bog‘ibekov”, “Safo Do‘schonov”, “Safdoshtar”, “Safo Do‘schonov portreti”, “Ulug‘bek portreti”, “Gena portreti”, “Ota Polvonov portreti”, “Nadejda Grigoryevna portreti”, “Komiljon Otaniyozov”, “Vladimir Visoskiy”, “Ilk qadam”, “Avtoportret”, “Ro‘zmat Madaminov”, “Humo qushi”, “Sanam”, “Guli portreti”, “Toqtosh portreti”, “Isfandiyor portreti” kabi asarlar.

Shavkat Usmonov o'zining ijodiy ishlarining keng ko'lami, mavzu va mohiyatini tomoshabinga yetkazib berishda yuksak badiiy yetuklikka erishgan mehnatsevar, mohir, izlanuvchan ustozdir. U yaratgan har bitta ijod namunasi o'zining betakrorligi va bir-biriga o'xshamasligi bilan ajralib turadi. Chunki ijodkor bir asarga qo'l urishdan oldin, yaratayotgan har bir obrazini eng mayda detallarigacha to'liq o'rganishga, agar u tarixiy shaxs bo'lsa u haqdagi barcha ma'lumotlarni, hatto o'sha shaxs yashagan davr tarixini, inson anatomiyasini alohida o'rganishga harakat qiladi. Bu esa san'atkor uchun asarning mukammal tarzda yaratilishiga asos bo'la oladi. Shu sababdan Shavkat Usmonov tomonidan yaratilgan asarlar tomoshabinni zeriktirmaydi, aksincha, har bitta asar tomoshabinda alohida taassurot qoldira oladi.

Shuningdek, "Ichon-qal'a" muzey qo'riqxonasidagi "Zindon" va "Zarbxona" ekspozitsiyasini ham Shavkat Usmonov tomonidan yaratilgan ijod namunalari to'ldirib turibdi.

1975-yilda yaratilgan **"Zindondagi mahbuslar"** kompozitsiyasi va 1977-yilda yaratilgan **"Zarbxona" kompozitsiyalari** nafaqat mahalliy tomoshabinni, balki chet ellik sayyohlarning ham diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Bu yerdagi haykallarni kuzatgan har bitta tomoshabin o'zini xuddi o'sha davrga tushib qolganday his qiladi va o'sha davr mohiyatini anglay oladi. Bu haykallar orqali tomoshabin o'tmishdagi xonlik davri, u yerdagi muhit, shaxslarning ish, hayot va mehnat jarayonlari haqida ma'lumotga ega bo'la oladi. Haykallarni diqqat bilan kuzatilsa ulardagi har bitta mayda detalga ham jiddiy yondashilgan holda ishlov berilgani, har bitta shaxsning yuz qiyofasidan tortib liboslari, gavda tuzilishi va harakat jarayonlariga alohida ishlov berilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu esa ijodkorning eng katta yutug'i hisoblanib, har bitta asarning yuksak badiiy mahorat, did va albatta, tarixiy asoslari bilan yaratilganligining isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ahmedov avlodlaridan S.Sobirov yozib olgan dara yozuvi.
2. A.Ahmedovning shaxsiy xotira daftari.
3. S.Sobirovning Sh.Usmonovning uchrashuvidagi dala yozuvlari

UNIVERSITETDA NAVRO‘Z BAYRAMI SHODIYONALARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

**№1-2 (1)
2023-yil, mart**

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Mas’ul kotib:	U.Bekimmetov
Musahhih:	J.Sobirov
Texnik muharrir:	M.Quranboyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezident administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni

№062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga ruxsat berildi: 10.03.2023

Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi: 300.

Hajmi: 7 b.t. Buyurtma №

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22